

# **11-sinf tarix fanidan imtihon biletlari javoblari**



## 1-bilet

### 1. Amir Temurning davlat boshqaruvidagi islohotlari.

Sohibqiron Amir Temur o‘z zamonasining talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat boshqaruvini takomillashtirdi, unga yangicha ruh va mazmun berdi. Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo‘lsa-da, jamiyat rivoji, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarni ta‘minlash nazarda tutilgan edi. Amir Temur sultanatida davlat boshqaruvi ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon)dan iborat bo‘lgan. Dargohni Oliy hukmdorning o‘zi boshqargan. Ijroiya hokimiyat – devonni devonbegi (bosh vazir) boshqargan. Devonda harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri faoliyat yuritgan. Bulardan tashqari, sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug‘ullanuvchi yana uch vazir bo‘lib, ular devonbegiga hisobot berib turgan. Tashqi va ichki favqulodda voqealardan voqif etib turuvchi ming nafar piyoda, ming nafar ot mingan choparlari bo‘lgan. Butun sultanat bo‘ylab bir kunlik yo‘l oralig‘ida yomxonalar tashkil etilgan. Har bir yomda 50–200 boshdan ot-ulov tutilgan. Sohibqiron mamlakatni boshqarishda o‘z yaqinlariga suyandi. Sohibqiron davlat boshqaruvi ishlarida islom qonun-qoidalalariga asoslangan. Uning Qur’oni karim va Hadisi shariflarga munosabati samimiyy va oliy darajada bo‘lgan. Payg‘ambar avlodlari, shayxul-mashoyixlarga hurmati cheksiz edi. Davlatni kuchaytirishda ham aynan shunday kishilarga tayanib ish yuritgan.

### 2. Temuriylar tarixi davlat muzeysi haqida ma’lumot bering.

Temuriylar tarixi davlat muzeysi 1996-yilda bunyod etilgan. Balandligi 31 metr bo‘lgan muzeey binosi uch qavatlidir. Muzeey ko‘rgazma zalining markazida devorga ajoyib tasviriy san‘at asari ishlangan. Unga «Buyuk Sohibqiron - buyuk bunyodkor» deb nom berilgan. Asar «Tug‘ilish», «Yuksalish» va «Faxrlanish» nomlari bilan ataluvchi 3 qismidan iborat. «Tug‘ilish» qismida Sohibqironning (buyuk bobomiz Amir Temuring) tug‘ilishi bilan bog‘liq urf-odatlar tasvirlangan. «Yuksalish» qismida buyuk bobomiz hayotida doimo amal qilgan «Rosti-rusti», ya‘ni «Tog‘rilik najotdir» degan shiori oltin harflar bilan yozib qo‘yilgan. Shuningdek, bu qismida Sohibqironning vazirlar, harbiy sarkardalar va olimlar bilan o‘tkazayotgan kengashi aks ettirilgan. «Faxrlanish» qismida esa Amir Temur va temuriylar davri merosining avloddan avlodga o‘tib kelayotganligi g‘oyasi tasvirlangan.

### 3. Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyati.

Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat 1886 yil Buxoroda ziyoli oilasida tug‘ildi. 1909–1913 yillarda esa adib Turkiyada, Istanbul doilfununida tahsil oladi. U yerda zamondoshlari bilan birgalikda «Buxoro ta’limi (umumiyy) maorif jamiyatini»ni tuzadi. Fitrat 1919–20 yillarda Afg‘oniston hukumatining Toshkentdagi vakolatxonasida tarjimon, «Turon», «Buxoroi sharif», «Oina» kabi ko‘pgina gazeta va jurnallarni tashkil etishda bosh-qosh bo‘ddi, Turkistonda til, adabiyot, san‘at masalalari bilan ilk bor tashkili ravishda shug‘ullangan «Chig‘atoy gurungi» tashkilotiga rahbarlik qildi, Buxoro xalq Respublikasining bir qator rahbar lavozimlarida ishladi. Buxoro amiriga berilgan ultimatum ham uning qalami bilan yozildi. 1923–1924 yillarda Fitrat ma’lum muddat Leningradda, so‘ngra Moskvada yashadi. Unga o‘zbek ziylilari ichida birinchilardan bo‘lib professor ilmiy unvoni berildi. Adib ilk aspirantlarga rahbarlik qildi, Buxoroda musiqa maktabi ochdi. O‘smyrlik yillari u Mijmar («cho‘g‘don») taxallusi bilan, so‘ngra Fitrat («tug‘ma iste’dod») taxallusi bilan ijod qildi. Fitratning «Muxtasar islom tarixi» (1915), «Ro‘zalar», «Shaytonning tangriga isyonii» (1924), «Qiyomat» kabi asarlari diniy mavzuda yozilgan. Qomusiy bilim va badiiy iste’dod egasi bo‘lgan Fitrat 1938 yil 4 oktyabrda otib tashlangan.

## 2-bilet

### 1. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi.

1989-yil 21-oktyabrda respublika Oliy Sovetining XI sessiyasi “O‘zbekiston SSR davlat tili haqi-da” Qonunni qabul qilib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berdi. Qonunning qabul qilinishi o‘zbek xalqi va respublikada yashovchi boshqa xalqlarning madaniy, ma‘naviy va siyosiy hayotida ro‘y bergen muhim voqeа edi. Qonun o‘zbek tili va madaniyatining rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Shu bilan birga unda respublika hududida yashovchi boshqa xalqlarning tillarini rivojlantirish imkoniyatlari ham belgilab berildi. Qonun dastlab 30 moddadan iborat bo‘lgan. Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi 167-I-son “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonunga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq yangi tahrirda qabul qilingan va hozirda ushbu qonun 24 moddadan iborat.

### 2. Minorai Kalon me’moriy yodgorligi haqida ma’lumot bering

Minorai Kalon (Katta Minora) me’morchilik namunasi Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrdagi amiri Arslon Bug‘roxon tomonidan bunyod etilgan. Minorai Kalonning bunyod etilishi o‘rta asrlarning rivojlangan davriga (XII asr), aniqrog‘i, 1127-yilga to‘g‘ri keladi. Me’moriy obidaning qurilishida tosh, maxsus qir qotishmasidan, chorus pishiq g‘ishtidan, loy, taxta va boshqa bir qator ashayolardan foydalanilgan. Uning dizayni haqida gapiradigan bo‘lsak, balandligi 50 metr, aylanma eni 9 metr. Minoraning sulla shaklidagi yuqori qismi g‘isht o‘ymakorligi bilan bezatilib, karniz holiga keltirilgan. O‘qsimon tirkak o‘rtasida Arslonxonning nomi hamda binokor ustanning ismi (usta Baqo) bitilgan. Minora ichida g‘ishtin aylanma zinapoya bo‘lib, mezanaga olib chiqadi. Kursisi qirrador, tanasi g‘o‘lasimon, tepasi gumbazli davra qafasa-ko‘shk bilan bog‘langan. Minora yuqoriga ingichkalashib boradi va muqarnas bilan tugaydi. Qafasidagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Tepaga minorai ichidagi 104 aylanma zinapoya orqali chiqiladi. Masjidi Kalon tomonidan minoraga o‘tiladigan ko‘prikcha bo‘lgan. Minorai Kalonning o‘zagi ham, bezagi ham chorus pishiq g‘ishti (27x27x4x5 sm) ganchxok loyida terilgan. Bezak g‘ishti o‘rniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil handasiy shakldagi bejirim bezakli halqalari g‘ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy-diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqalarning har biri turli xil handasiy shaklda bezatilgan (keyinchalik to‘kilib ketgan). Me’moriy obidaning uslubi haqida gapiradigan bo‘lsak, inshoot pishiq g‘ishtidan Sharq an‘analarining naqshdor shakllar uslubida ishlangan. Me’moriy inshootning o‘ziga xos tomoni shundaki, u Buxoro shahrida qad ko‘targan boshqa inshootlardan o‘zining me’moriy yechimi bilan ajralib turgan. Bundan tashqari, me’moriy inshoot balandligi jihatidan ham boshqa me’moriy inshootlardan ajralib turgan. Minora o‘z davrida muazzin uchun azon aytish joyi vazifasini o‘tagan bo‘lsa, harbiy maqsadlarda esa kuzatuv obyekti ham bo‘lganligi tarixiy manbalarda saqlanib qolgan. Minoraning bugungi kungacha bo‘lgan holatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, tanasi va muqarnasları ta‘mir etilgan (1924). Yer ostidagi asosi (kursisi) usta Ochil Bobomurodov tomonidan ochib ta‘mirlangan (1960). Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Minorai Kalonda ham ta‘mirlash ishlari olib borildi (1997). Bundan tashqari, me’moriy inshoot atroflari olib etilib, ko‘kalamzorlashtirilgan. Me’moriy obidaga xalqaro tashkilotlar tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, YUNESKO tashkilotining Butun Jahon

yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) “Butunjahon madaniy meroslari ro‘yxati”ga kiritilgan.

### **3. Jordano Bruno hayoti va faoliyati.**

Jordano Bruno (1548-1600) 1600-yil 17-fevral kuni Rim shahrida erkinlik va hurfikrlik dushmani inkvizitsiya hukmi bilan italiyalik faylasuf, astronom va shoir Jordano Bruno o‘limga hukm qilindi. Chunki Jordano Bruno dunyoqarashiga ko‘ra, panteizm ta-rafdori edi. Yoshligidan xristian dini asoslari bilan birqalikda N. Kopernik ta’limotini o‘rgandi. U turli ta’limotlar bo‘yicha o‘zining mustaqil fikriga ega shaxs bo‘lib voyaga yetdi. Shu tufayli u har qanday ta’limotga tanqidiy ko‘z bilan qarardi. Uning qarashlari xristian cherkovi aqidalarini shubha ostiga qo‘ya boshladi. Bruno o‘z qarashlarini «Nola falsafasi» deb atadi. Unda olamning cheksizligi to‘g‘risidagi ta’limot ilgari surildi. U bunday deb yozgan edi: «Olam cheksiz, uning oxiri yo‘q. Olam markazga ega emas. Yer ham, Quyosh ham olamning markazi emas. Olam - son-sanoqsiz yulduzlardir va har bir yulduz yiroq-dagi bir quyoshdir. Ularning har biri atrofida o‘z yo‘ldoshlari aylanadi. Olam abadiy mavjud va u yo‘q bo‘lmaydi». Inkvizitsiya uni o‘limga hukm qildi. Keyinchalik, J.Bruno ta’limoti tan olingandan so‘ng, u qatl etilgan joyda haykal o‘rnatildi. Haykal ostiga esa: «U barcha xalqlar uchun fikr erkinligi deya o‘z ovozini ko‘tardi va ana shu erk qo‘lida o‘limga bordi», deb yozib qo‘yildi.

### **3-bilet**

#### **1. Spartak qo‘zg‘oloni.**

Mil. avv. 74-yilda boshlangan Spartak boshchiligidagi qullar qo‘zg‘oloni qadimgi dunyoda eng ommaviy va uyushgan qo‘zg‘olnlardan biri bo‘ldi. Rim armiyasida xizmat qilishdan bosh tortganligi uchun Kapuya shahridagi gladiatorlik mактабига сotib yuborilgan frakiyalik qul Spartak qullarni qo‘zg‘olon ko‘tarishga undadi. Ammo kimdir bu haqda rimliklarga xabar yetkazadi. Shunda Spartak va uning 200 ga yaqin tarafdarlari qorovullarga hujum qiladilar va qochib chiqib ketadilar. Ular Vezuviy tog‘idagi qoyaga chiqib oladilar. Asta-sekin boshqa qullar ham ularga kelib qo‘shila boshladi va qo‘zg‘olon ko‘targanlar safi kengaya bordi. Ko‘p o‘tmay ularning soni 10 ming kishiga yetdi. Qo‘zg‘olon ko‘targan qullarni tor-mor etishga jo‘natilgan uch ming kishilik qo‘shin Vezuviy tog‘lari yaqinida harbiy lager tikladi. Qamal boshlandi. Spartak kutilmaganda dadil rejani amalga oshirdi. Qullar uzum novdalaridan narvon to‘qib, ko‘rinmaydigan tarafdan cho‘qqidan pastga tushib oldilar. Rimliklar guruhining orqasidan zarba bergen Spartak ularni tor-mor etdi. Ammo ko‘p o‘tmay qo‘zg‘olon ko‘targanlar orasida ixtilof paydo bo‘ldi. Qullarning bir qismi Rimni tark etib, o‘z yurtlariga qaytishni afzal bildilar. Ko‘pgina qullar esa mamlakatdan chiqib ketmaslikka, Rimni tor-mor etishga va qudlorlardan qasos olishga ahd qilishdi. Spartakka qarshi tajribali sarkarda Mark Krass boshchiligidida ko‘p ming sonli qo‘shin jo‘natildi. Mil. avv. 71-yilning bahorida ro‘y bergen hal qiluvchi jangda Spartak lashkari tor-mor etildi, uning o‘zi esa ana shu jangda halok bo‘ldi. 6 mingdan ziyod asirlar Rim-Kapuya oralig‘idagi yo‘l bo‘ylaridagi xochlarga mixlab tashlandi.

#### **2. Tillakori madrasasi haqida ma‘lumot bering.**

Samarqandning Registon maydonida joylashgan Tillakori madrasasi Yalangto‘shbiy Bahodir tomonidan bунyod etilgan. Me’moriy obidani bунyod ettirgan shaxs haqida gapiradigan bo‘lsak, Yalangto‘shbiy Bahodir Saidqul o‘g‘li, Yalangto‘shbiy otaliq (1576-yil Nurota – 1656-yil Samarqand) Ashtarxoniyalar davrida olchin qabilasidan bo‘lgan harbiy-mulkdor zodagonlarning yirik vakili, Samarqand hokimi (1626-yildan). Yalangto‘shbiyning buyrug‘i bilan ikkinchi yirik madrasa Tillakori 1646-1660-yillar mobaynida qurilgan. Uning qurilishida pishgan va xom g‘isht, loy, yog‘och, oltin suvi va qimmatbaho toshlardan foydalaniлgan. Me’moriy obidaning dizayni: peshtoq chuqur ravoqli, 2 qanotining oldi ravoqli, 2 qavatlari hujralar, burchaklarini teng hajmdagi guldasta mezanalar egallagan. Madrasa xonaqohi (10,8x10,8 m)ning poygumbazi baland, uzoqdan ko‘zga tashlanib turadi. Uning gumbazi oxiriga yetkazilmagan. Xonaqoh to‘riga marmardan mehrob va zinapoyali minbar ishlangan. O‘z davrida zarhal naqshlar bilan jozibador bezatilgan xonaqohning 2 yonini oldi ravoqli, gumbaz tomlı ayvon (yo‘laklar) egallagan. Peshtoq ravog‘idagi marmar taxtachada bezak ishlari 1659-1660-yillarda bajarilganligi yozilgan. Bosh tarzidagi bezak mavzularining boyligi, ichki va tashqi naqshlarning serhashamligi, peshtoq qanosni va tokchasiдagi iroqi kashtani eslatadigan bezaklar, bo‘rtma yozuvlar o‘ziga xosdir. Ravoq burchaklari, bezakli toqilarni to‘ldirishda koshinpaz ustalar turli usullarini qo‘llashgan. Koshinkori ravoqlarda yashil tangachalar, sarg‘ish yaproqchalar va feruza moyalar aks ettirilan. Xonaqoh izorasi koshin namoyon, devori, gumbazi va bag‘ali kundal uslubidagi serhasham naqshlarga boy. Mehrob ravog‘i va bag‘ali muqarnas kosachalar bilan to‘ldirilib, zarhal berilgan hamda Qur‘on oyatlaridan olingan bo‘rtma yozuvlar bilan hoshiyalangan. Eshiklar murakkab naqsh va yozuvlar bilan yog‘och o‘ymakorligida pardozlangan. Hovli sahni (50x50 m)ga marmar yotqizilgan. Atrofidagi hujralarga eshik, tobodonlariga panjaralar ishlangan. 1930-yillarda bu yerda maxsus ustaxona tashkil etilib, koshinlarning qadimiy rangini topish yo‘lida tadqiqot ishlari olib borilgan. Inshootning uslubiga keladigan bo‘lsak, Sharq me‘morchilagini o‘zida mujassamlashtirgan, gumbazsimon, “Chor” uslubida qurilgan. Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, dastlab u Yalangto‘shbiy Bahodirning kichik maqbarasi nomi bilan atalganligiga qaramay xalq orasida Tillakori nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bundan tashqari, dastlab madrasaning o‘rnida Mirzoyi karvonsaroyi bo‘lgan. Me’moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapiradigan bo‘lsak, inshoot mamlakatimiz mustaqilligi davrida va undan oldin ham bir necha bor ta‘mirlangan. Jumladan hozirgi kunda me’moriy inshoot muzey vazifasini o‘tamoaqda. Me’moriy inshoot ko‘pgina xalqaro sayyoohlarning e’tibor-markazida. Bundan tashqari, inshoot YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi.

#### **3. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi.**

Abdulla Qodiriy 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrida tug‘ilgan. XX asr yangi o‘zbek adabiyotining ulkan namoyandasasi, o‘zbek romanchiligining asoschisi. 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtiroychisi. Musulmon mактабида (1904-06), rus-tuzem mактабида (1908-12), Abulqosim shayx madrasasida (1916-17) ta’lim olgan; Moskvadagi adabiyot kursida (1925-26) o‘qigan. Eski shahar oziqa qo‘mitasining sarkotibi (1918), «Oziq ishlari» gazetasining muharriri (1919), Kasabalar sho‘rosining sarkotibi (1920), «Mushtum» jurnali tashkilotchilaridan va tahrir hay‘ati a’zosi (1923-26). «To‘y», «Ahvolimiz», «Millatimga», «Fikr aylagil» kabi she’rlari, «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyasi yozuvchining dastlabki asarlari (1914-15). «Uloqda» hikoyasi (1916), «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo‘lat tajang nima deydir?» (1920) kabi satirik hikoyalar muallifi. «O‘tgan kunlar» (1924-26), «Mehrobdan chayon» (1929) romanlari, «Obid ketmon» (1934) qissasi yozuvchining ulkan mahoratini o‘zida mujassam etgan. Abdulla Shunosiyning «Fizika» (1928), N. V. Gogolning «Uylanish» (1935), A. P. Chexovning «Olchazor» (1936) asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Abdulla Qodiriy 1926 yilda «Mushtum»da bosilgan «Yig‘indi gaplar» maqolasi tufayli qisqa muddat qamalgan. 1937 yilning 31 dekabrida esa «xalq dushmani» sifatida ikkinchi bor qamoqqa olinib, 1938

yil 4 oktyabrdan Toshkent shahrida otib tashlangan. Uning asarlari 1956 yildan boshlab oqlangan. Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti laureati (1991), «Mustaqillik» ordeni bilai mukofotlangan (1994).

#### 4-bilet

##### 1. Amir Nasrulloning harbiy islohotlari.

Amir Nasrullo qoracherik o‘miga muntazam qo‘sishin (navkariya) tuzish maqsadida 1837- yilda harbiy islohot o‘tkazgan. Muntazam qo‘singa ega bo‘lish, birinchi navbatda, davlat yaxlitligini ta’minlashga xizmat qilardi. Zero, bunday qo‘sishin markaziy hokimiyatdan mustaqil bo‘lishga urinayotgan viloyatlarning imkoniyatlarini amalda yo‘qqa chiqarar edi. Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligida mehnat qilayotgan kishilardan qoracherikka safarbar etiluvchilar sonining keskin kamayishiga olib kelar edi. Natijada, safarbarlik davrida qishloq xo‘jaligi ekinlari qarovsiz qolishining oldi olinardi. Uchinchidan esa, zaruriyat tug‘ilganida amimi viloyatlar yuborishi lozim bolgan qoracherikka umid boglashdan xalos etardi. Zero, barcha viloyatlar ham qoracherikni talab etilgan miqdorda yuboravermas edilar. 1837- yilda o‘tkazilgan harbiy islohotga ko‘ra, dastlab 800 kishilik sarbozlar (piyoda askarlar) va 250 kishilik to‘philardan iborat muntazam qo‘sishin tuzilgan. Ularning yashashlari uchun maxsus uy-joylar qurilgan. Sarbozlar maxsus kiyim (qizil kamzul, oq shalvar va qalpoq), nayzali miltiq, qilich va to‘pponcha bilan ta’minlangan. To‘philar qismini shakllantirishda chetdan to‘p quyish va to‘pdan otish ilmini o‘rgatuvchi mutaxassislar jalb etilgan. Navkariya tarkibida oqliq qo‘sishin (navkar) ham bo‘lgan. Muntazam qo‘sishning harbiy xizmatchilariga mansab darajasiga qarab maosh tolangan.

##### 2. Ulug‘bek rasadxonasi haqida ma’lumot bering.

Rasadxona Mirzo Ulug‘bek tashabbusi va homiyligida bunyod etilgan.

Mirzo Ulug‘bek Amir Temuring kenja o‘g‘li Shohruhning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib, 1394-yil 22-martda Eronning Sultoniya shahrida tug‘ilgan. U 1409-yil otasi Shohruhning yordamida Movarounnahr taxtini egallaydi va u yerda 40 yil, 1449-yilgacha hukmronlik qilgan. U buyuk olim bo‘lib, astronomiyaga oid “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarini, tarixga oid “To‘rt ulus tarixi” asari va musiqaga oid 5 ta risola yozgan. Rasadxona rivojlangan o‘rta asrlarning so‘nggi davrida, XV asr me’morchiligining nodir namunalaridan biri bo‘lib, Mirzo Ulug‘bek farmoyishi bilan 1424-1429-yillarda bunyod etilgan. Uning geografik joyini G‘iyosiddin Jamshid tanlagan bo‘lib, Samarqanddagi Ko‘hak (Cho‘ponota) tepaligidagi, Obirahmat anhori bo‘yida bunyod etilgan. Ulug‘bek rasadxonasi qurilishida xom va pishgan g‘isht, loy, taxta va shu kabi ashylardan foydalanilgan. Rasadxona ulkan silindr shaklida bunyod etilgan; ayrim qo‘lyozmalarga ko‘ra, balandligi 31 m dan iborat 3 qavatli qilib qurilgan. Ulug‘bek rasadxonasingin arxeologik qoldiqlari 1908-yil V.L.Vyatkin rahbarligida olib borilgan qazilma ishlari asosida topildi. Xususan, bu yerda diametri 48 m keladigan, qalinligi bir g‘isht bo‘lgan aylanma devor borligi va uning markazida qo‘shaloq yoydan iborat bosh qurilmaning qoldig‘i mavjud bo‘lganligi aniqlangan. Uning katta zallari, turli katta-kichik xonalari bo‘lgan. Boburning yozilishicha, Ulug‘bek rasadxonanining sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan. Ulug‘bek rasadxonasi me’morchilikning o‘ziga xos, teng diametrli yumaloq uslubida bunyod etilgan. Ulardan eng asosiysi radiusi 40,2 m.li qo‘shaloq yoydan iborat kvadrat qurilma hisoblanadi. Kvadratning janubiy qismi yer ostida, qolgan qismi shimoliy tomonda yer sathidan 30 m cha balandda joylashgan. Asbob aylanasida bir gradus yoy 701,85 mm va bir minut yoy 11,53 mm ga to‘g‘ri keladi. Rasadxona o‘rta asrlarda asbob-uskunasi jihatdan ham beqiyos bo‘lgan. Asbob astronomiyaning asosiy doimiyliklari – ekvator va ekleptika orasidagi burchakni o‘lhash, yillik protsessiya doimiysini, tropik yil davomiyligini va boshqa fundamental astronomik doimiyliklarni aniqlashga imkon beragan. Mirzo Ulug‘bekning eng yirik astronomik asari “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” ham rasadxonada yaratilgan. Uning qurilishi va keyingi ilmiy faoliyati Ulug‘bek taklifi bilan yig‘ilgan mashhur olimlar G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi va boshqalar nomi bilan bog‘liq. Rasadxona o‘z davrida yirik astronomik kuzatuv majmuasi vazifasini o‘tagan. Unda mavjud bo‘lgan asbob-uskunalar yordamida quyosh, oy, sayyoralar va alohida yulduzlar kuzatilgan. Me’moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapiradigan bo‘lsak, mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizdagi boshqa me’moriy obidalar singari ta’mortalab qismlari qayta tiklandi.

##### 3. Najmuddin Kubro hayoti va faoliyati.

Najmuddin Kubro (1145–1221) – ulug‘ shayx, tasav vufning taniqli vakillaridan biri, kubroviylik tariqatining asoschisi. Uning taxallusi “dinning ulug‘ yulduzi” ma’nosini beradi. Kubroning karomat ko‘rsatish, voqealarni oldindan bilishi, o‘tkir nazari bilan ta’sir eta olish xislatiga ega inson bo‘lganligi haqida rivoyatlar tarqalgan. Keksa shayx va donishmand insonning mo‘g‘ullarga qarshi jangdagi qahramonligi, jasorati avlodlarga ibrat bo‘lib qoldi. Kubro shaxsi va uning merosi O‘zbekistonda mustaqillik tufayli o‘rganila boshlandi.

1995yilda O‘zbekistonda Najmuddin Kubro tavalludining 850 yilligi nishonlandi. Mashhur shayx, yirik tasavvuf olimi, xalq qahramoni va otashnafas shoir Najmuddin Kubro Xiva yaqinidagi hozirgi Sayot qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning to‘liq ismi - Ahmad ibn Umar Abuljannob Najmuddin al-Kubro al-Xivaqiy al-Xorazmiy. «Shayxi valiytarosh» - «Avliyolar yetishtiradigan shayx» nomi bilan shuhurat qozongan bu ulug‘ inson tasavvufdagи mashhur kubraviya tariqatiga asos solgan. Bu tariqat ahllari xufiya zikrni targ‘ib etganlar. Kubraviya ta’limoti asosan Markaziy Osiyo va qisman Eronga tarqalgan. Najmuddin Kubroning o‘nga yaqin asarlari fanga ma’lum. Uning, ayniqsa, «Al-usul al-ashara» («O‘nta usul»), «Favoyih ul-jamol va favotih ul-jalol» («Jamol xushbo‘yliklari va jalolning kashfi»), «Risolat ul-hoif ul-hoim an lavmat il-loim» («Qo‘rquvchi ovvoralar va malomat etguvchi malomatiylar haqida»), «Tafsir», «Sharh us-sunna val-masolik» («Sunna va ezzulklar sharhi») kitoblari mashhur. Kubro o‘z asarlarini asosan arab tilida yozgan. Faqat boshlovchi so‘fiylar uchun qo‘llanma sifatida yaratilgan «Fi odob us-solikin» («Soliklar odobi haqida») asari va ruboiyalarini forsiyda bitgan.

#### 5-bilet

##### 1. “Sovuq urush” ning boshlanishi.

Dunyonni hududiy qayta bo‘lish uchun olib borilgan ikkita jahon urushlaridan so‘ng dunyodagi kuchlar nisbatida katta o‘zgarishlar yuz berdi. G‘arbning liberal-demokratik davlatlari bilan SSSR o‘rtasida ziddiyatlar kuchayib bordi. Urushdan so‘ng AQSH sovet – Amerika munosabatlari tarixida birinchi marta SSSRga qarshi yadro quroli ni qo‘llashi mumkinligi bilan tahdid qildi. Iste‘foda bo‘lsa-da, urush yillari katta obro‘ orttirgan U. Cherchill 1946-yil martda AQSHning Fulton shahrida Vestminster kolleji tinglov chilari oldida so‘zga chiqib, AQSHga «tinchliksevar xalqlarning sovet tajovuziga» qarshi kurashiga boshchilik qilishni taklif qildi.

U. Cherchill ushbu nutqida qo'llagan «temir pard» iborasi uzoq vaqt G'arb bilan Sharq o'rta-sidagi ramziy chegara bo'lib qoldi. 1947-yil iyun oyida AQSH davlat kotibi J. Marshall Yevropa mamlakatlariga urush oqibat larini bartaraf qilishda yordam ko'rsatish g'oyasini ilgari surdi. Sovet diplomatiyasi «Marshall rejasi»ni rad etdi. Sovetlar «Mar shall rejasi»ni SSSRning Sharqiy Yevropadagi ta'siriga navbat dagi xavf, Amerika kapitalining Yevropani egallash uchun urinishi, deb baholadi. Voqealarning keyingi rivoji bu baho uncha to'g'ri emasligini ko'rsatdi. Yevropaning ikki guruhg'a, bir tomonidan, «Marshall rejasi»ni qabul qilgan va AQSH bilan yaqinlashuv yo'lini tanlagan davlatlar, ikkinchi tomonidan, taraqqiyotning sotsialistik yo'lini va SSSR bilan hamkorlikni tan lagan davlatlarga bo'linishi ancha uzoq davom etgan qarama-qarshilikni boshlab berdi. Yevropa qit'asida, keyin esa butun dunyo miqyosida bir-biriga qarama-qarshi turgan harbiy-siyosiy va iqtisodiy ittifoqlar tizimi shakllandi. Dunyoning eng katta davlatlari – AQSH va SSSR bu ittifoqlarning markazlariga aylandi. 1949-yil yanvarda SSSR va Sharqiy Yevropaning ko'pchilik davlatlari iqtisodiy ittifoq – O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O'IYK) tuzilganligini e'lon qildilar. O'z navbatida G'arb davlatlari 1949-yil aprelda Shimoliy Atlantika Shartnomasi tashkiloti (NATO) deb ataluvchi harbiy-siyosiy tashkilotni tuzdilar. NATOga javob tariqasida 1955-yili SSSR va Sharqiy Yevropa davlatlarining harbiy-siyosiy ittifoqi – Varshava Shartnomasi Tashkiloti tuzildi.

### **2. Toshkentdag'i Mustaqillik maydonidagi "Motamsaro ona" monumenti haqida ma'lumot bering.**

Toshkentda 1999-yil may oyida Xotira va Qadrlash maydoni barpo etilib, unda "Motamsaro ona" haykali hamda xiyobonning shimoliy va janubiy tomonida qad ko'targan ayvonlar tokchalarida Ikkinch'i jahon urushida halok bo'lgan o'zbekistonlik barcha jangchilarining ism-sharifi bitilgan metall tokchalar o'rnatildi. Haykalda urushda o'z farzandini yo'qotgan onanining g'am-g'ussasi aks etgan. Haykal yonida urushda halok bolganlar xotirasi uchun mangu olov yonib turadi.

### **3. Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyatি.**

Abu Ali ibn Sino 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. Maktabni bitirgach, ustozи Abu Abdullohdan mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o'rganadi. O'n olti yoshidan boshlab turli fanlar bo'yicha Sharq va G'arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil o'rgandi. Ayniqsa, u tabobat ilmining qadimgi allomalari Gippokrat va Galen hamda o'rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziyining (865–925) asarlarini puxta o'rganadi. Ibn Sino o'n yetti yoshidayoq e'tiborli hakim va olim bo'lib yetishadi. U amir Nuh ibn Mansurni davolab tuzatgach, somoniylarning saroy kutub xonasidan foydalanihga ruxsat oladi. Ibn Sino taqdir hukmi bilan Gurganchdagi (Urganch) Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari qatorida ijod qiladi. U 1037-yilda vafot etadi va Hamadonda dafn etiladi. Ibn Sino 450 dan ortiq, shu jumladan, tibbiyotga doir 43 ta asar yozgan. Uning 5 jildli "Al-qonun-fit-tib"- ("Tib qonunlari") nomli qomusiy asarida kasalliklarning kelib chiqish sabablar va manbalari, tashxis, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dori-darmonlarning xususiyatlari, parhez, inson salomatligi uchun jismoni tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning g'oyat muhim masalalariga alohida e'tibor berilgan. Uning "Al-qonun fit-tib"- asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalilanigan.

## **6-bilet**

### **1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.**

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini tayyorlash g'oyasi dastlab Islom Karimov tomonidan 1990-yilning mart oyida ilgari surildi. 1990-yil 20-iyun kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II sessiyasida yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi. Sessiya O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligidida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatları, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo'jaliklarning rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritildi. Konstitutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini yaratish ustida 2,5 yil ishladi. Loyihaning dastlabki variant 1991-yilning oktabr-noyabrigacha tayyorlab bo'lindi. U dastlab muqaddima, olti bo'lim va 158 moddadan iborat edi. Bu loyiha hali mukammal emasligi, boisi uning ustida yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishslash zarur edi. 1992-yil bahorida esa loyihaning 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. 1992-yilning kuz oylarida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun 2-marta matbuotda e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. 1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi bo'ldi. Unda mamlakatning Asosiy Qonunini qabul qilish masalasi muhokama qilindi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha va anqliklar kirdildilar. Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e'lon qilish to'g'risida"gi qonunlarni qabul qildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. U «Mustaqillik Deklaratsiyasi», «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g'oyalarni o'zida to'la mujassamlashtirdi.

### **2. Ichan qal'a haqida ma'lumot bering.**

Ichan qal'a Xivaning ichki qal'a qismidir. U Dishan qal'adan kungurador devor bilan qisman ajratilgan. Dishan qal'adan baland qo'rg'ontepaga o'xshab ko'rinadi. Ichan qal'aga Bog'cha, Polvon, Tosh va Ota deb nomlangan darvozalaridan kirilgan. Ichan qal'aning yaratilish tarixi uch davrga bo'linadi: mo'g'ullar istilosidan keyingi tiklanish (Sayd Alovuddin maqbarasi va boshqalar), XVI-XVII asrlardagi tiklanish (Anushaxon hammomi, 1657-yil; peshayvonli Oq masjid, 1675-yil; Xo'jamerdibek madrasasi, 1688-yil; xonning qabulxonasi, 1686-1688-yillar), XVIII-XX asrlardagi tiklanish. Uchinchi davrda mahalliy me'morchilik an'analari asosida masjid, madrasa, tim va toqlar qurilgan, Ota va Polvon darvozalari orasida katta yo'1 o'tkazilgan, masjid qayta qurilgan, minoralar qad rostlagan. Qutlug' Murod Inoq madrasasiga qaratib tim va toqlar qurilgan. Muhammad Rahimxon (1806-1825-yillar), Ollohqulixon (1825-1842-yillar), Muhammad Aminxon (1845-1855-yillar) hukmronligi yillarda bu yerda qurilish avj olib ketgan. Muhtasham saroy, madrasa, maqbaralar barpo etilgan. Toshhovli saroyi qurilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasi qad ko'targan. Kalta Minor yuzaga kelgan va hokazo. Ichan qal'a qurilishida Markaziy Osiyoda qadimdan qo'llanib kelingan uslub – inshootlarni yuzmayuz qurish uslubi (qo'sh)dan foydalilanigan. Binolarning alohida ansambl holida qurilishi ham Xiva me'morchiligining o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Masalan, Juma masjid yonida ikkita kichik madrasa, Muhammad Amin Inoq va Muhammad Amin Atpanoboy minorasi hamda Matniyoz Devonbegi madrasasi qurilishi ancha yirik ansamblni tashkil etgan. Polvon darvoza oldida bir necha masjid va madrasalar, hammom, toqi, karvonsaroy va xon saroyini barpo etilishi o'ziga xos ansamblni tashkil etgan. Qutlug'

Murod Inoq bilan Ollohqulixon madrasasi, Tosh hovli bilan Oq masjid o'rtasidagi maydoncha shu ansamblning kompozitsion markaziga aylangan. Xiva yodgorliklari yog'och o'ymakorligi, sangtaroshlik, ganchkorlik, sirkor sopol va boshqa rang-barang naqqoshlik bezaklari bilan bezatilgan. Shaharning vertikal dominanti – koshinlari quyoshda yaltirab turuvchi Islom hoji minorasidir. Minora bilan uning yaqinidagi Pahlavon Mahmud maqbarasining gumbazi bilan birgalikda tevaraklaridagi pastroq inshootlarni yaxlitlikka keltirib turadi. Maqbara ro'parasida supa tarzli Sherg'ozixon madrasasi qurilgan. Ichki shaharning asosiy ko'chalari Xivaning rabotida – tashqi shaharda, Dishan qal'ada davom etib, to'rt tarafidagi boshqa shahar va qishloqlarga olib boradi. Dishan al'ada jami o'nta darvoza bo'lib, ulardan shimol tomonidagi Urganchga olib boradigan ochiq qiyofali Qo'sh darvoza o'ziga alohida e'tiborni tortadi

### **3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy hayoti va faoliyati.**

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783–850) Xorazm diyorida tug'ilib, voyaga yetadi. Dastlabki savod va turli sohadagi bilimlarini u o'z ona yurti Xorazm va Mova rounnahr shaharlarida ko'pgina ustozlardan oladi. So'ngra u xalifa Ma'mun zamonida (813–833) "Bayt ul-hikma"da mudir sifatida faoliyat ko'rsatadi. Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qo'shdi. Al-Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozdi. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Asarlari orasida, ayniqsa, matematikaga doir "Al-jabr val-muqobala" mashhur. Hatto, "algebra" atamasi ushbu kitobning "al-jabr" deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematika fanida "algoritm" atamasi shaklida o'z ifodasini topdi. Uning "Al-jabr" asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lichash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lichov ishlari dasturilamal bo'lib xizmat qildi. Xorazmiyning bu riso lasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik hisoblash tizimining Yevropada, qolaversa, butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Shunday qilib, vatandoshimiz Xorazmiy al-jabrni mustaqil fan darajasiga ko'tarib, algebra faniga asos soldi va tarixda o'zidan o'chmas iz qoldirdi.

## **7-bilet**

### **1. Turkiston Muxtoriyati hukumatining tashkil topishi va faoliyati.**

1917-yil 26 – 28-noyabrda Qo'qon shahrida Butunturkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Turkistonni boshqarish shakli to'g'risidagi masala qurultoyning diqqat markazida turdi. Bu masala muhokamasida so'zga chiqqanlarning ko'pchiligi Turkistonning muxtor respublika deb e'lon qilinishi o'lka aholisining ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqqani va unga mos tushishini uqtirdi. Muxtoriyat va mustaqillik e'lon qilish fikrini hamma qo'llab-quvvatladi. Qurultoya 27-noyabr kuni kechqurun qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: "Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zлari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror toppish shakllarini Ta'sis Majlisiga havola etadi". Qurultoy Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon qildi. 28-noyabrda tarkib topayotgan mazkur hukumatning nomi aniqlanib, Turkiston Muxtoriyati deb ataladigan bo'ldi. Qurultoy o'sha kungi yig'lishda Butunrossiya Ta'sis Majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Millat) Majlisi qo'lida bo'lishi kerak, deb qaror qabul qildi. Yig'lishda Muxtoriyatning markazi Qo'qon shahri deb belgilandi. Qurultoya Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zola ridan 8 nafar kishidan iborat tarkibda Turkiston Muxtoriyati hukumati tuzildi. Hukumatning Bosh vaziri hamda ichki ishlar vaziri etib Muhammadjon Tinishboyev saylandi. Islom Sulton Shoahmedov – Bosh vazir o'rinosari, Mustafo Cho'qay – tashqi ishlar vaziri, Ubaydulla Xo'jayev – harbiy vazir, Hidoyatbek Yurg'uli Agayev – yer va suv boyliklari vaziri, Obidjon Mahmudov – oziq-ovqat vaziri, Abdurahmon O'rozayev – ichki ishlar vazirining o'rinosari, Solomon Gersfeld – moliya vaziri lavozimlarini egallahshdi. Hukumat tarkibida keyinchalik ayrim o'zgarishlar yuz berdi. Mustafo Cho'qay Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishdi. Qurultoy tugagach, 1-dekabrdan Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati a'zolari (8 kishi) imzolagan maxsus Murojaatnomaga e'lon qilindi. Ushbu Murojaatnomada Turkistonning barcha aholi: irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, yakdillik va hamjihatlikka da'vat etilgan edi. "El bayrog'i", "Birlik tug'i", «Svobodniy Turkestan», «Izvestiya Vremennogo Pravitelstva Avtonomnogo Turkestana» kabi hukumat gazetalarini o'zbek, qozoq va rus tillarida nashr qilina boshlandi. Avval chiqayotgan "Ulug' Turkiston" gazetasi ham o'z sahifalarida muxtoriyat hukumati faoliyatiga alohida o'rin bera boshladi. O'lkadagi ilk demokratik va xalqchil hukumat bo'lgan Turkiston Muxtoriyatining faoliyati, afsuski, uzoqqa cho'zilmadi. Bolsheviklar va Toshkent Soveti (rahbari: Ivan Tobolin) unga katta xavf deb qaradilar hamda zudlik bilan tugatishga harakat qildilar. Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining favqulodda 1918-yil 19-26-yanvarda bo'lib o'tgan IV syezdida Turkiston Muxtoriyati hukumatini kuch bilan tugatishga qaror qilishdi. Turkiston o'lka XKS 1918-yil 30-yanvar kuni harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil gvardiyachilardan tashqari armanlarning "Dashnoqsutyun" partiyasi a'zolaridan tuzilgan qurolli drujinalardan ham keng foydalandi. 30-yanvar kechqurun Toshkentdan yuborilgan dastlabki harbiy otryadlar Skobelevdan Qo'qonga to'p va pulemyotlar bilan yetib keldi. 31-yanvar tushdan keyin jang harakatlari boshlandi. 15-fevralda esa shaharda yong'inlar bo'ldi. Dastlabki jangda muxtoriyatning milliy qo'shinidan tashqari qo'qonlik tinch aholi vakillari ham qatnashdi. Asosan bolta, cho'kich, tayoq ko'targan xaloyiqning soni 10 000 kishiga yetdi. Shunga qaramay, qurolsiz bu kishilar sovet hukumatni harbiy kuchlarining Qo'qon shahriga qilgan hujumini uch kun davomida mardonavor qaytardilar. Qo'qon shahar mirshablar boshlig'i Kichik Ergash qo'rboishi 18-fevraldan boshlab amalda muxtoriyat hukumatining rahbariga aylandi. Turkiston o'lkasi harbiy komissari Ye.Perfilev boshchiligidagi piyoda, otliq va artilleriya qismlaridan iborat 11 eshelon bolsheviklarning harbiy kuchlariga madad berish uchun Qo'qonga keldi. Shahar ustiga uch kun davomida to'plardan yondiruvchi snaryadlar otildi. Kimyoviy qurollar ishlatildi. Qizil gvardiyachilar va dashnoqlar shaharda bosqinlar yusuhtirib, uni talon-toroj qilishga kirishdilar. Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumlari oqibatida ag'darib tashlandi. Ammo Qo'qon va uning atroflaridagi tinch aholini talash, o'ldirish avjiga chiqdi. Faqat Qo'qoning o'zida 3 kun davomida 10 000 kishi o'ldirildi. Musulmonlar ommaviy ravishda qirg'in qilindi. Qo'qon shahri butkul vayronaga aylantirildi. 1918-yil 22-fevralda Qo'qon shahridagi Rus-Osiyo banki binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan "tinchlik shartnomasi" imzolandi. Ushbu shartnomaning 2-moddasida: "Aholi o'lka Xalq Komissarlari Soveti hokimiysi va barcha mahalliy sovet tashkilotlarini tan oladi", deb yozilgan edi. Turkiston Muxtoriyati hukumati atigi 72 kun mavjud bo'ldi.

### **2. Ma'buda Artemida ibodatxonasi haqida ma'lumot bering.**

Ma'buda Artemida sharafiga Efes shahrida (bu shahar hozir Turkiya davlati hududida joylashgan) ko'rganlarni lol qoldiradigan ibodatxonalar qurilgan. Afsonalarga ko'ra, Artemida Zevsning qizi bo'lgan. U hosildorlik, ov va Oy ma'budasi edi. Ayni paytda hayvonlar homisi, Ma'buda Artemida shuningdek, ayollar madadkori ham ibodatxonasi. hisoblangan. Artemida ibodatxonasining tomini qoyatoshlardan ishlangan 18 metrli ustunlar suyab turgan. Ibodatxona ichiga yunon rassomlarining ajoyib asarlari joylashtirilgan. Mil.av. 365-yilda Gerostrat ismli shaxs shuhrat qozonish maqsadida ibodatxonaga o't qo'yib, uni yoqib yuboradi.

### **3. Alisher Navoiy hayoti va ijodi.**

Alisher Navoiy 1441-yilda Hirota da dunyoga kelgan. Uning ota-bobosi temuriylar saroyida xizmat qilgan. Sulton Husayn bilan Alisher bir mak tabda o'qiganlar. Ular bolalik chog'laridayoq Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur xizmatida bo'lганlar. Uning vafotidan so'ng 12 yil davomida boshqa-boshqa shaharlarda yashaganlar. Husayn bu davrda avval Xorazmda, so'ngra Xurosonning Obivard, Niso, Mashhad va boshqa viloyatlarda darbadarlikda yurib, kuch to'plab Abu Saidga qarshi isyonlar ko'taradi. Alisher Navoiy bu yillarda Mashhad va Hirotda o'qiydi. O'sha paytlardayoq u shoirlirk iste'dodi tufayli katta shuhrat qozongan edi. Yoshlikdan Sulton Husayn bilan yaqin bo'lgan Alisher o'ziga nisbatan Abu Saidda adovat kayfiyatini sezib qolgach, Samarqandga borib, ma'lum vaqt u yerda yashashga majbur bo'ladi. Samarqandda u ilm-fan va she'riyat bilan mashg'ul bo'ladi. Bu yerda u mashhur olim, falsafa, mantiq, huquq, arab tili, adabiyot va she'riyatning o'tkir bilimdoni Fazlulloh Abullays Samarqandiyidan saboqlar oladi. 1469-yilda Sulton Husayn Hirotni egallagach, Navoiyni o'z huzuriga taklif etadi. Alisherni u dastlab muhrorlik lavozimiga, keyinroq esa vazir qilib tayin etadi. Sulton Husayn hukmronligi davrida Alisher Navoiy mamlakatda markazlashgan saltanat vujudga kelishi, viloyatlar obod etilishi, qishloqlarda dehqonchilik, shaharlarda hunarmandchilik va savdoning kengayib taraqqiy qilishi yo'lida xizmat ko'rsatdi. Alisher Navoiy adabiyot, san'at va ilm-ma'rifatning ravnaqi, aholining tinch va osoyishta istiqomat qilishi tarafdori edi. Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o'zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi. U o'zbek adabiy tili, o'zbek mumtoz adabiyotini yangi pog'onaga ko'tardi. Navoiy o'ttizdan ortiq yirik badiiy asar yozdi. "Xamsa", "Xazoyin ul-maoni", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr" shular jumlasidandir.

## **8-bilet**

### **1. MDH ning tashkil topishi.**

1991-yil 8-dekabrda Belorus, Rossiya va Ukraina rahbarlari Minskda uchrashib Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga asos soldilar. 1991-yil 21-dekabrda Ozarbayjon, Armaniston, Belorus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston va Ukraina davlatlari boshliqlari Almatida uchrashib, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo bo'lib kirdilar. Shu tariqa XX asrning muhim voqealaridan biri sodir bo'ldi – MDH ixtiyoriy iqtisodiy uyushma yuzaga keldi. Shundan buyon MDHning bir necha yig'ilishlari o'tkazildi, ko'p hujjatlar qabul qilindi. Ularning bari uzoq yillar bir davlat bo'lib kelgan mamlakatlararo iqtisodiy, madaniy, harbiy va boshqa aloqalarni yangi sharoitlarda – mustaqil davlatlararo munosabatlar tarzida davom ettirishga qaratildi. 1993-yil yanvarda Minskda MDH davlatlari boshliqlarining navbatdagi Kengashida MDHning Nizomi qabul qilindi. 1993-yil dekabrda Ashxabod shahrida MDH davlatlari boshliqlarining Kengashi bo'lib, unda Gruziya MDHga a'zo etib qabul qilindi. Shu munosabat bilan MDHning tarkibi 12 davlatga yetdi. 1994-yil oktabrda Moskvada o'tkazilgan MDH davlat boshliqlarining Kengashida Davlatlararo iqtisodiy qo'mita (DIQ) tuzildi. DIQning shtab-kvartirasi Moskva shahri etib belgilandi. 1996-yilda MDHning bayrog'i qabul qilindi. MDHning raisi lavozimi navbat bilan bir davlat rahbaridan keyingi davlat rahbariga o'tadi. MDHning asosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun hamdo'stlik davlatlari o'zaro munosabatlarda suverenitetini o'zaro tan olish va hurmat qilish, teng huquqlilik va bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik, iqtisodiy kuch yoki boshqa tazyiq uslublarini qo'llashdan voz kechish kabi qoidalarga rioya qilish majburiyatlarini olganlar. 2004-yil sentabr oyida Qozog'iston poytaxti Ostonada bo'lib o'tgan MDHning sammitida terrorizmga qarshi kurash bo'yicha MDHning "Xavfsizlik Kengashi"ni tuzishga qaror qilindi. 2005-yil avgustda Turkmaniston MDHning rasmiy a'zosi darajasidan chiqib, hamdo'stlikning tashkiliy a'zosi – kuzatuvchi maqomini oladi. 2008-yilning avgust oyida Gruziya Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidan chiqish haqidagi istagini bildirdi va 2009-yilning avgust oyidan Gruziyaning MDHga a'zolik ma'qomini to'xtatish to'g'risidagi qaror qabul qilindi.

Bugungi kunda MDHning tarkibiga 10 ta a'zo davlat: Rossiya, Ukraina, Belorus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Armaniston, Moldova va bitta kuzatuvchi Turkmaniston kiradi.

### **2. Muhammad Rahimxon madrasasi haqida ma'lumot bering.**

Kattaligi jihatdan Muhammad Aminxon madrasasidan keyingi o'rinda Muhammad

Rahimxon madrasasi turadi. U qo'ng'irotlar sulolasiga mansub bo'lgan Xiva xoni Muhammad Rahim II tomonidan Ko'hna arkning sharqiy darvozasi qarshisida 1871-yil bunyod etilgan. Muhammad Rahimxon (1847-1910) Xivaning ma'rifatparvar xonlaridan biri bo'lib, 1864-1910-yillarda hukmronlik qilgan, "Feruz" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Uning nomi bilan atalgan madrasa yozgi va qishki masjid, darsxona, kutubxona va hujralardan iboratdir. Binoning old tomoni ikki qavatlari, qolgan tomonlari bir qavatlari. Bino burchaklarida burjlar ishlangan, sirti sirkor parchinlar bilan bezatilgan. Uning umumiy tuzilishi Xivaning boshqa madrasalaridan biroz farq qiladi. Xushqad peshtoqnning ikki yonida besh ravoqli galereyalari bor. Darvozaxona atrofidagi 9 ta xonaning usti gumbazlar bilan yopilgan. Binoning ichki tuzilishi ham boshqa madrasalardan biroz farq qiladi. Hovli 76 ta bir qavatlari hujralar bilan o'ralgan, tashqi ayvonning ko'cha tomoni past devor bilan to'silgan. Janubida gumbazli ayvon va boshqa qo'shimcha xonalar bor. Keyinroq, madrasaning old tomoniga bir qavatlari savdo rastalari qatoridan iborat hovli qurilgan. Madrasanining umumiy tuzilishi va ichki tarhi an'anaviy Xiva madrasalari me'morchiligidan biroz farq qiladi. Uning umumiy tarhi – 62,4x49,7 m; hovli – 28,3x28,8 m; darsxona – 5,4x5,4 m; masjid – 7,0x7,0 m; savdo qatorlari – 25,0x50,0 m; hovli – 16,9x42,5 metrni tashkil etadi. Madrasani bunyod etishda har xil o'chamdag'i g'isht va toshlardan, loy, yog'och, tunuka, sement, marmar, turli xil qimmatbaho toshlar va shunga o'xshash mahsulotlardan keng foydalanilgan. Me'moriy inshoot Sharq me'morchiliginining yorqin namunasi hisoblanadi. U "Chor", gumbazsimon uslubda bunyod etilgan. Me'moriy inshoot mustaqillikkacha va mustaqillikdan keyin bir necha bor ta'mirlandi va u YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Xiva shahridagi boshqa me'moriy obidalar qatorida Muhammad Rahimxon madrasasi ham ta'mirlandi. Me'moriy obida atroflari

ko‘kalamzorlashtirilgan holatga keltirildi. Madrasa afsonaviy ko‘rinishini Ichan qal‘a shahri tarixiy markazida saqlab qolgan bo‘lib, 1990-yilda Xivadagi “Ichan qal‘a” Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

### **3. Ahmad al-Farg‘oniy hayoti va ijodi.**

buyuk astronom, matematik va geograf Abul Abbas Ahmad ibn Muham mad ibn Kasir al-Farg‘oniy (797–865) Farg‘ona vodisining Quva shahrida tavallud topgani uchun Sharqda Al-Farg‘oniy, Yevropada esa Alfraganus taxallusi bilan shuhrat topgan. U astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan shug‘ullandi. Qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. Damashqdagi rasadxonada osmon jismлari harakati va o‘rnini aniqlash, yangicha zij (astronomik jadval) yaratish ishlariga rahbarlik qildi. 832–833-yillarda Suriyaning shimalida Sinjor dashtida va ar-Raqqa oralig‘ida yer meridianining bir darajasi uzunligini o‘lchashda qatnashdi. 861-yilda al-Farg‘oniy rahbarligida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr – daryo oqimi sathini belgilaydigan “Miyoqos an-Nil” inshooti va uning darajoti qayta tiklandi. Bizning davrimizgacha Ahmad al-Farg‘oniyning sakkiz asari saqlangan bo‘lib, ular orasida “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum” kitobi ham bordir. Bu kitob XII asrdayoq lotin va ibroniylariga tarjima qilinib, nafaqat musulmon Sharqidagi, balki Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Yevropada mashhur bo‘lgan alloma nomi XVI asrda Oydagi kraterlardan biriga berilgan. Mustaqillik yillarda Ahmad al-Farg‘oniyning noyob ilmiy merosi xalqimizga qaytarildi. 1998-yil oktabrda alloma Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi nishonlandi. Farg‘ona shahrida al-Farg‘oniy nomi bilan bog‘ yaratildi va buyuk allomaga haykal o‘rnatildi.

### **9-bilet**

#### **1. Washington konferensiyasi.**

Uzoq Sharq va Tinch okeanidagi bahsli muammolarni hal qilish va dengizdagi qurollarni cheklash maqsadida 1921-yil 12-noyabrdan 1922-yil 6-fevralgacha to‘qqiz davlat vakillari ishtirokida Vashington konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Konferensiyada asosiy rolni AQSH, Buyuk Britaniya va Yaponiya o‘ynadi. 1921-yil dekabrda Vashington konferen siyasida to‘rt davlat – AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiya o‘rtasida shartnomaga imzolanib, ushbu davlatlarning Tinch okeani havzasidagi o‘z orollariga egalik qilish huquqlari kafolatlandi.

#### **2. Mir Arab madrasasi haqida ma’lumot bering.**

Mir Arab madrasasi Shayx Abdulla Yamaniy tomonidan bunyod etilgan. Madrasaning bunyod etilishida homiylik qilgan Mir Arabning asl ismi Sayyid Abdulla Yamaniy bo‘lib, u 22 yoshida Samarqandga kelib Xoja Ahorga shogird tushgan. Turkistonning Sabron (Savron)ida 2 koriz (yer osti arig‘i) qazdirgan, suv chiqqargan, qal‘a bino etib, Shofirkon, Vobkent, G‘ijduvonda ko‘p joylarni obod qilgan (Shofirkonda Mir Arab qal‘asi saqlangan). Abdulla Yamaniy madrasa qurilishini niyoyasiga etkaza olmagan, 1536-yil boshida vafot etgan va uning vasiyatiga ko‘ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga etkazgan. Xattot Mirali Fathobodiy – Buxoriy ushbu forsiy qit‘ani Madrasa darvozasiga yozgan: «Mir Arab faxri Ajam onki kard – Madrasai oliy bas bul ajab. Bul ajab on ast ki tarixi u: Madrasai oliy Mir Arab». Me’moriy obida so‘nggi o‘rta asrlar davrining dastlabki bosqichiga, 1520–1536-yillar oralig‘ida bunyod etilgan. 1512-yilda G‘ijduvon yaqinida shayboniy larning Eron qo‘shinlari ustidan g‘alabasidan tushgan o‘lja-mablag‘ni Ubaydullaxon o‘z piri Mir Arabga mardasa bunyod etish uchun taqdim qilgan. Madrasa Buxorodagi me’moriy yodgorlik – Minorai Kalonning qarshisida

joylashgan. Uning qurilishi shayboniylar sulolasi hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Me’moriy obidaning bunyod etilishida xom va pishiq g‘isht, loy, yog‘och, sement, temir, tunuka va shu kabi mahsulotlardan foydalanilgan. Madrasaning umumiy tarhi 68,5x51,8 m., hovli 35,4x31,3 m., darsxona 8x8 m. Hovlisi to‘rburchak shaklida bo‘lib, atrofini oldi ravoqli, ikki oshyonli 114 hujra o‘rab turadi. Tomonlar o‘rtasidagi 4 baland peshtoqli darsxona – ayvon hovli mahobatini oshiradi. Tuzilishi jihatidan naqshinkor janubiy peshtoqning dastlabki qiyofasi saqlanib qolgan, bu naqshlarning tarkibiy qismida yulduzsimon bezaklar uchraydi. Undagi bezaklarning saqlanib qolgan ayrim parchalaridan naqshlar g‘oyat nafis va nozik bo‘lganligini bilish mumkin. Fasadning o‘rtasida birinchi bo‘lib ko‘zga tashkanadigan yirik peshtoq joylashtirilgan. Ichki hovli burchaklari kesilgan to‘g‘ri to‘rburchak shaklida bo‘lib, uning atrofida ikki qavatlari ayvonli hujralar joylashgan. Bosh fasad bo‘ylab peshtoqning o‘ng va chap qanonida ikkita gumbazli zal joylashgan. Bosh fasad burchaklarida vazmin kichik minora – “guldasta” tiklangan. Ba‘zi bir yechimlar inshoot loyihasi mumtoz yechimlardan farq qiladi. Kiraverishda o‘ng qo‘lda darsxona, chap qo‘lda go‘rxona joylashgan. Daxmalar tantanavor tarzda qurilgan, zal parusli konstruksiyalar bilan yopilgan. Madrasa hujralari gumbazli dahliz va xonalardan tashkil topgan. Yashash xonalarida tokchalar yasalgan. Shu bilan birga xonalari biroz qorong‘i va torroq bo‘lgan. Hovlidagi bo‘ylama va ko‘ndalang devorlar bo‘ylab joylashgan portallar ham go‘zallik namunasi sifatida xizmat qiladi. Madrasa Sharq me‘morchilik an‘analarining “Chor” uslubida, eshiklari xotamkori uslubida qurilgan. Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomonlari haqida gapiradigan bo‘lsak, rivoyatlarga ko‘ra, Madrasa asosi chuqur qilinib, tog‘ toshlari bilan mustahkamlangan, qor, yomg‘ir suvini qochirish uchun tazarlar ishlangan, ular orqali suvlar shahar qo‘rg‘onidan tashqariga chiqarilgan. Me‘morchilik va shaharsozlikda Mir Arab madrasasini Masjidi Kalon va Minorai Kalondan alohida holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu uchala inshoot birgalikda markaziy monumental kompozitsiyasini tashkil qiladi. Mustaqillik yillarda Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan Madrasa peshtoqi va gumbazlaridagi to‘kilib ketgan koshinkori naqshlar va yozuvlar qayta tiklandi. Mir Arab madrasasi o‘z davrida oliy ta‘lim muassasasi hisoblangan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 10-11 mart kunlari Buxoro viloyatiga tashrif buyurganida viloyatda “Mir Arab” oliy madrasasini tashkil qilish bo‘yicha ko‘rsatmasi asosida Mir Arab oliy madrasasi tashkil etildi. Hozirda madrasada talabalar islam dinidan saboq oladilar. Sho‘rolar davrida uning faoliyati vaqtincha to‘xtatilgan, 1945-yilda yana tiklangan. O‘quv muddati 4 yil. O‘quv yurti kunduzgi bo‘limiga 15 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan o‘rta va to‘liqsiz o‘rta ma’lumotli kishilar qabul qilinadi. Unda diniy fanlar hamda umumta‘lim fanlari o‘qtiladi. Talabalarga arab, ingliz, rus va fors tillari ham o‘rgatiladi. Darslar o‘zbek va arab tillarida olib boriladi. Inshoot madrasa vazifasini bajaribgina qolmay, go‘rxona bo‘lib ham xizmat qilgan. Inshootning Bosh tarzi ulkan peshtoqli, darvozasi orqasida 5 gumbazli miyonsaroy, ikki yonida baland gumbazli keng darsxona va masjid, go‘rxona joylashgan. Koshinkori naqshlar yozuvlar bilan uyg‘unlashgan (saqlanmagan). Go‘rxona ichi gumbaz osti bag‘ali qalqonsimon muqarnasli, shipi va devorlari ganch o‘ymakorligida bezatilgan, izorasi rang-barang koshinli. Go‘rxonada Ubaydullaxonning yog‘ochdan xotamkori usulida ishlangan sag‘anasi va Mir Arab, uning qarindoshlari qabrlari bor.

#### **3. Mirzo Abdulqodir Bedil hayoti va ijodi.**

Bedil (asl ismi Mirzo Abdulqodir, 1644 - 1721) kesh (Shahrisabz)lik. Dehlida vafot etgan. Uning yirik asari „To‘rt unsur“ nasrda yozilgan bo‘lib, unda havo, suv, yer, olov haqida, shuningdek, o‘simliklar, hayvonlar va odamning kelib chiqishi haqida o‘z qarashlari bayon etiladi. Bedilning „Irfon“ („Bilim“) dostonida falsafa, tarix va ilohiyot masalalari bayon etilgan. Bedilning fikricha, dunyo abadiy

bo‘lib, to‘xtovsiz harakat qiladi va o‘zgarib turadi. U she’rlarida jamiyatdagi jabr-zulm,adolatsizlik kabi illatlami qoralaydi. Bedil Turkistonda „Abulma’oniý“ („Ma’nolar otasi“) degan nom olgan.

## 10-bilet

### 1. Mahmud Torobiq qo‘zg‘oloni.

1238-yilda Buxoroning Torob qishlog‘ida bosqinchilar va mahalliy mulkdorlar zulmiga qarshi qo‘zg‘olon boshlanadi. Qo‘zg‘olonga toroblik g‘alvir yasovchi hunarmand Mahmud boshchilik qiladi. Tarixda u Mahmud Torobiq nomi bilan shuhrat topadi. Torobiyning yaqin safdoshlaridan Shamsiddin Mahbubiy va Buxoro aholisi qo‘zg‘olonchilarga qo‘shilib qo‘liga qurol oladi. O‘zlarining qadrdon shahar va qishloqlarini mo‘g‘ullardan va ularning hamtovoq xizmatchilari – mahalliy ma’murlardan ozod qilishga otlangan kishilardan kattagina lashkar to‘planadi. Mahmud Torobiq o‘z tarafdoirlari bilan Buxoroga kirib olgach, shahar ichidagi Robiya saroyini qarorgoh qilib oladi. Bu yerga Buxoroning sadrlari, badavlat a‘yonlari, yirik yer egalarini chaqirtiradi. U o‘zini Buxoro va atrof viloyatlarining xalifasi, ya’ni hukmdori deb rasmiy ravishda e’lon qilishga ularni majbur etadi. Shundan so‘ng Shamsiddin Mahbubiy sadr deb e’lon qilinadi. Mahmud Torobiq Buxoroda o‘z hukmronligini o‘rnatgach, mo‘g‘ul tarafdoirlari bo‘lgan mahalliy amaldorlar Buxorodan qochib ketadi. Qochqin amaldorlar va mo‘g‘ullar noib Mahmud yalavoch yordamida Karmana yaqinida kuch to‘plab, Buxoro ustiga yuradilar. O‘rtada jang boshlanadi. Mo‘g‘ullar yengilib, Karmana tomon qocha boshlaydilar. Jangda qo‘zg‘olon boshliqlari Mahmud Torobiq va Shamsiddin Mahbubiylar ham halok bo‘ladilar. Qo‘zg‘olonchilar ularning o‘rniga Torobiyning ukalari Muhammad va Alini boshliq qilib saylaydilar. Oradan bir hafta o‘tmay, ularga qarshi mo‘g‘ullarning yangi qo‘shini hujum qiladi. Jangda qo‘zg‘olonchilar tor-mor qilinib, Torobiyning har ikkala ukalari ham halok bo‘ladilar. Mo‘g‘ullar Buxoroni yana bosib olib, u yerda ilgarigi tartiblarni qayta o‘rnatadilar. Chig‘atoj soliqlarni tartibga solish islohotida 1238-yilda Mahmud Yalavochni noiblikdan chetlatishga majbur bo‘ldi. Uning o‘g‘li Ma’sudbek noib etib tayinlandi. Ulug‘ xoqon O‘qtoy Mahmud Yalavochni Pekin shahriga hokim etib tayinlaydi.

### 2. Dishan qal'a haqida ma'lumot bering.

Dishan qal'a (tashqi qal'a) - Xivaning rabod qismi. 1842 y.da Xorazm xoni Olloqulixon Xivani tashqi hujumdan saqlash uchun devor (uz. 6250 m, bal. 7-8 m, devor qalinligi 5-6 m.) b-n o‘ratgan. Qurilishga ko‘p aholi jalb qilinib, qal'a 6 haftada bitkazilgan. Unda 10 darvoza bo‘lgan: Hazorasp (Qo‘y), Pishkanik, Bog‘i shamol, Shayxlar, Tozabog‘, SHohimardon, Doshoyoq, Qo‘sh, Gadoylar va Gandumiyon (Hazorasp va Qo‘sh darvozalaridan boshqalari saqlanmagan). Qal‘aning bosh ko‘chalari (Hazorasp, Bog‘i shamol, Shohimardon, Qo‘sh) Nurullaboy saroyi, Sayidboy madrasasi va masjidi, Sayid Mohirui jahon, To‘rt Shabboz, Abdolbobo majmualari kabi ko‘pgina obidalar saqlanib qolgan. Qal‘ada hozir ma‘muriy va maishiy binolar, xiyobonlar barpo etilgan.

### 3. Onore de Balzakning hayoti va faoliyati.

XIX asrning birinchi yarmida ijod qilgan yozuvchilardan biri fransiyalik Onore de Balzak (1799-1850) edi. U burjuaziya jamiyatini haqqoniy tasvirlashda beqiyos yozuvchi bo‘lgan. Balzak o‘z asarlarini «Insoniy komediya» degan umumiyy nom ostida yaratdi. Uning maqsadi badiiy obrazlar orqali jamiyatning ma’naviy qiyofasini o‘chib berishdan, jamiyatdagi barcha tabaqalarning tipik vakillarini ko‘rsatishdan iborat edi. Balzak romanlarining qahramonlari jinoyatlar evaziga o‘z boyliklarini ko‘paytirayotgan bankir va savdogarlar, berahm va shafqatsiz sudxo‘rlar, o‘z hayatini behuda o‘tkazayotgan mansabparast va shuhratparast kishilar - o‘z maqsadlariga har qanday vositalar bilan erishadigan kishilardir. Balzak asarlari burjuaziya jamiyatiga qarshi o‘ziga xos aybnoma edi. Inson komediysi»ni muallif 3 qismga bo‘lgan: «Odatlar haqidagi etyudlar», «Falsafiy etyudlar», «Analitik etyudlar». O‘ylangan 137 ta asardan 91 tasi yozilgan. Eng katta qismi «Odatlar haqidagi etyudlar»dir, unga 71 ta roman kirdan bo‘lib, bular orasida - «Gobsek» (1830), «Evgeniya Grande» (1833), «Gorio ota» (1834), «Yo‘qotilgan orzular» (1837-43) kabi asarlar bor

## 11-bilet

### 1. Yosh buxoroliklar faoliyati.

Yosh buxoroliklar siyosiy harakat sifatida 1910-yildan faoliyat ko‘rsata boshladilar. Ular Buxoro taraqqiyarvarlarining yetuk namoyandalari (Abdulvohid Burhonov, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Usmon Xo‘ja, Abduqodir Muhibdinov, Musojon Sayidjonov va boshqalar) bo‘lib, Buxoroni mustabid amir hukmronligidan qutqarib, respublika tuzumini o‘rnatishga harakat qildilar. Yosh buxoroliklar Buxoroda yangi usul maktablarini tashkil qildilar. Bu maktablar uchun turli darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yozildi. «Buxoroi sharif» va «Turon» gazetalarini nashr qilindi. Ushbu nashrlar xalqni jaholatdan uyg‘otish va ma‘rifatga da‘vat etish bilan birligida milliy-ozodlik va mustaqillik g‘oyalarini ham ko‘tarib chiqdi. Yosh buxoroliklar partiyasi dastlab mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o‘tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o‘rnatish orqali amirning mutlaq hokimiyatini cheklab qo‘yish tarafdoi bo‘lishgan. Petrogradda 1917-yili bo‘lgan Fevral inqilobi Yosh buxoroliklar ichida kuchlar nisbatining qayta guruhlanishini tezlashtirdi. Asta-sekin isloh qilish tarafdoirlari bo‘lgan eski jadidlarga Abdulvohid Burhonov-Munzim (1875 – 1934) va Sadriddin Ayniy (1878 – 1954) hamda islohot sohasida faol harakatlarni qo‘llovchi yosh jadidlarga Abdurauf Fitrat (1886 – 1938) va Fayzulla Xo‘jayev (1896 – 1938) yetakchilik qildi. Buxoro amiri Sayid Olimxon 1917-yil 7-aprelda Buxoroda turli islohotlar o‘tkazish to‘g‘risidagi farmonni imzoladi. Biroq, farmonni quvvatlash maqsadida Yosh buxoroliklar tomonidan poytaxt Buxoro shahrida 8-aprelda bo‘lgan namoyish amir tomonidan bostirildi. 14-aprelda farmon bekor qilindi. Yosh buxoroliklar amirlikda ta‘qib ostiga olindi. 1920-yil 12-avgustda Turkiston fronti qo‘mondoni M.V.Frunze amirlikni tugatish maqsadida Samarqand-Buxoro guruhi (fronti)ni tuzish haqida buyruq bergan. Shu tariqa Buxoro amirligi chegaralariga 7000 piyoda, 2500 otliq askar hamda zamonaviy harbiy texnika shay holatga keltirib qo‘yilgan. Amir Olimxon ixtiyorida 15 000 sarboz, 55 ta eski to‘p va 12 ta pulemyot bor edi, xolos. Harbiy kuchlar nisbatiga ko‘ra Turkiston fronti qo‘shinlari zamonaviy qurollarga ega edi. Sovet hukumati xalqaro huquq normalarini qo‘pol ravishda buzib, 1920-yil 29-avgustda Buxoro amirligini tugatishga kirishdi. Shu sanadan boshlab Eski Buxoro ham havodan, ham yerdan qattiq bombardimon qilingan. Buxoroning Qarshi darvozasigacha kelgan temiryo‘lda turgan bronepoyezd

(zirhlipoyezd) va Samarqand, Shayx Jalol, Namozgoh darvozalari yaqinida joylashtirilgan to‘plardan 1-2-sentyabr kunlari shaharga 12 000 snaryad tashlangan. Shahar ustida uchib yurgan 11 ta “qora quzg‘un” (aeroplan) 3 kun davomida bomba yog‘dirgan. Shahar hatto kimyoviy snaryadlardan o‘qqa tutilgan. Qulab tushgan darvozalardan qizil askarlar shaharga bostirib kirganlar. Ko‘cha janglari boshlanib ketgan. Amir Olimxon shahar obidalari va aholini omon saqlash maqsadida poytaxtni tashlab, Sharqiy Buxoroga chekingan. 1920-yil 2-sentyabrda qizil armiya tomonidan Buxoro shahri egallangan. Buxoroda amir hokimiyati ag‘darildi va Yosh buxoroliklar hokimiyat tepasiga kelishdi.

## 2. Sherdor madrasasi haqida ma’lumot bering.

Inshoot Yalangto‘shbiy Bahodir tomonidan bonyod etilgan. Sherdor madrasasi Imomqulixon hukmronligi davrida, 1619-1636-yillar oralig‘ida bonyod etilgan. Me‘moriy obidaning qurilishida bir qator ashylolar ishlatilgan, shulardan: turli xil o‘lchamdagisi g‘ishtlar, loy, yog‘och, tosh, maxsus “qir” qotishmasi va shunga o‘xhash boshqa ko‘plab ashylardan keng foydalaniilgan. Madrasanining dizayni, ichki va tashqi ko‘rinishi: Sherdor madrasasining koshinlari va bezaklari faqat o‘zagagina xos, betakrordir. Madrasa tarhi to‘rburchak, 2 qavatl bo‘lgan. Bosh tarzining 2 qanotida qovurg‘ali gumbaz va minoralar joylashgan. Binoning serhashamligi shu peshtoqida, peshtoqning ikki tomonida gumbazli darsxona va masjid joylashgan. Hovli atrofidagi 2 qavatl hujralar (54 ta) va oldi ravoqli ayvon bo‘lgan. Ayvonlar yozda darsxona vazifasini o‘tagan. 1960-1964-yillarda peshtoq qanoslaridagi koshinkori naqshlar qayta tiklangan. Shuningdek, Sherdor madrasasining Peshtoq ravog‘i tepasi diqqatga sazovor: qizg‘ish zarhal sher oq ohuni quvmoqda. Quyosh bodomqovoq, qiyiq ko‘zli yuz shaklida tasvirlanib, zarhal tusli yog‘du bilan hoshiyalangan. Madrasa hovlisi va undagi hujralar ham o‘z me‘moriy yechimlari bilan Ulug‘bek madrasasidan farq qiladi. Sherdor madrasasining devorlarida uni qurgan usta-me‘mor Abdul Jabborning va me‘morchilik bezaklarini yaratgan mohir usta Muhammad Abboslarning nomlari abadiy muhrlanib qolgan. Memoriy obidaning uslubi haqida gapirar ekanmiz, O‘rta Osiyo me‘morchiligida ko‘p uchraydigan gumbazsimon, qo‘sh va “Chor” uslubidan keng foydalaniilgan. Madrasanining o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, me‘moriy inshoot Ulug‘bek madrasasining ro‘parasida bir o‘q chizig‘i bo‘ylab joylashgan. Madrasa masjid vazifasini o‘tagan, hozirgi kunda esa muqaddas qadamjolarimizdan hisoblanadi. Yana shuni ham ayтиb o‘tish kerakki, madrasa o‘z davrida qurilgan boshqa madrasalardan me‘moriy yechimi bilan ajralib turgan. Mustaqillik yillarda me‘moriy inshootda bir necha bor ta‘mirlash ishlari olib borildi. Ayniqsa, Samarqand shahrining 2750 yilligi munosabati bilan Samarqanddagi boshqa me‘moriy obidalar qatorida Sherdor madrasasi ham ta‘mirlandi. Bundan tashqari, inshoot YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi.

## 3. Nikolay Kopernikning hayoti va faoliyati.

Nikolay Kopernik (1473- 1543) o‘z davri uchun har tomonlama chuqur bilim oldi. Krakov (Polsha) va Italiya universitetlarida o‘qidi. Tasviriy san‘at, matematika, falsafa, huquqshunoslik va tibbiyat kabi fanlarni o‘rgandi. Maxsus moslamalar yorda-mida 30 yil davomida osmon jismlarini kuzatdi. N. Kopernik o‘z tadqiqotlariga suyanib, ming yillardan beri davom etib kelayotgan Yerning harakatsizligi haqidagi ta‘limotdan voz kechdi. Yerning Quyosh va o‘z o‘qi atrofida aylanishini isbotlab berdi. Bu xulosa o‘sha davr fanidagi haqiqiy buyuk kashfiyot edi. Ayni paytda u cherkov aqidalariga mutlaqo zid xulosa ham edi. U o‘z xulosalarini 1543-yilda chop etilgan «Osmon jismlarining aylanishi haqida» nomli kitobida bayon etdi. N. Kopernikning xulosalari cherkovni g‘azablantirdi. Kitob chop etilgan davrda u o‘lim to‘shagida yotardi. Faqat o‘limgina uni inkvizitsiyadan asrab qoldi. Keyinchalik, cherkov Kopernik ta‘limotini rasman taqiladi.

## 12-bilet

### 1. “Loy jangi” haqida ma’lumot bering.

Movarounnahrni qo‘ldan chiqarishni istamagan Ilyosxo‘ja 1365-yilning bahorida yana Movarounnahr ustiga qo‘shin tortadi. Ikki o‘rtadagi jang 1365-yil 22-may kuni Toshkent bilan Chinoz o‘rtasidagi Chirchiq daryosi bo‘yida sodir bo‘ladi. Tarixda u “Loy jangi” nomi bilan shuhrat topadi. Chunki o‘sha kuni kuchli jala quyib, jang maydoni botqoqlikka aylangan, hatto otlar loyga botib qolgan. Jangda Amir Temur qo‘shini g‘olibona harakat qilib, dushman qo‘shinining o‘ng qanotiga qaqshatqich zarba berayotgan bir paytda Husayn o‘z askarlarini raqibning so‘l qanotiga tashlamay, jang maydonini tark etadi. Amir Temur chekinishga majbur bo‘ladi. Bu g‘alabadan so‘ng Ilyosxo‘ja hech qanday qarshilikka uchramay, Xo‘jand va Jizzax shaharlarini egallab, Samarqand ustiga yuradi. Samarqandda qurolli qo‘shin bo‘lmasa-da, xalq shahar mudofaasini o‘z qo‘liga oladi. Uzoq davom etgan mo‘g‘ul lar hukmronligiga qarshi ko‘tarilgan bu xalq harakati tarixda Sarbadorlar harakati nomi bilan shuhrat topadi.

### 2. Ichan qal‘a haqida ma’lumot bering.

Ichan qal‘a Xivaning ichki qal‘a qismidir. U Dishan qal‘adan kungurador devor bilan qisman ajratilgan. Dishan qal‘adan baland qo‘rg‘ontepaga o‘xshab ko‘rinadi. Ichan qal‘aga Bog‘cha, Polvon, Tosh va Ota deb nomlangan darvozalaridan kirlgan. Ichan qal‘aning yaratilish tarixi uch davrga bo‘linadi: mo‘g‘ullar istilosidan keyingi tiklanish (Sayd Alovuddin maqbarasi va boshqalar), XVI-XVII asrlardagi tiklanish (Anushaxon hammomi, 1657-yil; peshayvonli Oq masjid, 1675-yil; Xo‘jamberdibek madrasasi, 1688-yil; xonning qabulxonasi, 1686-1688-yillar), XVIII-XX asrlardagi tiklanish. Uchinchi davrda mahalliy me‘morchilik an‘analari asosida masjid, madrasa, tim va toqlar qurilgan, Ota va Polvon darvozalari orasida katta yo‘l o‘tkazilgan, masjid qayta qurilgan, minoralar qad rostlagan. Qutlug‘ Murod Inoq madrasasiga qaratib tim va toqlar qurilgan. Muhammad Rahimxon (1806-1825-yillar), Ollohqulixon (1825-1842-yillar), Muhammad Aminxon (1845-1855-yillar) hukmronligi yillarda bu yerda qurilish avj olib ketgan. Muhtasham saroy, madrasa, maqbaralar barpo etilgan. Toshhovli saroyi qurilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasi qad ko‘targan. Kalta Minor yuzaga kelgan va hokazo. Ichan qal‘a qurilishida Markaziy Osiyoda qadimdan qo‘llanib kelingan uslub – inshootlarni yuzma-yuz qurish uslubi (qo‘sh)dan foydalaniilgan. Binolarning alohida ansambl holida qurilishi ham Xiva me‘morchiligining o‘ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Masalan, Juma masjid yonida ikkita kichik madrasa, Muhammad Amin Inoq va Muhammad Amin Atpanoboy minorasi hamda Matniyoz Devonbegi madrasasi qurilishi ancha yirik ansamblni tashkil etgan. Polvon darvoza oldida bir necha masjid va madrasalar, hammom, toqi, karvonsaroy va xon saroyini barpo etilishi o‘ziga xos ansamblni tashkil etgan. Qutlug‘ Murod Inoq bilan Ollohqulixon madrasasi, Tosh hovli bilan Oq masjid o‘rtasidagi maydoncha shu ansamblning kompozitsion markaziga aylangan. Xiva yodgorliklari yog‘och o‘ymakorligi, sangtaroshlik, ganchkorlik, sirkor sopol va boshqa rang-barang naqqoshlik bezaklari bilan bezatilgan. Shaharning vertikal dominanti – koshinlari quyoshda yaltirab turuvchi Islom hoji minorasidir. Minora bilan uning yaqinidagi Pahlavon Mahmud maqbarasining gumbazi bilan birqalikda tevaraklaridagi pastroq inshootlarni yaxlitlikka keltirib turadi. Maqbara ro‘parasida supa tarzli Sherg‘ozixon madrasasi qurilgan. Ichki shaharning asosiy ko‘chalari

Xivaning rabotida – tashqi shaharda, Dishan qal’ada davom etib, to‘rt tarafidagi boshqa shahar va qishloqlarga olib boradi. Dishan al’ada jami o‘nta darvoza bo‘lib, ulardan shimol tomonidagi Urganchga olib boradigan ochiq qiyofali Qo‘sh darvoza o‘ziga alohida e’tiborni tortadi

### 3. Yusuf Xos Hojib hayoti va faoliyati.

Turkiyo‘y adib, mutafakkir va davlat arbobi bo‘lgan Yusuf Xos Hojib (XI asr) “Qutadg‘u bilig” dostonining muallifidir. U qoraxoniylarning markaziy shaharlaridan bo‘lgan Bolasog‘unda tug‘ilgan. Yusuf bu yerda arab, forsiy til va undagi adabiyotlarni puxta o‘rgandi. Falsafa, mantiq, matematika va boshqa bilimlarni mukammal egalladi, davlat ishlari, idora qoidalar bilan qiziqlidi. Yusufning hayoti va ijodiy yo‘li haqidagi ma‘lumotlar juda oz. Yusuf Xos Hojib haqida ma‘lumot beruvchi yagona manba “Qutadg‘u bilig” dostonidir. U 1069-yilda “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltvuvchi bilim”) asarini Bolasog‘unda yoza boshlaydi va 1070-yilda Koshg‘arda tugatadi. Asarni qoraxoniylar hukmdorlaridan bo‘lgan Tavg‘och Bug‘roxonga taqdim etadi. “Qutadg‘u bilig” Tavg‘och Bug‘roxonga ma‘qul kelib, Yusufga “Xos Hojib” (eshik og‘asi) martabasini beradi. O’shandan boshlab adibni Yusuf Xos Hojib deb atay boshlaydilar. Asarda inson va uning ijtimoiy mohiyati, hayotdagi o‘rnii va vazifasi har tomonlama tahlil qilinadi. “Qutudg‘u bilig”da oddiy xalq, mehnatkash inson alohida ehtirom bilan tasvirlanadi. “Qutadg‘u bilig”da axloq, odob, sadoqat va sevgi kabi masalalar haqida hikmatli so‘zlar yuritadi. U ilm va ma‘rifatga saodatning kaliti deb qaraydi. Shuning 100uchun ham o‘z dostonini “Qutadg‘u bilig” deb ataydi. Unda ilm va ma‘rifatni targ‘ib qiladi, olimlarni ulug‘laydi, davlat boshliqlarini ilm-fan ahllaridan ta’lim olishga va ularning maslahatlari bilan ish ko‘rishga da’vat qiladi.

### 13-bilet

#### 1. “Stolipin agrar islohoti” haqida ma‘lumot bering.

1904-yildagi Rossiya-Yaponiya urushi xalqommasing turmush darajasini yanada og‘irlashtirib yubordi. Oxir-oqibat, bu - 1905-yilda inqilob yuz berishiga olib keldi. To‘g‘ri, inqilob yengildi. Hukmron tabaqalar bu inqilobdan zarursaboqlar ham chiqardi. Uning asosiysi-dehqonlarni inqilobiyharakatdan chetlatish haqidagi saboq edi. Ikkinchisi, qishloqlardapodsho hokimiyatining kuchli ijtimoiy tayanchini vujudga keltirish muammosi edi. Bu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun agrar islohoti‘tkazishga qaror qilindi. Podsho 1906-yilda agrar islohot o‘tkazish va dehqonlarni ko‘chirish to‘g‘risida farmon chiqardi. Bu islohot bosh vazir P.A. Stolipin tashabbusi bilan bog‘liqbo‘lganligi uchun u tarixga „Stolipin agrar islohoti“ nomi bilan kirgan. Unga ko‘ra, dehqonlarning o‘z xususiy yeriga ega bo‘lishimasalasining quyidagi 3 usul orqali amalga oshirilishi mo‘ljallandi: jamoa yer egaligini bekor qilish va dehqonlarga sotib olgan jamaa yerini xususiy mulkka aylantirish hamda dehqonga o‘z yerini sotish huquqini ham berish; dehqonlarning davlat va pomeshiklarga qarashli yerlarni sotib olishlari uchun ularga „Dehqonlar banki“ orqali yordam berish; yer tanqisligi kuchli bo‘lgan markaziy mintaqalardagi dehqonlarning bir qismini Sibir, Turkiston, Uzoq Sharq va imperianing milliy chekka o‘lkalariga ko‘chirish. Stolipin agrar islohoti qishloq aholisining tabaqalanishini va ichki bozorning o‘sishini kuchaytirdi. Badavlat dehqonlar (qulolqar)ning mavqeyini mustahkamladi. Biroq, agrar islohot pomeshik yer egaligini tugata olmadi. Bundan tashqari, ko‘chib ketganlar yana avvalgi joylariga qayta ko‘chib kelishga majbur bo‘la boshladilar. Chunki ko‘chirish moddiy jihatdan yetarli ta’minlanmadni. Buning oqibatida 1911-yilda ko‘chib ketganlarning (ularning soni 3,5 mln. dan ortiq edi) yarmidan ko‘pi qayta ko‘chib keldi. Shuningdek, ko‘chirish siyosati milliy chekka o‘lkalardagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi. Bunga chekka o‘lkalardagi, xususan, Turkistondagi mahalliy aholiga qarashli eng yaxshi yerlarning ko‘chib kelganlarga berilganligi, yerli aholining esa sharoiti og‘ir yerlarga surib chiqarilganligi sabab bo‘ldi. Shu tariqa, Stolipin mamlakatni „tinchlantira“ olmadi. Hukmron tabaqalar uning iste’fo berishini talab eta boshladilar. Bunga erishilmagach, 1911-yilda Stolipin otib o‘ldirildi. Lekin, barcha nuqsonlariga qaramay, Stolipin agrar siyosati qishloqda kapitalizmning taraqqiy etishiga yo‘l ochdi.

#### 2. Labihovuz ansambl haqida ma‘lumot bering.

Buxorodagi me’moriy yodgorlik (17-a.). Dastlab bozor maydoni bo‘lgan. Maydon o‘rtasida katta qovuz qazilib (1620 y.) atroflari sinchlar b-n mustahkamlangan, xarsanglardan zinapoyalar, marmardan tarnovlar ishlangan. Shag‘al va tuproq b-n to‘ldirilib shibbalangan. Hovuz eni 36 m., bo‘yi 45,5 m., chuq. 5 m. Uning g‘arbida Nodir Devonbegi xonaqohi, sharqida Nodir Devonbegi madrasasi, shim.da Ko‘kaldosh madrasasi va Ernazar elchi madrasasi (saqlanmagan) qad ko‘targan. Hozirda hovuz atrofiga chinorlar ekilib, choyxona qurilgan. Yodgorliklar ta’mirlangan.

#### 3. Abu Rayhon Beruniy hayoti va faoliyati.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) Xorazmnning Kat shahrida tug‘ilib, Urganchda ta’lim olgan. Xorazmshoh Abul Abbas Ma’mun II saroyida to‘plangan olimlar bilan birgalikda Ma’mun akademiyasida ijod qilgan. Xorazm Mahmud G‘aznaviy tomonidan bosib olingach, Beruniy va boshqa olimlar bilan birga G‘azna shahriga olib ketiladi va umrining oxirigacha shu yerda ijod qildi. Beruniy 1048-yilda G‘aznada vafot etadi. Beruniy astronomiya, geografiya, matematika va tarix fanlari bo‘yicha 160 dan ortiq asarlar yozgan. Uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Geodeziya” kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. U o‘zining astronomiyaga oid asarlarda Kopernikdan qariyb besh asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida ayla nishi haqidagi fikrni o‘rta asrlarda birinchi bo‘lib ilgari surdi. Beruniy yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslabildi. U 1029 ta yulduzning koordinatlari kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini hamda dunyoning geografik kartasini tuzgan. Beruniy yevropalik olimlardan 450 yilcha oldin Amerika qit’asi mavjudligini taxmin qilib, o‘z asarlarda bir necha bor yozgan. Beruniyning g‘arbiy yarim sharda katta quruqlik borligi to‘g‘risidagi fikri XV–XVI asrlarda o‘z tasdig‘ini topdi. Beruniy Yer aylanasi uzunligini o‘lchashda yangi usul – matematik usulni ishlab chiqdi. U birinchi bo‘lib Yer shari globusini yaratgan. Beruniyning ilmiy va falsafiy ulkan meroysi shubhasiz jahon fani va madaniyati xazinasiga qo‘shilgan ulkan hissa bo‘ldi.

### 14-bilet

#### 1. Muhammad Rahimxon I islohotlari.

Muhammad Rahimxon I o‘z hukmdorligi davrida davlat boshqaruvi tizimida islohot o‘tkazgan. Unga ko‘ra xon huzurida yuqori ma‘muriy organ - Oliy Kengash ta’sis etilgan. Oliy Kengash davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatni vazifasini bajargan. Oliy Kengashga xonning o‘zi rahbarlik qilgan. Oliy Kengash ishida xonning yaqin qarindoshlari, mehtar, qo‘shbegi, devonbegi, naqib, shayxulislom, bosh qozi, inoq, otaliq va biylar qatnashganlar. Oliy Kengash majlisi haftada bir marta o‘tkazilgan va unda davlatning ichki va tashqi siyosatiga oid eng muhim masalalar muhokama etilgan. Ayni paytda, xonlik hayotiga oid kundalik

masalalami hal etish uchun Kichik Kengash ham ta'sis etilgan. Bu kengash ishida xondan tashqari mehtar, qo'shbegi, devonbegi, naqib va shayxulislom qatnashganlar.

## **2. Islomxo'ja minorasi haqida ma'lumot bering.**

Xiva shahrida, Ichan qal'a markazida joylashgan Islomxo'ja minorasi qo'ng'irotlar sulolasi davrida Vaziri Akbar Islomxo'ja tomonidan bunyod etilgan. Islomxo'ja (1872-1913, Xiva) – Xiva xonligining bosh vaziri. Xorazmda jadidchilik harakatining o'ng oqimi rahbarlaridan biri bo'lgan. Islomxo'ja Muhammad Rahim II va Asfandiyorxon hukmronligi davrida Xiva xonligi delegatsiyasi tarkibida Sankt-Peterburg va Moskva shaharlarida bir necha marta bo'lgan (1907-1912). Ilg'or Yevropa madaniyatini targ'ib qilgan. Xudoybergan Devonovga Xorazmda kino va surat olish ishiga asos solishida homiylik qildi. Uning tashabbusi bilan Xiva va boshqa shaharlarda Islomxo'ja minorasi va madrasasi, Nurullaboy saroyi, kasalxonasi, elektrostansiya qurildi, jadid maktablari va hatto rus maktablari ochildi. Asfandiyorxon hukmronligi davrida bosh vazir (1910-1913) bo'lib, xonlikning janubiy qismini idora etgan hamda xorijiy davlatlar bilan bo'ladigan aloqalarini boshqargan. Xonlikni idora etishdagi xizmatlari uchun "vaziri akbar" unvoni berilgan. 1910-yil u xonlikda islohot o'tkazish to'g'risidagi farmonni ishlab chiqishda faol ishtiroy etdi. Sug'orma dehqonchilikka asoslangan Xorazmda dehqonlarning ahvolini yengillatish uchun yer solig'ini kamaytirishga harakat qiladi. "Yosh xivaliklar" partiyasining asoschisi Polvonniyoz Hoji Yusupovning yozishicha, taraqqiyatparvarlik g'oyalari uchun o'z kuyovi Asfandiyorxonning buyrug'i bilan vaxshiyona o'ldiriladi. Islomxo'ja minorasi yangi davrning dastlabki davrlarida (mustamlaka davrida), 1908-1910-yillarda bunyod etilgan. Me'moriy obidaning qurilishida pishgan g'isht, sement va yog'ochdan foydalanilgan. Islomxo'ja minorasi yonida shu nomdagi madrasa bo'lib, uning (42,8x32,5) bosh tarzi ikki qavatlari. Kichik hujralar (42 ta) bilan o'rangan. Bosh tarzining hovliga qaragan ikkinchi qavatida ayvon bor. Madrasaning janubiy-sharqidagi masjid gumbazli, mehrobi koshin va ganjkorasi naqshlar bilan bezatilgan. Old tomonida Xivadagi eng baland minora (44,6 m) qad ko'targan. Asosining diametri – 9,5 m. Yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Ko'k, yashil rangdagi naqshlar bilan belbog'lar ishlangan. Qafasasiga panjaralar o'rnatilib, yuqorisini muqarnasli sharafa va qubba bilan yakullangan. Minora shaharning deyarli hamma tomonidan ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Islomxo'ja minorasi va madrasasini qurishda me'mor Xudoybergan hoji, naqqoshlar – Eshmuhammad Xudoyberdiyev, Bolta Voisov va boshqalar qatnashgan. Me'moriy inshoot uzoq yillar muazzin azon aytuvchi joy vazifasini o'tagan bo'lsa, keyingi yillarda undan harbiy maqsadda ham – kuzatuv obyekti vazifasida foydalanilgan Inshoot Xorazm me'morchiliginining minora uslubida qurilgan. Uning o'ziga xos tomoni shundaki, inshoot shaharning deyarli hamma tomonidan ko'rinishi va shahardagi baland me'moriy inshootlardan biridir. Me'moriy inshoot mustaqillikkacha va mustaqillikdan keyin bir necha bor ta'mirlandi va u YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Xiva shahridagi boshqa me'moriy obidalar qatorida Islomxo'ja majmuasi ham ta'mirlandi. Me'moriy obida atroflari ko'kalamzorlashtirilgan holatga keltirildi. Minora afsnaviy ko'rinishini Ichan qal'a shahri tarixiy markazida saqlab qolgan bo'lib, 1990-yilda Xivadagi "Ichan qal'a" Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

## **3. Berdaq ijodidagi asosiy g'oya.**

Qoraqalpoq xalqi adabiyoti uning asoschisi Berdaq (1827-1900) (taxallusi; asl ismi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li) nomi bilan mashhurdir. Berdaq avval ovul maktabida, so'ngra madrasada tahsil ko'rgan. U Navoiy, Fuzuliy, Mahtumquli, Kunxo'ja asarlarini chuqr mutolaa qilgan, ulardan o'rgangan. Berdaq tarixni, xalq og'zaki ijodini mukammal o'zlashtirib oladi. Uning ijodi 18-19 yoshlarda do'mbira chertib, she'r aytishdan boshlangan. 25 yoshida u iste'dodli shoir sifatida xalq orasida tanildi. Uning „Bo'lgan emas“, „Umrin“ va „Soliq“ kabi she'rlerida melmatkash xalqning og'ir hayoti o'z aksini topib, Xiva xonlari, amaldorlari zulmiga qarshi xalq noroziligi ifodalangan. „O'g'limga“, „Alimoq bo'lma“ kabi she'rleri orqali esa yoshlarni Vatanni sevishga, ma'rifat cho'qqilarini egallahsga chaqiradi. Berdaq xalq hayatini, uning ezgu orzu-istiklarini yaxshi bilgan shoir edi.

Shuning uchun ham uning she'rlerida xalqparvarlik rulii kuchli edi. shoir o'zining „Xalq uchun“ degan she'rida yoshlami mehnatkash xalq uchun jonini ayamaslikka chaqiradi. Berdaq tarixiy mavzularda ham qalam tebratgan. Uning „Omongeldi“, „Oydo'stbiy“, „Emazarbiy“ kabi asarlarida xonlar zulmiga qarslii kurashgan xalq qaliramoni foydalanadi. „Avlodlar“ asari tarixiy voqealar solnomasi bo'lib, unda xalqlaming kelib ciliqislii, qoraqalpoq xalqining boshqa turkiy xalqlar bilan aloqasi, ulaming hayotidagi umumiyligini kabi jihatlar bayon etilgan. Xiva xonligi zulmiga qarshi ko'tarilgan isyon „Emazarbiy“ dostonida ham aks ettirilgan.

1998-yilda mamlakatimizda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi. Toshkent shahridagi xiyobonlaming biriga Berdaq nomi berildi va byusti o'matildi. Shoir tug'ilgan joy - Bo'zatovda ham Berdaq byusti o'matildi, Nukus shahrida Berdaqqa haykal qo'yildi.

## **15-bilet**

### **1. Shayboniyalar sulolasi davridagi pul islohotlari.**

Muhammad Shayboniyxon tomonidan 1507-yilda pul islohoti o'tkazildi. Bunga ko'ra, mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil - 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib, muomalaga chiqarildi. Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazilgan edi. Ayni paytda, bu islohot dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va xon mulkini ko'paytirishga imkon berdi. Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu va boshqa tadbirdar, o'z mohiyatiga ko'ra, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qilishi zarur edi. Muhammad Shayboniyxon va fotidan so'ng boshlangan o'zaro toj-u taxt kurashlari hamda Eron bosqinchilariga qarshi kurash mamlakat iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hol, o'z navbatida, pulning qadrsizlanishiga olib kelgan. Natijada, oliy hukmdor Ko'chkunchixon navbatdagagi pul islohotini o'tkazishga majbur bo'lgan. Shu yo'l bilan ahvolning bir maromga tushishiga erishilgan. Shayboniy Abdullaxon II o'tkazgan pul islohoti ham Buxoro xonligi tarixida muhim ahamiyatga ega voqeа bo'lgan. U oltin pul zarb etishni yo'lga qo'ygan va uning tarkibiga qiymati past bo'lgan boshqa ma'danlar aralashtirilmasligini qattiq nazorat ostiga olgan. Bu pullar xonlikning butun hududida muomalaga kirdi. Bu hol, o'z navbatida, hokimiyatning yanada markazlashuviga, xazinaga katta daromad tushishiga olib keldi, savdo-sotiq yanada jonlandi.

### **2. Semiramida osma bog'lari haqida ma'lumot bering.**

Qadimgi Yuno-niston tarixchisi Gerodotning yozishicha, Semiramida osma bog‘larini qadimgi Ossuriya podshohi - malika Semiramida (asli ismi Shammuramat) mil.avv. VIII asrda barpo ettirgan. Bog‘ supaga o‘xshash qilib qurilgan, supalarni ustunlar ko‘tarib turgan. Supalar ustiga tuproqlar tashlanib, unga rang-barang gullar, har xil ko‘chatlar o‘tqazilgan. Har bir qavatdagagi bog‘ga zinapoyalar orqali chiqilgan. Har kuni ko‘plab qullar tepaga suv tashishgan. Bog‘dagi so‘lim daraxtlar soyasi, tepadan pastga jilvirab oqayotgan suv salqini haqiqiy mo‘jizaning o‘zi bo‘lgan. Keyinchalik bu bog‘ni Bobil podshosi Navuxodonosor II vayron qilib tashlagan.

### **3. Galileo Galilei hayoti va ilmiy faoliyati.**

G. Galilei ham italiyalik (1564-1642) buyuk astronom edi. U osmon jismlarini kuzatuvchi asbob - teleskopni yaratdi va shu teleskop bilan osmonni kuzatgan Yev-ropaning birinchi olimi edi. Uning tad-qiqot ishlari Kopernikning ta’limotini tasdiqladi. Bundan tashqari, G. Galilei Oyda ham Yerdagi kabi tog‘lar borligini va hatto Quyoshda dog‘lar mavjudligini qayd etdi. G. Galilei o‘z qarashlarini «Yulduzlar axboroti» kitobida bayon etdi. Cherkov bu kitobni taqiqlangan adabiyotlar ro‘yxatiga kiritdi. Inkvizitsiya esa uning kashfiyotlarini qoraladi. Keksa, kasalmand Galilei besh oy davomida tergov qilindi. Tergov uning tinka-madorini quritdi. Oxir-oqibatda, inkvizitsiya uni o‘z g‘oyalaridan voz kechishga majbur etdi. 1992-yilda Rim Papasi Ioann Pavel II (marhum) G. Galileya nisbatan inkvizitsiya sudi qarori bekor qilinganligi va G. Galileyning oqlanganligini e’lon qildi. Ayni paytda u inkvizitsiyaning buyuk olimga nisbatan o‘tkazgan zulmi uchun kechirim so‘radi.

## **16-bilet**

### **1. Yuechjilarni O‘rta Osiyoga bostirib kirishi.**

Mil. avv. 140-130-yillar oralig‘ida ko‘chmanchi yuechji qabilalari Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar. Yuechjilar Baqtriya yerlariga kelib o‘rnashadilar va milodiy I asrda Guyshuan (Kushon) xonadonining boshlig‘i barcha yuechji mulklarini o‘z hokimiyati ostida birlashtirib, Kushon davlatiga asos soladi. Birlashgan yuechji qabilalarining birinchi hukmdori Kudzula Kadfiz bo‘lgan. Kudzula Kadfiz hukmronligi davrida Afg‘oniston va Kashmir Kushon davlatiga qo‘sib olingan. Uning vorisi Vima Kadfiz hukmronligi davrida Kushon davlati hududi yanada kengaydi. Podsho Kanishka hukmronligi zamonida poytaxt Baqtriyadan Peshovar (hozirgi Pokiston)ga ko‘chiriladi, Kushon podsholigi esa ulkan davlatga aylanadi. Uning hududiga Hindiston, Xo‘tan, Afg‘oniston va O‘zbekistonning janubigacha bo‘lgan yerlar kirgan. Rim, Parfiya, Xitoy davlatlari qatorida Kushon davlati ham ulkan podsholiklardan biriga aylangan. To‘xtovsiz urushlar oqibatida Kushon davlati inqirozga yuz tutdi va parchalanib ketdi

### **2. Galikarnas maqbarasi haqida ma’lumot bering.**

Kichik Osiyoda Kariy viloyati bo‘lgan. Uning markazi nihoyatda boy va go‘zal Galikarnas shahri edi. Galikarnas maqbarasi mil. avv. 353-yilda vafot etgan hukmdor Mavsol xotirasiga sharafiga bunyod etilgan. Bu maqbara ibodatxonasi vazifasini ham bajargan. Maqbaraning kengligi 66 metr, uzunligi 77 metr, balandligi esa 46 metr bo‘lgan.

### **3. Abdulla Avloniy hayoti va faoliyati.**

Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug‘ildi. U maktab va madrasada ta’lim olib, o‘z zamonining ma‘rifatli va chuqur bilim sohibiga aylandi. Abdulla Avloniy o‘lkada ta’lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘sib, 1907-yil «Shuhrat» gazetasiga asos soldi. Oczi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklarni yaratdi.

## **17-bilet**

### **1. Anqara jangi haqida ma’lumot bering.**

Amir Temur bilan Sulton Boyazid qo‘sishinlari o‘rtasidagi hal qiluvchi jang 1402-yil 20-iyulda Anqara yaqinida, Chubuq mavzeyida sodir bo‘ladi. Bu jang tarixda “Anqara jangi” deb ataladi. Uzoq davom etgan shiddatli jangda Sohibqiron kuchlari turk qo‘sishini tormor etadi. Sulton Boyazid asirga olinadi. Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g‘alaba bilan Amir Temurni Fransiya, Angliya hamda Kastiliya va Leon qirollari tabriklab, unga o‘z muboraknomalarini yuboradilar. Chunki Sohibqiron endigina uyg‘onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zarba berib, butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi.

### **2. Shomahmudovlar oilasi monumenti haqida ma’lumot bering.**

1982-yil 26-mayda Toshkentdagi Xalqlar do‘stligi maydonida “Xalqlar do‘stligi monumenti - Shomahmudovlar oilasi haykali” o‘rnataladi. Monument 2-jahon urushida SSSR turli hududlaridan kelib qolgan 16 bolani asragan toshkentlik temirchi oila Shomahmudovlarning yuksak insoniy jasoratini o‘zida aks ettridi. 2008-yil 12-aprelda monument shaharning bir chekkasiga ko‘chirib o‘tkaziladi. 2017-yil 1-mayda monument Xalqlar do‘stligi bog‘iga ko‘chiriladi, 2018-yil 9-may kuni esa monument o‘zining dastlabki joyi Xalqlar do‘stligi maydoniga yana qayta ko‘chirib keltiriladi.

### **3. Mahmud Zamaxshariyning hayoti va faoliyati.**

Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy 1075-yilda Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida dunyoga kelgan. Ilmga bo‘lgan chanqoqlik uni Buxoro, Marv, Nishapur, Isfahon, Shom, Bag‘dod, Hirat va Makkada hayot kechirib, arab tili va adabiyotini, diniy ilmlarni, xattotlik san‘atini, arab maqollari va urf-odatlarini chuqur o‘rganishiga sabab bo‘ldi. U mintaqasi geografiyasiga doir ma’lumotlarni to‘playdi. Mahmud Zamaxshariy turli soha ilmlariga oid 50 dan ortiq asarlar yozib qoldirdi. Ayniqsa, uning arab tili fonetikasi va morfoloyiyasiga bag‘ishlangan “Al-Mufassal”, Qur’oni karim tafsiriga oid “Al-Kashshof” asari musulmon olamida mashhurdir. Zamaxshariy “Arab va g‘ayri arablar ustozlari”, “Xorazm faxri” kabi sharaflari nomlar bilan ulug‘langan.

U ko‘p asarlarini Makkada yozganligi uchun “Jorulloh” (“Allohnning qo‘schnisi”) degan sharaflari nomga tuyassar bo‘ladi. Qohiradagi dunyoga dong‘i ketgan Al-Azhar diniy dorilfununing talabalari hozir ham “Al-Kashshof” asosida Qur’oni karimni o‘rganadilar. U, shuningdek, tarixdagi birinchi ko‘p tilli lug‘at – arabcha-forscha-turkiy lug‘atning asoschisi bo‘lgan. Mahmud Zamaxshariy 1144-yilda Xorazmda vafot etgan. 1995-yilda O‘zbekistonda Mahmud Zamaxshariyning 920 yilligi keng nishonlandi.

## **18-bilet**

### **1. Meydzi islohotlari.**

1867-yilda Tokugava sulolasining oxirgi syoguni imperator Musuxito foydasiga oliy hokimiyatdan voz kechdi. Shu yili unga imperator Meydzi («ma'rifatli boshqaruv») nomi bilan toj kiydirildi. Yaponiya uchun modernizatsiya davri boshlandi. Hukumat o'z oldiga milliy an'analardan voz kechmagan, mustaqillikni to'la saqlab qolgan holatda g'arb namunasida Yaponiyani zamonaviylashtirish vazifasini qo'ydi. Dastlab agrar islohot o'tkazildi. Bu islohot yerni sotish va sotib olishga, uni xususiy mulkka aylantirishga ruxsat berdi. Natijada asrlar davomida katta yer egalari uchun mehnat qilib kelgan dehqonlar chek yerga ega bo'ldilar. To'g'ri, yer uchun katta soliq ham belgilab qo'yildi. Bu soliq qiymati hosildan olinadigan daromad haj mining 50 foiziga teng edi. Shuning uchun ham islohotdan 10 yil o'tgach, yer olgan dehqonlarning atigi 1/3 qismi o'zlariga berilgan yerni qo'llarida saqlab qola oldilar. Qolganlari esa ijarchilarga aylandilar. Shunday bo'lishiga qaramay, islohot qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlarning rivojlaniшини ta'-minladi. Ma'muriy sohada o'tkazilgan islohot mahalliy knyaz-lar hokimiyatini tugatdi. Knyazlar qudratini sindirish uchun dastlab yerlarining bir qismi musodara qilindi. So'ng ular boshqaruv huquqidан ham mahrum etildi. Joylarda hokimiyat imperator tayinlaydigan gubernatorlar qo'liga o'tdi. Harbiy islohotga ko'ra, Yaponiyada umumiy harbiy majburiyat joriy etildi. Samuraylar avvalgi qiyofasini yo'qotdi. Endi ular doimiy harbiy xizmatda bo'lish imtiyozidan mahrum bo'ldilar. Yevropacha nusxadagi yangi qo'shining shakllantirilishi belgilandi. Fransiyadan harbiy mutaxassislar taklif etildi. Qo'shin Yevropadan sotib olingan zamonaviy qurollar bilan qayta qurollantirildi. Garchand qo'shin yevropacha andoza asosida tuzilgan bo'lsa-da, uning mafkurasi yaponcha bo'lib qolaverdi. Chunonchi, qurolli kuchlarda xizmat qiluvchilar ongiga o'z davlatining manfaatlariga sodiqlik, imperatorga muhabbat va o'limni nazar-pisand qilmaslik g'oyalari toqat bilan singdirildi. Bu xususiyatlar «yaponcha milliy ruh»ning qirralari, belgilari deb hisoblandi. Bundan tashqari, yaponlar ongiga Yaponiyaning quyosh xudosi Amaterasu xohishiga ko'ra paydo bo'lganligi, shuning uchun ham bu davlat Osmon va Yer kabi abadiy mavjudligi, imperatorga xudo Amaterasudek mehribonlik xos ekanligi, uning hech qachon nohaq bo'lishi mumkin emasligi, imperatorga sodiqlik vatanparvarlikning oliy namunasi ekanligi, yaponlarning boshqalardan ustunligi, millatning ulug' vazifasi kabi g'oyalalar ham undan-da kam bo'lмаган toqat bilan singdirila borildi. Ayni paytda G'arb davlatlari siquviga qarshi turmoq uchun barcha Osiyo davlatlari Yaponiya imperatori hokimiyati ostiga birlashishi lozimligi haqidagi g'oyalalar ham esdan chiqarilmadi. Bu g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishda ibodatxonasi, qo'shin va maktablarga katta e'tibor berildi. Bu g'oyalalar kelgusida Yaponiyaning Osiyo qit'asida olib borgan keng ko'lamli bosqinchilik urushlarini mafkuraviy jihatdan tayorlash jarayonida muhim rol o'ynadi.

## **2. Konstantinopoldagi Muqaddas Sofiya ibodatxonasi haqida ma'lumot bering.**

Ayo Sofiya (Avliyo Sofiya) ibodatxonasi Istanbuldag'i me'moriy yodgorlik. Vizantiya me'morligining buyuk mahobatlari yodgorligi (532-537). Me'morlari trallik Anfimiy va miletlik Isidor. Ibodatxona tarhi 3 neflik gumbazli bazilika shaklida bo'lib, yon neflari 2 qatlamlı, gumbazi yarim aylanasi mon. O'rta nefi keng va baland, tomi ulkan gumbaz bilan qoplangan. Ibodatxona uz. 77 m, gumbaz diametri 31,5 m. Gumbazi 4 ustunga hamda bag'alidagi ravoqlarga tayangan. Gumbaz asosiga 40 ta deraza ishlangan. Interyerida order tizimi (kolonnada, ravoq va b.) dan foydalilanilgan. Rangli marmar va koshinlar bilan serhasham bezatilgan. 6-a.da vayron bo'lgan gumbazi 1374 y.da kichik hajmda qayta tiklangan. 4 tomoniga nayzasimon minora ishlangan (16-18-asrlar). Hozirda muzei.

## **3. Burhoniddin al-Marg'inoniy hayoti va faoliyati.**

Mashhur fiqh (huquqshunos) olimi Burhoniddin al-Marg'inoniy 1123-yilda Rishtonda (Farg'ona vodiysi) tavallud topgan. Al-Marg'inoniy ning eng nodir asari to'rt jiddli "Hidoya" asaridir. "Hidoya" islam huquqshunosligi bo'yicha mukammal asar bo'lib, bir necha asrlar davomida musulmon mamlakatlaridagi huquqshunoslar uchun ham nazariy, ham amaliy qo'llanma vazifasini o'tab kelgan. Kitob bir qancha tillarga tarjima qilingan. Hozirgi kunda ham muhim manba sifatida foydalanib kelinmoqda. Shu sababli alloma nafaqat ulamolar, balki oddiy xalq orasida ham "hidoyat yo'lining sarboni" deya katta hurmat-e'tibor topti. Burhoniddin val-milla (Islam dinining dalili, isboti) degan sharafli nomga sazovor bo'ldi. 2000-yilda al-Marg'inoniyning 910 yilligi nishonlandi. Shu munosabat bilan Marg'ilon shahri markazida Burhoniddin Marg'inoniy yodgorlik majmuyi buniyod etilib, shu yerda uning ramziy maqbarasi o'rnatildi.

## **19-bilet**

### **1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.**

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini tayorlash g'oyasi dastlab Islom Karimov tomonidan 1990-yilning mart oyida ilgari surildi. 1990-yil 20-iyun kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II sessiyasida yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi. Sessiya O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligidida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo'jaliklarning rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritildi. Konstitutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini yaratish ustida 2,5 yil ishladi. Loyihaning dastlabki variant 1991-yilning oktabr-noyabrigacha tayyorlab bo'lindi. U dastlab muqaddima, olti bo'lim va 158 moddadan iborat edi. Bu loyiha hali mukammal emasligi, boisi uning ustida yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishslash zarur edi. 1992-yil bahorida esa loyihaning 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. 1992-yilning kuz oylarida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun 2-marta matbuotda e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. 1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi bo'ldi. Unda mamlakatning Asosiy Qonunini qabul qilish masalasi muhokama qilindi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kirtildilar. Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e'lon qilish to'g'risida"gi qonunlarni qabul qildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. U «Mustaqillik Deklaratsiyasi», «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g'oyalarni o'zida to'la mujassamlashtirdi.

### **2. "Qatag'on qurbanlari xotirasi" memorial majmuasi haqida ma'lumot bering.**

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov (1938 – 2016) tashabbusi bilan 2000-yil 12-mayda Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi Bo'zsuv kanali bo'yida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi ochildi. U mustabid sovet rejimi davrida qatag'on qilingan shahidlar xotirasiga bag'ishlab o'rnatilgan bo'lib, millat fidoyilarining aksariyati shu yerda otib tashlangan edi.

O‘zbekiston Respublikasida 2001-yildan boshlab har yili 31-avgust – qatag‘on qurbanlarini yod etish kuni sifatida o‘tkaziladigan bo‘ldi. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasida 2002-yil 31-avgustda “Qatag‘on qurbanlari xotirasi” muzeyi ochildi. Muzey Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati davrida Vatan ozodligi yo‘lidagi faoliyati uchun qatag‘on etilgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil qilingan. Bu minnatdor avlodlarning o‘z ajdodlari xotirasiga ehtiromidir.

### **3. Ajiniyoq Qo‘siboy o‘g‘li hayoti va ijodi.**

Ajiniyoq Qo‘siboy o‘g‘li (taxallusi Zevar) ham (1824-1878) qoraqalpoq xalqining atoqli shoirlaridan biridir. Mo‘y- noqdagi eski maktabda o‘qigan. Keyin Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida ilm olgan. Ajiniyozdan yuzdan ortiq she‘r va dostonlar meros qolgan. She‘rlarida Vatan, insonparvarlik g‘oyalari kuylangan. Shoirning „Bo‘zatov“ dostonida esa qoraqalpoq xalqining boshqa yurtlarga ko‘clib ketishga majbur etilganligi katta mahorat bilan tasvirlangan. 1999-yilda Ajiniyoq tavalludining 175 yilligi nishonlandi. Nukusda Ajiniyoq maydoni barpo etildi va unga haykal o‘rnatildi.

## **20-bilet**

### **1. BMTning tashkil topishi.**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1945-yilning 24-oktabrida tuzildi. Antifashist koalisiya davlatlari urushdan keyingi dunyo tuzilishi tamoyillari to‘g‘risi dagi o‘z qarashlarini Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Ustavida bayon qildilar. BMT Ustavi ko‘plab xalqlar kurashining mazmuniga aylangan va Yer yuzidagi barcha xalqlarning tinchlik va tenglikda yashash tamoyillari bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlarni e‘lon qildi. Rossiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya Xitoy BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a‘zolari hisoblanadi. Bugungu kunda 193 ta davlat BMTga a‘zo, 2 ta davlat Vatikan va Falasatin kuzatuvchi-davlat maqomini oлган. Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsadlari quyidagi-lar ekanligi belgilab qo‘yildi:

- butun dunyoda tinchlikni ta‘minlash; - dunyo xalqlari o‘rtasida do‘stlik munosabatlарini rivojlan-tirish; - dunyoda ocharchilik, kasallik va savodsizlikni tugatish borasida birgalikda harakat qilish; - ekologiya halokatining oldini olish; - inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan qarashni rag‘batlantirish. BMT shtab kvartirasi (doimiy ish o‘rni) AQShning Nyu-York shahrida joylashgan. BMTga Bosh kotib rahbarlik qiladi. Dunyoning qaysi bir burchagida bo‘lmash, umumi tinchlikni xavf ostigaqo‘yadigan vaziyat yuzaga kelsa, BMT uni muhokama qiladi va tinchlikni saqlab qolish uchun zarur choralarini ko‘radi. Hozirgi kunda BMT bosh kotibi Antoniu Guterresh

### **2. Sherdor madrasasi haqida ma’lumot bering.**

Inshoot Yalangto‘shbiy Bahodir tomonidan bunyod etilgan. Sherdor madrasasi Imomqulixon hukmronligi davrida, 1619-1636-yillar oralig‘ida bunyod etilgan. Me‘moriy obidaning qurilishida bir qator ashayolar ishlatilgan, shulardan: turli xil o‘lchamdagи g‘ishtlar, loy, yog‘och, tosh, maxsus “qir” qotishmasi va shunga o‘xshash boshqa ko‘plab ashayolardan keng foydalanilgan. Madrasaning dizayni, ichki va tashqi ko‘rinishi: Sherdor madrasasining koshinlari va bezaklari faqat o‘zigagina xos, betakrordir. Madrasa tarhi to‘rburchak, 2 qavatl bo‘lgan. Bosh tarzining 2 qanotida qovurg‘ali gumbaz va minoralar joylashgan. Binoning serhashamligi shu peshtoqida, peshtoqning ikki tomonida gumbazli darsxona va masjid joylashgan. Hovli atrofidagi 2 qavatl hujralar (54 ta) va oldi ravoqli ayvon bo‘lgan. Ayvonlar yozda darsxona vazifasini o‘tagan. 1960-1964-yillarda peshtoq qanoslaridagi koshinkori naqshlar qayta tiklangan. Shuningdek, Sherdor madrasasining Peshtoq ravog‘i tepasi diqqatga sazovor: qizg‘ish zarhal sher oq ohuni quvmoqda. Quyosh bodomqovoq, qiyiq ko‘zli yuz shaklida tasvirlanib, zarhal tusli yog‘du bilan hoshiyalangan. Madrasa hovlisi va undagi hujralar ham o‘z me‘moriy yechimlari bilan Ulug‘bek madrasasidan farq qiladi. Sherdor madrasasining devorlarida uni qurgan usta-me‘mor Abdul Jabborning va me‘morchilik bezaklarini yaratgan mohir usta Muhammad Abboslarning nomlari abadiy muhrlanib qolgan. Memoriy obidaning uslubi haqida gapirar ekanmiz, O‘rta Osiyo me‘morchiligida ko‘p uchraydigan gumbazzimon, qo‘sh va “Chor” uslubidan keng foydalanilgan. Madrasaning o‘ziga xos tomonlaridan biri shundaki, me‘moriy inshoot Ulug‘bek madrasasining ro‘parasida bir o‘q chizig‘i bo‘ylab joylashgan. Madrasa masjid vazifasini o‘tagan, hozirgi kunda esa muqaddas qadamjolarimizdan hisoblanadi. Yana shuni ham aytib o‘tish kerakki, madrasa o‘z davrida qurilgan boshqa madrasalardan me‘moriy yechimi bilan ajralib turgan. Mustaqillik yillarida me‘moriy inshootda bir necha bor ta‘mirlash ishlari olib borildi. Ayniqsa, Samarqand shahrining 2750 yilligi munosabati bilan Samarqanddagi boshqa me‘moriy obidalar qatorida Sherdor madrasasi ham ta‘mirlandi. Bundan tashqari, inshoot YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi.

### **3. Turdi Farog‘iy hayoti va ijodi.**

Turdi, Turdiy (asl ismi va taxallusi; forstojik she‘rlaridagi taxallusi esa Farog‘iy) (17-asr, Buxoro - taxm. 1699/1700, Xo‘jand) - shoir. Buxoro madrasalarida ta‘lim olgan. Abdulazizzon davrida saroyning amaldorlaridan, yuz urug‘ining ko‘zga ko‘ringan siyosiy arboblaridan bo‘lgan. Subhonqulixon taxtga chiqqach, saroydan uzoqlashtirilgan. Ashtarkoniylarga qarshi 1685-86 yillarda ko‘tarilgan xalq isyonida faol ishtirok etgan. Isyon bostirilgach, Turdi Jizzax, so‘ng Xo‘jandga borib, muhtojlik va uzlusiz ma‘naviy tushkunlikda kun kechirgan. Turdi o‘zbek va fors tillarini yaxshi bilgan. «Dar mazammati sipohigari» she‘rida o‘zining asosiy kasbkori sipohiylik («harbiylik») bo‘lganini, shu kasbi bilan uzoq yillar nimalarnidir tama‘ qilib, shohlarga xizmat qilganini, lekin oxir-oqibatda hech narsaga erisha olmaganini afsus bilan ma‘lum qilgan. Lekin harbiylik bilan bir qatorda Turdi o‘z zamonasining o‘qimishli, Sharq adapiyotidan mukammal xabardor, hayot, jamiyat haqida keng tushunchaga ega kishilaridan bo‘lgan. Uning jamiyatda tutgan mavqeい esa o‘z atrofida yuz berayotgan voqeа-hodisalarga faol aralashishni taqozo etgan. Turdining adabiy merosi 18 she‘rdan iborat bo‘lib, ulardan 12 tasi g‘azal, 5 tasi muxammas va bittasi fard janriga oid. 434 misra hajmidagi bu merosning 165 misrasi Subhonqulixon haqidagi mashhur hajviyani tashkil etgan («Subhonqulixon to‘g‘risida hajviya», 1691). Turdi ham o‘z ijodini boshqa shoirlar kabi an‘anavy ishq mavzuidan boshlagan Subhonqulixon to‘g‘risidagi hajviy muxammasi Turdining shoh asari hisoblanadi. Asarda Subhonqulixon davlat tepasiga kelgach, mamlakatda ahvol yomon tomonga o‘zgarganligi, osoyishtalik o‘rnini tartibsizlik, adlu karam o‘rnimi o‘zaro nifoq egallagani o‘z aksini topgan. Shohning aybi shundaki, u taxtga o‘tirishi bilanoq tajribali, ishbilarmon mulozimlarni quvib, ularning o‘rniga o‘z atrofida davlatni boshqarish ishidan butunlay xabarsiz, fikr-mulohazalari sayoz, axloqan tuban kishilarini yig‘adi. Turdi bu asarida Subhonqulixon qiyofasida johil shoh timsolini yaratadi. Ushbu hajviy asari bilan Turdi o‘zbek hajviyotini Alisher Navoiydan keyin yangi bir bosqichga ko‘targan. Turdi ijodi hayotiy faktlarga, teran mulohazalarga boyligi va uslubining realistik xarakteri bilan o‘zbek adapiyoti rivojiga samarali ta’sir qilgan. Maxmur, Gulxaniy kabi satirk shoirlar ijodining shakllanishida muhim bosqich bo‘lgan. A. Majidiy tomonidan topilgan va 1924-25 yillarda nashr etilgan she‘rlar qo‘lyozmasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi

## 1. Salib yurishlari.

Salib yurishlari – G'arbiy Yevropa feodallarining Yaqin Sharqdagi bosqinchilik va ta-lonchilik urushlari edi. Bu yurishlar 1096–1270-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan. Sharqdagi yerkarni egallash orqali cherkov o'zining ta'sirini yanada kuchaytirishni maqsad qilgan. Sharqda XI asr oxirida vujudga kelgan vaziyat salib yurishlari uchun qulay sharoit tug'dirgan. Kichik Osiyo yarimoroli deyarli to'liq saljuqiy turklar qo'lida edi. Bu yerdan G'arb mamlakatlari ziyoratchilar Falastinning muqaddas joylariga, rivoyatlarga ko'ra, Iso payg'ambar dafn etilgan Quddusga boradigan yo'llar o'tardi. Quddus esa deyarli besh asrdan buyon musulmonlar qo'lida edi. Mahalliy hukmdorlar va aholining ziyoratchilarga munosabati yomon bo'lmasada, XI asr oxiridan boshlangan musulmon hukmdorlarining o'zaro urushlari xristianlar ziyoratlarini tobora xavfli tadbirga aylantira borgan. Vizantiya imperatori Rim papasi bilan kelishmasa-da, xristianlar dushmanlari bilan kurashish uchun jangchilar yuborishini so'rab, G'arba murojaat qiladi. Papa Urban II 1095-yilda Fransiyaning janubidagi Klermon shahrida cherkov yig'iniga to'plangan minglab ruhoniyalar, ritsarlar va oddiy xalq vakillari huzurida nutq so'zlaydi. U Quddusdag'i «payg'ambar qabrini» musulmonlardan ozod etishga chaqiradi. Papa yurishda ishtirok etganlarga ularning gunohlari kechirilishini, halok bo'Iganlar ruhining jannatga – «arshi-a'loga» tushishini va'da qiladi. Urban II «muqaddas yer»ning boyliklari va hosildor ekanligini ham eslatib o'tadi. Falastinda «sut va asal daryo bo'lib oqishi, Quddus yerning kindigi, jannatmakon hosildor yerli o'lka» ekanligini ta'kidlaydi. Bu so'zlarni xaloyiq «Xudoning irodasi shu!», «Xudoning xohishi shu!» kabi hayqiriqlar bilan qarshilaydilar. Ular matodan «but», ya'ni «salib»ning aksini qirqib, o'z kiyimlariga tika boshlaydilar. Ayni shu sababli yurish qatnashchilari «salibchilar», yurishlarning o'zi esa «salib yurishlari» nomini oladi. Dehqonlar salib yurishlarda qatnashish orqali o'zlarining og'ir hayotidan qutulib, Sharqda mulkka va baxtli hayotga erishishga umid qilganlar. Salibchilarning ko'pchiligidagi, asosan, ritsarlar tashkil etib, aksari boy bo'lmagan xonadonlardan edilar. Oilaning kichik o'g'illari, mayorat tizimi bo'Iganidan, ya'ni meros katta o'g'ilga qoldirilgani sababli, otonalari merosining katta qismiga umid qilmasalar ham bo'lardi. Bu holatdagi ritsarlar o'zlariga shon-shuhrat va boylik istab yo'l ga chiqqanlar. Gersoglar, graflar va hatto ayrim qirollar hamda imperatorlar ham Sharqqa jo'naydilar. Ular o'zlariga yangi hu dudlar va fuqarolarni bo'ysundirishni maqsad qilganlar. Qo'shin bilan savdogarlar ham yo'lga chiqib, ular Sharq mollari bilan savdo qilish orqali tez boyib ketishni orzu qilganlar. Albatta, salib yurishi ishtirokchilari faqat foydani o'ylagan desa xato bo'ladi. Moddiy manfaat ularda «payg'ambar qabri»ni musulmonlardan xalos etish muqaddas ish ekanligiga ishonch bilan mujassamlashgan. Birinchi salib yurishlariga Fransiya, Italiya va Germaniyaning turli viloyatlaridan kelgan ritsarlar to'plangan. Ular yaxshi qurollangan, zarur ozuqa va pul bilan ta'minlangan edilar. Vizantiya poytaxti Konstantinopolda 1096-yilning kuzidan to'plana boshla gan ritsarlarga imperator Aleksey I vassallik qasamyodini qabul qildirgan. Ya'ni Yaqin Sharqda tuzilajak xristian davlatlari Vizantiyaga siyo siy qaram bo'lishi lozim edi. Yurishlar Suriya bilan Falastinda salibchilarning o'z davlatlarini tuzishi bilan yakunlanadi. Ularning ichida Quddus qirolli salibchilarning asosiy davlati edi. Salibchilar Quddusni egallashda birgina jome masjidida 10 ming musulmonni o'ladir. Yahudiylar o'z sinagogasi (ibodatxona)da yondirib yuboriladi. Qirg'in paytida ko'plab ayollar va bolalar ham halok bo'ladi. Shaharliklar uyiga bostirib kirgan ritsar eshikka qalqonni osib qo'yari va bu uy barcha jihozlari bilan yangi xo'jayinga o'tganligini anglatar edi. Musulmon hukmdorlar Sharq va Janub tomonidan salibchilarni siqib kelmoqda edi. Ularga qarshi kurashish uchun Yevropa feodallari ikkinchi salib yurishini uyuştirdilar. Ikkinchi salib yurishi XII asr o'rtalarida bo'Igan. Fransiya qiroli o'z qo'shini bilan ishtirok etgan bu yurishlar muvaffaqiyatsiz tugagan. Musulmonlar tez orada kuchli davlat tuzadi. Misr sultonni Salohiddin Ayubiy 1187-yilda salibchilardan Quddusni tortib oladi. Bu voqeя Yevropada 3-salib yurishlari (1189–1192) tashkil qilinishiga olib keladi. Ammo german imperatori, Fransiya qiroli va Angliya qiroli ishtirokida bu yurishlar ham muvaffaqiyatsiz tugaydi. To'rtinchali salib yurishlari (1202–1204). XII asr oxirida papa Innocentiy III yangi salib yurishlarini tashkil etishga kirishadi. Salibchilar qo'shinni Venetsiya bilan dengiz orqali kemalarda Falastinga olib o'tishga kelishib, 85 ming kumush marka pul to'lashni zimmalariga ola dilar. Kelishilgan pulning deyarli 1/3 qismini to'lay olmagan salibchilar yurishlar boshlanishidanoq Venetsianing savdodagi asosiy raqibi Vizantiyaga qarshi urush bosh lashga majbur bo'ladi. Urush boshlash uchun esa ukasi tomonidan taxtdan tushirilib, ko'ziga mil tortilgan Isaak II Angelga toj-u taxtni qay tarish bahona bo'ladi. To'rtinchali salib yurishi qatnashchilari hisoblangan ritsarlar qo'shini Konstantinopol devorlari ostiga kelib tushadi va 1204-yilda shaharga hujum boshlaydi. Yigirma minglik qo'shin yarim million aholisi bo'Igan shaharni egallashga muvaffaq bo'ladi. Konstantinopol asos solinganidan buyon ilk bor dushman o'ljasiga aylanadi. So'nggi salib yurishlari Yaqin Sharqdagi vaziyatni o'zgartira olmaydi. Fransiya qiroli Lyudovik IX ning 1269–1270-yillardagi sakkizinchali salib yurishlari so'ngisi bo'ladi. Ko'p o'tmay salibchilarning Sharqda mulklari birin-ketin musulmonlar qo'liga qaytadi. Salib yurishlari to'xtatilishining asosiy sababi XIII asrning oxiridan G'arbiy Yevropa mamlakatlarida boshlangan o'zgarishlar bo'ladi. Ishlab chiqarish kuchlari o'sadi. O'rmonlar kesilib, ekinzorlarga aylantirila boshlaydi. Qishloq aholisining yersiz bir qismi tobora yuksalayotgan shaharlarga ketadi. Qirol hokimiyatining kuchaya boshlashi va mamlakatni markazlashtirish siyosati ritsarlarga qirol qo'shinda xizmat qilish imkonini yaratadi. Savdogarlar tinch yo'l bilan savdo-sotiq olib borishning afzalligiga yana bir bor ishonch hosil qiladilar. Salib yurishlari o'zining asosiy, ya'ni Sharqda kuchli xristian davlatini yaratish maqsadiga erisha olmaydi. Unda qatnashgan 100 minglab kishilar halok bo'lib, katta moliyaviy zarar ko'rildi.

## 2. Misr piramidalari haqida ma'lumot bering.

Qadimgi va O'rta podsholiklar davrida misrlıklar barpo etgan ulkan piramidalari, (fi r'avnlar dafn etiladigan joy) – maqbaralar bo'Igan. O'tgan ming yilliklar davomida ko'pdan ko'p shaharlar va davlatlar yo'q bo'lib ketdi, ibodatxonalar va saroylar xarobaga aylandi. Faqat piramidalar vaqtidan qo'rqlaydi. Faqat piramidalargina to'rt ming yildan oshiq vaqt davomida o'zgarmasdan turibdi. Eng mashhur piramidalar Memfis shahri yaqinida uch fir'avn – Xufu, Xafra va Menkaura uchun bunyod etilgan. Bu piramidalar jahonning yetti mo'jisidan biri bo'lib, ular hozirga qadar saqlanib qolgan birdan-bir inshootlardir. Eng katta piramida Xufu uchun (yunonlar uni Xeops deb atashgan) mil. avv. 2600-yil atrofi da qurilgan. Uning balandligi 147 metr bo'Igan. Piramidalar qurilishi uchun toshlar Nil daryosining o'ng sohilidagi yassi tog'lardan olib kelingan. Piramida har biri ikki tonnadan og'irroq bo'Igan 2,5 million dona tosh bo'laklaridan tashkil topgan. Eng kichik toshning og'irligi 2,5 tonna bo'Igan. Ehrom toshlariga shunday ishlov berilginki, birining ustiga ikkinchisi qo'yilganda ular judayam zich yopishib turgan. Piramida ichida dahliz bilan tutashtirilgan bir qancha xonalardan iborat bo'Igan. Ulardan birida fir'avnning mumiyolangan jasadi solingen toshtobut – sarkofag joylashgan. Daxmalar ichi devorlari esa munojotlar va qarg'ishlardan iborat bitiklar bilan qoplangan. Ular fir'avnni himoya qilishi va o'zga hayotga o'tayotganida unga yordam berishi nazarda utilgan. Piramidalarni sfinks – tanasi sherniki va boshi odamniki bo'Igan ulkan

haykal qo'riqlaydi. «Sahro shohi» – sfinks haykali toshdan ishlangan bo'lib, uning balandligi 20 metrga teng. Yangi podsholik davriga kelib ehrom qurmay qo'yishdi. Fir'avnlarni tog'larga o'yilgan tosh maqbaralarga dafn etadigan bo'lishdi. Eng mashhur maqbara fir'avn Tutanxamonga tegishli bo'lgan. Maqbara ichidagi tasavvurga sig'maydigan boyliklar bizga qadar yetib kelgan.

### 3. Mohlaroyim – Nodira hayoti va ijodi.

O'zbek shoirasi- ma'rifatparvar davlat arbobi Mohlaroyim - Nodira (1792-1842) Andijonda tug'ilgan. Otasi Rahmonqulibiy Andijon hokimi bo'lib, Qo'qon xoni Olimxonning tog'asi edi. Umarxon Marg'ilonga hokim etib tayinlanganidan keyin Nodiraga uylan-gan. Nodira Uvaysiy bilan tanishgach, uni yosh bolalar va kanizaklarni o'qitish uchun muallimlikka taklif etadi. Nodira o'g'li Muhammad Alixon taxtga o'tirgach, davlatni idora etishda faol ishtirok etadi, madrasalar qurdiradi. Nodira olimlar, xattot va naqqoshlarni Qo'qonga to'plagan, ko'p kitoblarni qayta ko'chirtirgan. Kitob muqovasining did bilan ishlanishiga e'tibor beradi. Yaxshi xattotlarga, naqqoshlarga tilla qalam, kumush qalamdon sovg'a qilgan. Nodiraning o'zi ham o'zbek, ham tojik tillarida ijod qilgan. Mohlaroyim Nodira taxallusida 180 she'r jamlangan devon, Komila taxallusida 19 g'azal, Maknuna taxallusida 333 g'azaldan iborat devon yozgan. Nodiradan 10 ming misraga yaqin link adabiy meros qolgan. Uning she'riyati asosini lirika tashkil etadi. She'rlarida muhabbat, sadoqat, mehr-vafo, ayni paytda, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, oh-fiq'onlari kuylanadi. Bundan tashqari, Nodira Navoiy, Fuzuliy va Bedil g'azallariga muxam-maslar ham yozgan. 1842-yilda Amir Nasrullo qo'shinlari Qo'qon egallagandan so'ng, amir farmoniga ko'ra Nodira qatl etiladi.

## 22-bilet

### 1. SSSRning tashkil topishi.

1922-yili amalga oshirilgan muhim tadbirdardan biri SSSRning tashkil topishi bo'ldi. Millatlarning o'z huquqini o'zi belgilash tamoyi lidan kelib chiqib, barcha respublika lar federativ davlatga teng huquqli a'zo bo'lib kirdilar. Natijada, 1922-yil 30-dekabr kuni sobiq Rossiya imperiyasi hududida Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR) tash kil qilindi. Bu yangi davlatda eski jamiyat ning asoslari buzib tashlandi, «davlat sotsi alizmi» (davlatning iqtisodiyot ga va ijtimoiy munosabatlarga aralashuv) o'rnatildi va iqtisod, jamiyat, davlat misli ko'rilmagan sur'atlarda isloh qilindi. Sovet tipidagi «davlat sotsializmi» jamiyatni industr lashti rishning kapitalistik usuliga muqobil yo'l edi. Dastlab SSSRga Rossiya, Ukraina, Belorusiya va Kavkazorti respublikalari kirdilar. 1924-yili davlatning birinchi konstitutsiyasi qabul qilindi. 1924-yili Kavkazorti va O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tka zilib, milliy sovet respublikalari tashkil qilindi. Shu yillari SSSR Yevropa davlatlari tomonidan, 1933-yili oxirgi yirik davlat – AQSH tomonidan tan olindi. SSSRning 1-davlat rahbari Iosif Vissarionovich Jugashvili (Stalin) bo'lgan.

### 2. Registon ansambl haqida ma'lumot bering.

Registon deyilganda Sharq mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham shaharning markaziy maydoni tushunilgan. Tarixda bunday maydonlarda turli tadbirlar - bayramlar, sayllar, tomoshalar o'tkazilgan. Maydon o'yilib ketmasligi uchun uning ustiga mayda tosh yotqizilgan. Keyinchalik Registon maydonida Ulug'bek, Sher dor va Tillakori madrasalaridan iborat me'moriy majmua bunyod etildi. Ulug'bek madrasasi XV asrda qurildi. U ikki qavatli bo'lib, atrofi hujra va darsxonalar bilan o'ralgan. Madrasalarning qolgan ikkitasi - Sher dor va Tillakori madrasalarini XVII asrda Samarcand hokimi Yalangto'sh Bahodir qurdirgan. Sher dor madrasasi Ulug'bek madrasasining ro'parasida joylashgan. Madrasa to'rt burchakli va ikki qavatli qilib qurilgan. Peshtoqqa qizg'ish zarhal tusli sher oq ohuni quvib borayotgani tasvirlangan. Quyosh esa bodomqovoq, qiyiq ko'zli qilib tasvirlangan. Peshtoqning ikki tomonida gumbazli darsxona va masjid joylashgan. Tillakori (tilla bilan ishlangan) madrasasi dastlab Yalangto'shbiy kichik madrasasi deb nomlandi. Madrasa binosidan o'rinn olgan

masjidning bezagiga ko'p miqdorda oltin sarflangani uchun madrasa Tillakori nomini oldi. Samarcand shahrining 2750 yilligi munosabati bilan Tillakori madrasasida ham katta ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda Registon maydonida mashhur «Sharq taronalarini» xalqaro musiqiy festivallari o'tkazilib kelinmoqda.

### 3. Amir Umarxon hayoti va faoliyati.

Umarxon, Amir Umarxon, Amiri (1787- Qo'qon - 1822) - Qo'qon xoni (1810-1822), zullisonayn shoir. Norbo'tabiyning o'g'li. O'zbeklarning ming urug'idan. Boshlang'ich savodini oilada chikarib, keyin madrasada tahsil olgan. Yoshligidan saroy xizmatiga jalb qilingan: akasi - Qo'qon xoni Olimxonning davlatni boshqarish ishlari faol ishtirok etgan. Olimxon 1807-08 yillarda unga Farg'ona hokimligini topshirgan. Shu yillarda u Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim (Nodira)ga uylangan. Hokim tabaqalar Olimxonning Toshkentda ko'tarilgan g'alayonni bostirish uchun qo'shin tortganligidan foydalananib, fitna uyuştiradilar va 1810 yil Umarxonni xon qilib ko'taradilar, Olimxon esa o'ldiriladi. Umarxon Qo'qon xonligi hududini kengaytirish, hokimiyatni mustahkamlash siyosatini olib boradi. Buxoro amiriga qarashli Turkiston shahri (1815), O'rategpani (1817) bosib olgan. Sirdaryo bo'yidagi yerlarda Yangiqo'rg'on, Julek, Qamishqo'rg'on, Oqmachit, Qo'shqo'rg'on nomli harbiy istehkomlar qurdirgan. Ular O'rta Osiyoni Rossiya bilan bog'laydigan muhim savdo yo'lida joylashgan edi. U Rossiya bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishga harakat qilgan. Umarxon davrida Qo'qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, Avliyooqada masjid va madrasalar qurilib, qabristonlar tartibga keltirilgan. Shahrixon shaharchasi barpo etilgan, yangi qishloqlar vujudga kelgan. Xon amaldorlarining talonchilik siyosatiga qarshi Chimkent va Sayramda ko'tarilgan qo'zg'olon bostirilgan. 19-asrning 1-yarmida Qo'qonda o'ziga xos ilmiy-madaniy muhit vujudga kelgan - uning boshida turgan ma'rifatparvar hukmdor Umarxon ilm, madaniyat, san'at, adabiyot, turli kasb-hunarlarning rivojiga katta e'tibor bergen, madrasalarda o'qisho'qitish ishlarni yaxshilagan, turli hunar maktablari ochilishini qo'llab-quvvatlagan. O'zi ham Amiri taxallusi bilan she'rlar yozgan. Uning atrofida 70 dan ortiq shoir yig'ilgan. 1821 yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriga binoan, 63 shoirning she'rini o'z ichiga olgan «Majmuai shoiron» to'plamini tuzgan. Uni ulug'lab qasidalar yozish, g'azallariga tatabbu'lar bog'lash bu shoirlar ijodida yetakchi o'rinn tutgan. Umarxon Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedilni o'ziga ustoz sanab, ulardan ijod sirlarini o'rgangan, ularga ergashib ijod qilgan, g'azallariga muxammalar bog'lagan. Aruzning turkiy adabiyotda mashhur, xalq ijodida ham keng tarqalgan yengil va o'ynoqi vaznlaridagina yozilgan bu she'rlarning barchasi ishqu muhabbat mavzuida. Ularda an'anaviy motivlar va tasavvufiy ruh ustun. O'zbek va fors-tojik tilidagi she'rlarini to'plab, devon tartib bergen. Devon g'azal, muxammal, musaddas, tuyuq janrlaridagi 10 ming misradan ortiq she'rni o'z ichiga olgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining matnshunoslik va yozma yodgorliklarni nashr etish bo'limining ilmiy xodimlari tomonidan Umarxonning turli davrlarda ko'chirilgan 26 ta qo'lyozma devoni hisobga olinib, ularning ilmiy tavfsifi berilgan. Bu qo'lyozmalar Sankt-Peterburg, Toshkent, Samarcand va Buxoro kutubxonalarida saqlanadi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida Umarxonning 17 ta qo'lyozma devoni mavjud. Bundan tashqari,

litografik usulda chop etilgan devonlari va shoir she'rlaridan namunalar berilgan bayozlar bor. Uning g'azallar devoni 1882-yilda Istanbulbulda, 1905-yilda Toshkentda chop etildi.

## 23-bilet

### 1. Amir Temurning Movarounnahrni egallashi.

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. Amir Temur o'z zamonining bunday talabini boshqa amirlarga nisbatan yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham u markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u oqsoqollar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Amir Temur bu ulkan maqsadini ro'yobga chiqarish ishini avvalo ichki g'anim lariga qarshi kurashdan boshlaydi. 1370-yilning bahorida Amir Temur butun qo'shinlari bilan kuchli raqib – Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yo'lga chiqadi. Qo'shin Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'iga yetganida uning huzuriga taniqli ulamolardan Sayyid Baraka tashrif buyuradi. Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga Olyi hokimiyat ramzi nog'ora bilan bayroq tortiq qilib, uning buyuk kelajagidan bashorat qiladi. Bu voqeа, shubhasiz, siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki nog'ora bilan bayroq, musulmonlar odatiga ko'ra, toj-taxt ramzi bo'lib, uni olyi martabali ruhoniyning qo'lidan olish tez orada uning toj-taxt va sultanan egasi bo'lishligiga ishora edi. Amir Temur qo'shini to Balxga yetib borgunicha, yo'l yo'lakay unga yangi-yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Bu paytga kelib Amir Husaynning ko'pchilik amirlari uni tark etadilar. Jangda Amir Husayn qo'shinlari yengiladi, ikki kunlik qamal dan so'ng, 1370-yilning 10-aprelida Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ladi. Amir Husayn qatl etiladi. 11-aprel kuni bo'lib o'tgan qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi Amir Temur taxtga o'tirgach, Chig'atoj ulusining barcha yerlariga o'zini voris deb bildi. Sohibqiron Sirdaryoning quyi havzasidagi yerkarni, Toshkent viloyatini, Farg'ona vodiyini va Xorazmni o'z hukmronligi ostiga kiritdi. Amir Temur 1372-yildan boshlab Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi va Xorazm 1388-yilda uzil-kesil bo'ysundirildi. 1381-yilda Hirot, Seyiston, Mozandaron egallandi.

Shundan so'ng Saraxs, Jom, Qavsiya, Sabzavor shaharlari jangsiz Amir Temurga bo'ysundi va uning tasarrufiga o'tdi.

Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni birlashtirib, yirik markazlashgan davlat tuzdi.

### 2. Qadimgi greklarning quyosh xudosi Gelios haykali haqida ma'lumot bering.

Miloddan avvalgi III asorda Rodos shahri aholisi shaharning bir yillik qamaldan xalos bo'lganligi sharafiga shahar homisi Quyosh xudosi Geliosning haykalini yaratishga qaror qildilar. Balandligi 35 metr bo'lgan bu haykal misdan ishlandi. Haykal haykaltarosh Xaros tomonidan 12 yil davomida bunyod etilgan. Haykal Quyosh xudosi Geliosning boshi Quyoshga tegib turgandek tasvirlangan.

### 3. Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyati.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda «O'rta Osiyo jadidlarining otasi» deb tan olingen Mahmudxo'ja Beh-budiy (1875-1919)ning xizmati katta bo'ldi. U 1875- yilning 19-yanvarida Samarcand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab Samarcand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko'tarildi. Behbudiy Ocrta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yolboshchisi edi.

Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shaxs hisoblanadi. Behbudiyning tashabbusi bilan o'z otasi sharafiga «Behbudiya kutubxonasi» deb atalgan kutubxona tashkil qilingan.

## 24-bilet

### 1. Spitaman qo'zg'oloni.

Miloddan avvalgi 329-yilda yunon-makedonlar Maroqandani egalladi. So'g'diyona xalqi bosqinchilarga qarshi kurashga chiqadi. Tez orada so'g'diyalarga baqtriyaliklar va saklar qo'shiladilar. Qo'zg'olonga iste'dodli tashkilotchi va harbiy yo'lboschchi Spitaman boshchilik qiladi. Ancha qo'shin to'plagan Spitaman Maroqandani qamal qildi. Aleksandr qamalda qolganlarga yordamga uch mingga yaqin jangchidan iborat qo'shin jo'natadi. Qadimda «Politimet» deb atalgan Zarafshon daryosi bo'yida makedonlarga pistirma qo'ygan Spitaman dushman guruhini tamomila qirib tashlaydi.

Shunda Aleksandrning o'zi qo'zg'oloni bostirishga otlanadi. Yunonlarning katta kuchlari yaqinlashib kelayotganidan xabar topgan Spitaman qamalni to'xtatadi va o'z qo'shinlarini sahro sari boshlab ketadi. Saklarga qarshi kurash uchun Aleksandr Sirdaryo bo'yida, Xo'jand yaqinida qal'a barpo etish to'g'risida buyruq beradi. Bu qal'a Aleksandriya Esxata (Chekka Aleksandriya) deb ataldi. Aleksandr Maroqandada maxsus harbiy qo'shin qoldirib, asosiy qo'shinlari bilan qishlash uchun Zariasp (Baqtra)ga jo'nadi. O'sha yilning bahorida Aleksandr qo'zg'oloni bostirish chorasini ko'radi. O'z lashkarlarini uch qismga bo'lib, So'g'diyonani u boshidan bu boshigacha kezib chiqadi va tinch aholini qirib tashlaydi. Mil. avv. 328-yil kuzida Spitamanning Aleksandr bilan hal qiluvchi jangi bo'lib o'tadi. Kuchlar teng bo'limganidan Spitaman yengilib, yana cho'lga chekinadi. O'sha yerda u xoinlarcha o'ldiriladi.

### 2. Konstantinopoldagi Muqaddas Sofiya ibodatxonasi haqida ma'lumot bering.

Ayo Sofiya (Avliyo Sofiya) ibodatxonasi Istanbuldagи me'moriy yodgorlik. Vizantiya me'morligining buyuk mahobatli yodgorligi (532-537). Me'morlari trallik Anfimiy va miletlik Isidor. Ibodatxona tarhi 3 neflк gumbazli bazilika shaklida bo'lib, yon neflari 2 qatlamlı, gumbazi yarim aylanasimon. O'rta nefi keng va baland, tomi ulkan gumbaz bilan qoplangan. Ibodatxona uz. 77 m, gumbaz diametri 31,5 m. Gumbazi 4 ustunga hamda bag'alidagi ravoqlarga tayangan. Gumbaz asosiga 40 ta deraza ishlangan. Interyerida order tizimi (kolonnada, ravoq va b.) dan foydalanilgan. Rangli marmar va koshinlar bilan serhasham bezatilgan. 6-a.da vayron bo'lgan gumbazi 1374 y.da kichik hajmda qayta tiklangan. 4 tomoniga nayzasimon minora ishlangan (16-18-asrlar). Hozirda muzey

### 3. Kamoliddin Behzod hayoti va faoliyati.

Kamoliddin Behzod (1455-1536) XV asr tasviriy san'atining ulug' namoyandasidir. U musavvirlikda "Hirot maktabi" deb nomlangan yangi bir ijodiy uslubning asoschisi bo'ldi. Behzod o'z davrida Moniyi Soniy (Ikkinchи Moniy) deb ulug'langan. U ustoz san'atkori sifatida O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalar tasviriy san'atining

taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi. Behzodning ijodi xilma-xil mazmunga ega bo'lib, u tarixiy siymolar (Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Alisher Navoiy) portretlaridan tortib to serjilo hukmdor saroylaridagi qabul marosimlari va jang maydoni manzaralarigacha haqqoniy va ta'sirli qilib bera olgan.

Dehlaviyning "Layli va Majnun" dostoniga bag'ishlangan uning lirk manzaralari yoki Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari uchun chizilgan jang maydonidagi shiddatli jang tasvir etilgan miniaturalari nihoyatda jozibador va ta'sirchandir. Behzod an'analari keyingi davr rassomlari ijodiga ijobiy ta'sir ko'r satdi. Uning ijodi va mero si san'atshunoslar, rassomlar tomoni dan keng o'rganiladi. Behzod nomini abadiylashtirib, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1997-yil 23-yanvardagi farmoniga binoan Kamoliddin Behzod nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi, Milliy rassomlik va dizayn institutiga Behzod nomi berildi. 2000-yil noyabrda Toshkent, Samar qand shaharlarda va xorijiy mam lakatlarda YUNeSKO homiyligida Behzod tavalludining 545 yilligi keng nishonlandi, Toshkent shahrida Behzod nomidagi memorial bog' barpo etildi. Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzevida Behzodga bag'ishlab Buyuk Britaniya, Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Tojikiston va O'zbekiston san'atshunos olimlari ishtirokida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi.

## 25-bilet

### 1. Solon islohotlari.

Afina davlatida xalq aslzodalar hukmronligidan norozi edi. Xalqning ahvoli tobora yomonlashaverdi, shunda odamlar o'z haq-huquqlari uchun kurashga bel bog'ladilar. Ular zodagonlarning uy-qo'rg'onlariga hujum qila boshladilar. O'z yeri va jonidan xavotirlangan zodagonlar yon berishga va xalq talablarining bir qismini bajarishga majbur bo'lishadi. O'ta bilimdon va tajribali Solon degan zodagon, xalqqa yon berishning qattiq tarafdoi bo'lган. Zodagonlar Solonga ishonishdi va uni Afina hukmdori etib saylashdi. Mil. avv. 594-yilda Solon davlatni idora qilishning oldingi tizimini o'zgartirdi. Avvalgi boshqaruva tizimi – aristokratiya (aslzodalar hokimiyati)ni demokratiya (xalq hokimiyati)ga almashtirdi. Davlatni boshqarishda faqat erkak fuqarolar ishtirok eta olardi. Ayollar va chet elliklar (ularni meteklar deyishgan) qabul qilinayotgan qonunlar muhokamasida va ovoz berishda ishtirok eta olmasdilar. Solonning taklifi bilan dehqonlarning qarzları va qarzdorlarni qul qilish bekor qilinadi. Davlat boshqaruvidagi islohotlar Xalq majlisи faoliyati tiklanishi va nasl-nasabidan qat'iy nazar afinaliklar uchun ham davlat mansablarini egallash imkoniyatini ko'zda tutar edi.

### 2. Ma'buda Artemida ibodatxonasi haqida ma'lumot bering

Ma'buda Artemida sharafiga Efes shahrida (bu shahar hozir Turkiya davlati hududida joylashgan) ko'rganlarni lol qoldiradigan ibodatxona qurilgan. Afsonalarga ko'ra, Artemida Zevsning qizi bo'lган. U hosildorlik, ov va Oy ma'budasi edi. Ayni paytda hayvonlar homisi, Ma'buda Artemida shuningdek, ayollar madadkori ham ibodatxonasi. hisoblangan. Artemida ibodatxonasining tomini qoyatoshlardan ishlangan 18 metrli ustunlar suyab turgan. Ibodatxona ichiga yunon rassomlarining ajoyib asarlari joylashtirilgan. Mil.av. 365-yilda Gerostrat ismli shaxs shuhrat qozonish maqsadida ibodatxonaga o't qo'yib, uni yoqib yuboradi.

### 3. Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyati.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394 yil 22 mart, Sultoniyah shahri, Eron Ozarbayjoni - 1449 yil 27 oktyabr, Samarcand) o'zbek xalqi tarixida buyuk astronom va matematik, davlat arbobi sifatida iz qoldirgan. Shohruxning o'g'li, Amir Temurning nabirasidir Sohibqironning "besh yillik yurish"ida (1392-96) Iroqdag'i Mordin qal'asini qamal qilish chog'ida tug'ilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulug'bekning tug'ilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo'lishini bashorat qilganlari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal'asi qamalini to'xtatib, uning xalqiga yuklangan to'lovni bekor qiladi. Uning o'z nabirasiga Muhammad Tarag'ay va Ulug'bek deb ism qo'yganini ham munajjimlarning yuqoridaq bashorati bilan bog'lash mumkin. Amir Temur Ulug'bek tarbiyasiga alohida e'tibor bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirdorda qatnashirgan. Klavixoning qayd etishicha, Ulug'bek bobosining xorijiy elchilarini qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan. 1404 yil Konigilda o'tkazilgan tantanalarda Amir Temur oltita nabirasining (jumladan, Ulug'bekning) nikoh to'ylarini o'tkazgan. To'nda Sohibqiron Ulug'bekka Toshkent, Sayram, Yangi (hoz. Taroz), Ashpara va Mo'g'ulistonni to Xitoy hududigacha suyurg'ol qilib bergan. Amir Temur O'trorda vafot etgan chog'da Ulug'bek ham o'sha yerda bo'lgan. Temuriylar o'rtasida toju taxt uchun kurash boshlangan. O'trordan qaytgan Shohrux farzandlari - Ulug'bek va Ibrohim Sultonni amirlar poytaxt Samarcandga kiritmaydilar, ular Buxorodan panoh topishgan. Samarcand taxtini Xalil Sulton egallagan. Xurosonni boshqarib turgan Shohrux Ulug'bekka dastlab Andxo'y bilan Shibirg'onne, keyinchalik Xurosning Tus, Xabushon, Kalot, Bovard, Naso, Yozir, Sabzavor va Nishopurdan iborat qismini boshqarishni topshirgan. 1410 yil Shohrux Movarounnahri o'z tasarrufiga kiritgach, uni idora etishni Turkiston viloyati bilan birga Ulug'bekka topshirib, Sohibqiron vasiyatini qayta tiklagan. Ulug'bek yosh (15 yosh) bo'lGANI sababli amir Shohmalik unga homiy etib belgilangan. Lekin Shohmalikning raqibi - O'trordagi Shayx Nuriddin va Muhammad Jahongirning Hisordagi voliyları 1410- yil bahorida Ulug'bek va Shohmalikka qarshi chiqqanlar. Shu yilning yozida Shohrux ishtirokida bo'lgan jangda Shohmalik va Ulug'bek g'alaba qilganlar. 1411 yil sentabrdaga Shohrux Samarcandga kelib, Shohmalikni o'zi bilan Hirota olib ketgan va keyinchalik Xorazmga hokim qilib yuborgan (1413). Shu vaqtidan boshlab Ulug'bek Movarounnahri mustaqil idora etishga kirishgan. Shohrux Movarounnahrda boshqa temuriy shahzodalarga ham mulk ajratgan edi. Chunonchi, Hisori Shodmonni Muhammad Sultonning o'g'li Muhammad Jahongir mirzoga, O'zgand viloyatini Umarshayxning o'g'li Amirak Ahmadga suyurg'ol qilgan edi. Biroq ular Ulug'bekka tobe edilar. 1414-15 yil ular o'rtasida ixtilof chiqqib, Ulug'bek Amirak Ahmad ustiga qo'shin tortgan va uni yenggan. Shohrux Amirak Ahmadni Xurosonga chaqirtirib olgan; Qashg'ar ham to 1428 yilgacha Ulug'bekka tegishli bo'lgan. Ulug'bek o'z hukmronligi davomida 2 marta yirik harbiy yurish qilgan. Birinchisida 1425 yil Mo'g'uliston xoni Shermuhammad o'g'lon (1421-1425) o'zini mustaqil xon deb e'lon qilganda, Ulug'bek unga qarshi yurish qilib zafar qozongan. Ulug'bekning 2-yurishi Sig'noq shahri tomon bo'lgan. Sirdaryoning quyi havzasasi Ulug'bek tasarrufida edi. Ulug'bek 1427 yil Sig'noq yaqinida uning mulkiga tahdid qilgan Baroq o'g'lon bilan to'qnashgan va mag'lubiyatga uchragan. Dushman Ulug'bekni ta'qib qilib, Samarcand ostonalariqacha kelgan. Movarounnahr xavf ostida qolganligi tufayli Shohrux Xurosandan katta lashkar tortib kelib xavfni bartaraf etadi.

Shohrux vafoti (1447, 12 mart)dan keyin Ulug'bekning katta o'g'li Abdullatif voris sifatida Temuriylar hukmdori bo'lib qoladi. Lekin Shohruxning qattiqko'l xotini Gavarshod begin bu haqda o'z fikriga ega edi. U Shohrux davrida Temuriylarning poytaxti bo'lib qolgan Hirota taxtiga marhumning 3-o'g'li bo'lmish Boysung'ur mirzoning o'g'li va suyukli nabirasi Alouddavla mirzoni o'tqazish

tarafdori edi. Gavharshod begim Hirot taxtiga Alouddavlani o'tqazganini Ulug'bekka nisbatan isyon deb qaralmog'i kerak edi. Shuning uchun Ulug'bek 1448 yil bahorida Abdullatif bilan birligida 90 ming askar bilan Xurosonga kelib, Hirot yaqinida bo'lган jangda Alouddavlani tor-mor qiladi. G'alaba Abdullatifning shaxsiy shijoati va lashkarboshilik iste'dodi tufayli erishilgan bo'lsa ham, Ulug'bek fathnomani kichik o'g'li Abdulaziz nomidan e'lon qiladi. Undan tashqari, bobosi Shohruk tomonidan Abdullatifga vasiyat qilingan Hirotdag'i Ixtiyoriddin qal'asi va uning ichidagi boyliklarini ham Ulug'bek Abdulazizga beradi. Shundan so'ng Ulug'bek bilan Abdullatif o'rtasidagi munosabat ochiq dushmanlik tusini oladi. Ulug'bek Samarqandda Abdulazizni qoldirib, lashkar bilan katta o'g'liga qarshi jangga yuradi. Abdullatif ham o'z lashkari bilan Amudaryo yoqasiga kelib turadi. Ikkala lashkar ham daryoning 2 sohilida uzoq muddat turib, suvni kechib o'tishga botinmaydi. Bu orada Ulug'bek, Abdulaziz lashkardagi amirlarning oilalarini ta'qib etayotir, - degan xabarni eshitib, Samarqandga qaytib kelishga majbur bo'ladi va shahar aholisining Abdulazizga qarshi isyon ko'targanining guvohi bo'ladi. Tezda shaharni tartibga keltirib, yana Abdullatifga qarshi jangga yo'llanadi, lekin Samarqand yaqinida undan mag'lubiyatga uchraydi. Oradan ko'p o'tmay, Ulug'bek Abdullatif buyrug'i bilan qatl etiladi. Uning jasadi Go'ri Amir maqbarasiga dafn etilgan. Ulug'bek otasi Shohruk davrida siyosiy hukmdor sifatida ichki va tashqi siyosat bobida birmuncha mustaqil bo'lgan. Boshqa davlatlar bilan bevosita savdo va elchilik munosabatlari olib borgan. Ulug'bek davrida Samarqand shahri yanada ravnaq topgan. Shaharda hunarmandchilik, me'morlik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksaldi, savdo taraqqiy etdi. Buxoroda (1417), Samarqandda (1420), G'ijduvonda (1432-33) madrasalar va Marvda xayriya muassasalari qurildi. Madrasalarda diniy fanlar bilan birga dunyoviy fanlar ham o'qtildi, ko'proq aniq fanlarga ahamiyat berildi. Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohizinda va Registon majmualari qurilishlari poyoniga etkazildi. Bundan tashqari, mamlakatda ko'plab jamoat inshootlari (karvonsaroy), tim, chorus, hammomlar va boshqa ham bunyod etilgan. Ulug'bek O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo fanining eng yuqori pog'onasiga olib chiqdi. Uning qilgan eng buyuk ishi - Samarqand ilmiy maktabini o'sha davr akademiyasini barpo etganligi bo'lди. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan. Ular orasida eng yiriklari Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy edi. Ulug'bekning ilmiy maktabi o'z faoliyatida o'rtaosiyolik mashhur olimlar Muhammad Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abul Abbas al-Javhariy, Ibn Turk al-Xuttaliy, Xolid al-Marvarrudi, Ahmad al-Marvaziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniylar boshlab bergan ilmiy an'anaga asoslanar edi. Ulug'bek Samarqand yaqinida rasadxonalar qiladi. Ulug'bek akademiyasidagi yirik olim - Ali Qushchini Ulug'bek "Ziji"ning so'zboshisida "farzandi arjumand", ya'ni "aziz farzandim" deydi. Aslida u Ulug'bekning sadoqatli shogirdi bo'lib, "Ziji" ustida ishlar poyoniga yetkazilguniga qadar ustoziga yordam borgan. Ulug'bek Samarqandda 2 ta madrasa: biri - Registon ansambl tarkibida va ikkinchisi Go'ri Amir ansambl tarkibida barpo qilgan. Boshqa yirik olimlar qatorida Ulug'bekning o'zi ham bu madrasalarning har birida haftada bir marotaba ma'ruza o'qigan. Boshqa vaqtini ko'proq astronomik kuzatishlarga, "Ziji" ustida ishlashga va davlat ishlariga bag'ishlagan. Ulug'bekning yana bir matematik asari "Risolai Ulug'bek" deb ataladi va uning 1-nusxasi Hindistonda Aligarx universiteti kutubxonasida saqlanadi, hali o'rganilmagan. Fan va madaniyat tarixida so'nmas iz qoldirgan Ulug'bekning ilmiy merosi uning "Ziji"idir. Bu asar sayyoralar, Quyosh va Oy harakatini talqin qilish, yulduzlar katalogi va unda qo'llanilgan matematik usullari bo'yicha o'rta asrlardagi astronomik asarlarning eng mukammali bo'lganligi uchun avvalambor u musulmon mamlakatlaridagi olimlarning diqqatini jalb qilgan. "Ziji"ga ilk sharhni Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchi "Charhi Ziji Ulug'bek" nomi bilan yozgan. O'sha XV asrning o'zida qohiralik munajjim Shamsiddin Muhammad as-So'fiy al-Misriy "Tashil Ziji Ulug'bek" ("Ulug'bek "Ziji"ini osonlashtirish") nomli asar yozib, unda Ulug'bek jadvallarini Qohiraning geografik kengligiga moslashtirdi. Ulug'bek "Ziji"iga yozilgan eng mukammal sharh Samarqand ilmiy maktabining eng so'nggi namoyandasini Nizomiddin Abdul Ali ibn Muhammad ibn Husayn Birjandiyining 1523 yil yozib tugatilgan "Sharhi Ziji Ulug'bek" asaridir. Ulug'bekning nomi Yevropada va umuman G'arb mamlakatlarida buyuk bobosi Amir Temuring shuhrati tufayli ancha ilgari ma'lum bo'lgan. Yevropa Amir Temur va uning oila a'zolari haqida 1-bo'lib Samarqandga 1403-1405 yillar sayohat qilgan Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixodan eshitgan. Klavixoning "Kundaliklar"i 1582 yil Sevilyada va 1607 yil Parijda nashr etilganidan so'ng yevropaliklar darhol Amir Temur va uning oila a'zolari bilan qiziqqanlar. Ulug'bek nomi XVII asr boshidanoq (1601 yildan) Amir Temurga bag'ishlangan dramatik asarlarda eslatiladi. Bevosita Ulug'bekka bag'ishlangan Yevropadagi 1-nashr ingliz astronomi Jon Grivs (1602-52) qalamiga oid. Uning 1648 yil nashr etilgan asarida Ulug'bek yulduzlar jadvalining bir qismi (98 ta yulduz) ilova qilingan. 1665 yil yana bir ingliz olimi Tomas Xayd (1636-1703) Grivs bilan bog'lanmagan holda "Ziji"dagi yulduzlar jadvalini forsiv va lotincha tarjimada nashr etgan. 1690 yil Gdanskda polyak astronomi Yan Geveliy chop ettingan "Yulduzlar osmonining atlasi"dagi ikkita gravyurada o'sha davrning mashhur astronomlari orasidan Ulug'bekka faxrli o'rın borgan, unda Ulug'bekning yulduzlar jadvalini Ptolemy, Tixo Brage, Richchioli, Vilgelm IV va o'zining jadvallari bilan solishtirgan. 1711 yil Oksfordda Ulug'bekning geografik jadvali 3-marta nashr etilgan. 1807 yil o'sha yerda bu jadval yangi grek tilida ham nashr etilgan. 1725 yil ingliz astronomi D. Flemetid (1646-1719) Ulug'bekning yulduzlar jadvalini Ptolemy, Tixo Brage, Vilgelm IV, Yan Geveliy va o'zining jadvallari bilan birga nashr etgan. 1908-09 yillar V.L. Vyatkin Ulug'bek rasadxonasing xarobalarini va uning asosiy asbobi - kvadrantini kavlab topgandan so'ng, Samarqand olimlarining faoliyatiga yangidan qiziqish boshlanadi. Natijada 1918 yil V. V. Bartoldning "Ulug'bek va uning davri" asari nashr etilgan. Sovet davrida Ulug'bekning hayoti va ijodi bilan mamlakat jamoatchiligidini tanishtirish bo'yicha T.N. Qori-Niyoziy ko'p sa'y-harakat qilgan. Ulug'bek ijodini targ'ib qilishda G'. Jalolov va V. P. Shcheglovlarning nashrlari ham diqqatga sazovordir. XX asrning 80 yillari boshiga kelib Ulug'bek "Ziji"ning to'liq va mukammal holda, ilmiy izohlar bilan ta'minlangan tarjimasini A. Ahmedov 1994 yil amalga oshirib, nashr ettirdi. Yaqin yillargacha Ulug'bek faqat astronom va matematik deb hisoblanardi. Lekin XX asr oxirida uning ijodi serqirra bo'lib, u tarix, she'riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Tarixchi Mirzo Muhammad Haydar "Tarixi Rashidiy" asarida "Mirzo Ulug'bek tarixnavis donishmand (va) "To'rt ulus" (tarixi)ni (ham) yozib qoldirgan edi", deb yozgan. Ulug'bekning turkiyda yozgan "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") asari Chingizzon bosib olgan mamlakatlarning XIII-XIV asrlar 1-yarmidagi siyosiy hayotini o'rganishda muhim manbadir. Navoiyning "Majolis un-nafois" va Abu Tohirxojaning "Samariya" asarlarida ham uning she'rlaridan namunalar keltirilgan. Uning davrida ko'pgina asarlar arab va fors tilidan eski o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ulug'bek tashkil etgan boy kutubxonada turli fanlarga oid 15 mingdan ortiq jiddli kitob bo'lgan. Ulug'bek yoshligidan o'zga fanlar qatori musiqa ilmidan saboq olib, bir qator kuy va usullar yaratgan, bu sohaga oid 5 ta risola ham yozgan. "Risola dar ilmi musiqa" nomli asari musiqa tarixiga bag'ishlanib, unda "12 maqom bayoni"ga doir maxsus bobo ham bo'lgan. Ulug'bek "bulujiy", "shodiyona", "axloqiy", "tabriziy", "usuli ravon" va "usuli otlig" kuylarini ijod qiladi. Ulug'bek tavalludining 600 yilligi 1994 yil aprelda Parijda, oktabrda Toshkent va Samarqandda tantanali ravishda nishonlandi va xalqaro konferensiyalar o'tkazildi. Shu yili Toshkentda Ulug'bekka haykal o'rnatildi. Ulug'bek siyoshi Pulkovo rasadxonasi, Moskva universiteti konferens-zallarida dunyodagi

mashhur olimlarning portretlari qatoridan joy olgan. Samarcandda Ulug‘bekning memorial muzeyi tashkil etilgan. Toshkentda O‘zbekiston milliy universiteti, tuman, ko‘cha, mahalla, metro stansiyasi, istirohat bog‘i, shaharcha Ulug‘bek nomi bilan ataladi. Farg‘ona pedagogika universitetiga, Samarcand arxitektura-qurilish institutiga, Kitob xalqaro kenglik stansiyasiga, qishloq, maktab va boshqaga Ulug‘bek nomi berilgan. Ulug‘bekning hayoti va faoliyati haqida pesa (M. Shayxzoda, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi), roman (O. Yoqubov, “Ulug‘bek xazinasi”; S. Borodin, “Samarqand osmonida yulduzlar”), opera (A. Kozlovskiy, “Ulug‘bek”), poyema (M. Boboyev, “Ulug‘bek”), balet (M. Bafoyev, “Ulug‘bek burji”), film (Rej. Latif Fayziyev, “Ulug‘bek yulduzi”, 1965) va boshqa yaratilgan.

## 26-bilet

### 1. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini e’lon qilinishi.

1990-yil 20-iyun kuni O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining II sessiyasida O‘zbekiston SSRning Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi. 1991-yilning 19–21-avgustida Sovet Ittifoqida davlat to‘ntarishi sodir etildi. Mamlakatda mavjud siyosiy hokimiyat ag‘darilib, favqulodda holat joriy etildi va hokimiyat Favqulodda holat davlat komiteti (GKChP – Gosudarstvenniy komitet po chrezvichaynomu polojeniyu) qo‘liga o‘tdi. Ularning maqsadlari Ittifoq hududida yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikni qo‘lga kiritishlariga yo‘l qo‘ymaslik edi. Ana shunday vaziyatda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining Rayosati, O‘zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti va O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi 1991-yil 21-avgustda qo‘shma majlis o‘tkazib, unda “SSSR GKChPning O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi va qonunlariga zid hujjatlari O‘zbekiston hududida amal qilmaydi”, degan qaror qabul qildi. 1991-yil 25-avgust kuni esa O‘zbekiston SSR Prezidenti mamlakatimizning to‘la mustaqilligi yo‘lida tamal toshini qo‘yan yana bir muhim farmonni e’lon qiladi. Farmonga ko‘ra, Respublika Ichki ishlar vazirligini va Davlat xavfsizligi komiteti O‘zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olinib, Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari bevosita O‘zbekiston SSR Prezidentiga bo‘ysundirildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991-yil 26-avgust kuni O‘zbekistonning davlat mustaqilligi to‘g‘risida qonun loyihasini tayyorlash hamda 31-avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qildi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va Markaziy nazorat qo‘mitasining 28-avgustda bo‘lgan qo‘shma Plenumi Respublika Kompartiyasining KPSS MQ bilan har qanday aloqasini to‘xtatishga, KPSSning barcha tashkilotlaridan chiqishga, uning Markaziy organlaridagi o‘z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi. Ana shunday vaziyatda XII chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasi 1991-yil 31-avgustda o‘z ishini boshladи. Unda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi masala kun tartibiga qo‘yilib, qizg‘in muhokama qilindi. Sessiyada O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov nutq so‘zlab, sobiq Ittifoqda so‘nggi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar oqibatlarini tahlil qilib, ular O‘zbekiston taqdiriga bevosita daxldor ekanligini asoslab berdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qildi va uni “Mustaqillik asoslari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun bilan mustahkamlashni taklif qildi. Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamadan so‘ng, “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildilar. So‘ngra “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Oliy Kengash Bayonoti” qabul qilindi. “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu qonun asosida O‘zbekistonning huquqiy holati tubdan o‘zgardi. 17 moddadan iborat ushbu qonun suveren O‘zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi. 1-sentabr esa O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilandi. Shu tariqa dunyo siyosiy xaritasida yangi davlat - O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘idi.

### 2. Temuriylar tarixi davlat muzeyi haqida ma’lumot bering.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996-yilda buniyod etilgan. Balandligi 31 metr bo‘lgan muzey binosi uch qavatlidir. Muzey ko‘rgazma zalining markazida devorga ajoyib tasviriy san‘at asari ishlangan. Unga «Buyuk Sohibqiron - buyuk buniyodkor» deb nom berilgan. Asar «Tug‘ilish», «Yuksalish» va «Faxrlanish» nomlari bilan ataluvchi 3 qismidan iborat. «Tug‘ilish» qismida Sohibqironning (buyuk bobomiz Amir Temurning) tug‘ilishi bilan bog‘liq urf-odatlar tasvirlangan. «Yuksalish» qismida buyuk bobomiz hayotida doimo amal qilgan «Rosti-rusti», ya’ni «Tog‘rilik najotdir» degan shiori oltin harflar bilan yozib qo‘yilgan. Shuningdek, bu qismda Sohibqironning vazirlar, harbiy sarkardalar va olimlar bilan o‘tkazayotgan kengashi aks ettirilgan. «Faxrlanish» qismida esa Amir Temur va temuriylar davri merosining avloddan avlodga o‘tib kelayotganligi g‘oyasi tasvirlangan.

### 3. Nikolay Kopernikning hayoti va faoliyati.

Nikolay Kopernik (1473- 1543) o‘z davri uchun har tomonlama chuqur bilim oldi. Krakov (Polsha) va Italiya universitetlarida o‘qidi. Tasviriy san‘at, matematika, falsafa, huquqshunoslik va tibbiyat kabi fanlarni o‘rgandi. Maxsus moslamalar yorda-mida 30 yil davomida osmon jismlarini kuzatdi. N. Kopernik o‘z tadqiqotlariga suyanib, ming yillardan beri davom etib kelayotgan Yerning harakatsizligi haqidagi ta’limotdan voz kechdi. Yerning Quyosh va o‘z o‘qi atrofida aylanishini isbotlab berdi. Bu xulosa o‘sha davr fanidagi haqiqiy buyuk kashfiyot edi. Ayni paytda u cherkov aqidalariga mutlaqo zid xulosa ham edi. U o‘z xulosalarini 1543-yilda chop etilgan «Osmon jismlarining aylanishi haqida» nomli kitobida bayon etdi. N. Kopernikning xulosalari cherkovni g‘azablantirdi. Kitob chop etilgan davrda u o‘lim to‘shagida yotardi. Faqat o‘limgina uni inkvizitsiyadan asrab qoldi. Keyinchalik, cherkov Kopernik ta’limotini rasman taqiladi.

## 27-bilet

### 1. Abdullaxon II ning islohotlari.

Shayboniy Abdullaxon II o‘tkazganpul islohoti ham Buxoro xonligi tarixida muhim ahamiyatga egavoqea bo‘lgan. U oltin pul zarb etishni yo‘lga qo‘yan va uning tarkibiga qiymati past bo‘lgan boshqa ma‘danlar aralashtirilmasligini qattiq nazorat ostiga olgan. Bu pullar xonlikning butun hududida muomalaga kirdi. Bu hol, o‘z navbatida, hokimiyatning yanada markazlashuviga, xazinaga katta daromad tushishiga olib keldi, savdo-sotiq yanada jonlandi.

### 2. Sitorai Mohi Xosa haqida ma’lumot bering.

Tarixiy obida Buxoroning mang‘it sulolasiga mansub amirlari Amir Nasrullo (1826-1860), Amir Muzaffar (1860-1885), Amir Abdulahad (1885-1910), Amir Olimxon (1910-1920)lar tomonidan qurilgan. Amir Abdulahad davrida me’moriy inshootning katta qismi buniyod etildi. Sitorai Mohi Xosanining qurilishi XIX asrning o‘rtalarida boshlangan va 1914-yilda qurib bitkazilgan. U Buxoro

shahri markazidan 2,5 km janubda, Buxoro tumani bilan chegaradosh hududida joylashgan. Sitorai Mohi Xosanining qurilishi yangi tarix davriga, Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining protektoratligi davriga to‘g‘ri keladi. Me’moriy inshootning qurilishida bir qator ashyolar ishlataligil: g‘isht (xom va pishgan), faner, yog‘och ayniqsa tut va yong‘oq daraxti, marmar, oyna, tunuka, tosh, cho‘yan, temir va boshqalar. Uning dastlabki imoratlari Amir Nasrullo hukmronligi davri (1826-1860-yillar) qurilgan. Biroq bu yerda saroy va hushmanzara bog‘ barpo etish Amir Abdulahadxon hukmronligi davrida (1885-1910-yillar) boshlangan. Amir Olimxon hukmronligi davrida (1910-1920-yillar) yangi saroy tiklangan va shu davrdan boshlab saroy kompleksi yangi va eski saroyga ajratilgan. Eski saroy uch hovlidan va ko‘pgina xonalardan iborat ansamblidir. Bu yerdagi eng eski xona Amir Muzaffarxon mehmonxonasi (1860-1885-yillar) keng va baland zal, ikki tomonidagi boloxonali ayvonlar, yevropacha eshik va derazalar bilan ajralib turadi. Mehmonxonaning devoriy rasmlari va ranglarida motivlar uyg‘unlashtirilgan. Uch qismga bo‘lingan kvadrat xonani tashkil etuvchi Abdulahadxon zali boshqacharoq ishlangan. Bir-biriga ro‘para joylashtirilgan va bir xilda bezatilgan ikkita zal o‘rtadagi baland supa orqali birlashtirilgan. Supaning g‘arb tomonida taxt o‘rnatalgan. Abdulahadxon va Muzaffarxon zallarining badiiy bezaklarida o‘xshashlik tomonlari juda ko‘p. Eski Sitorai Mohi Xosanining sharq tomonida Amir Olimxon hukmronligi davrida qurilgan bosh qarorgoh alohida me’moriy ahamiyatga ega. Unga koshin va rangli shisha bilan bezatilgan tantanavor peshtoq – muhtasham toqli darvoza orqali kiriladi. Bu kompleksni tiklashdan avval Buxoroning eng yaxshi ustalari Rossiyaga rus me’morlarining tajribasini o‘rganish uchun yuborilgan. Shundan keyin Xoja Hofiz rahbarligidagi buxorolik ustalar kuchi bilan hovlining janub tomonida ansamblning birinchi binosini tiklashga kirishgan. Qurilish rus injenerlarining nazoratida bo‘lgan. Bosh binoni barpo etish jarayonida Yevropa bilan Isfagan saroylari arxitekturasi va Buxoroning boy turar-joylari binolarining me’moriy yechimlaridan foydalanilgan. Bino chiroyli me’moriy yechimga ega, biroq sintez ishi sohasida uncha tajribaga ega bo‘limgan ustalar uchun murakkab bo‘lganligi sababli, binodagi tron zali antresol va arkalar bilan tig‘izlashtirib yuborilgan. Ushbu binoga kiraverishda eshikning ikki tarafiga o‘sha vaqtida hali unchalik tajribaga ega bo‘limgan nuratolik ustalar tomonidan marmardan tayyorlangan sherning haykali o‘rnatalgan. Biroq keyinchalik katta tajriba ega bo‘lgan o‘sha ustalar kompleksdagi hovuzning suv tushishi uchun mo‘ljallangan marmar novalarni kam-ko‘stsiz tayyorlab bergenlar. Hovlining ikkinchi tomoniga, bu bino bilan yonma-yon, unga tik qilib g‘arb tomonda 1912-1914-yillarda katta badiiy ahamiyatga ega bo‘lgan noyob Oq zal qurilgan. Bu zal va uning dahlizi buxorolik ustalar tomonidan milliy uslubda ko‘rkam ishlangan. Oq zal ganchkorlik va ganch o‘ymakorligi san’atining eng so‘nggi yutuqlari asosida usta Shirin Murodov rahbarligida 25-30 ta qo‘li gul ustalar tomonidan ikki yil davomida ajoyib qilib ishlangan. Bino ichi noyob me’moriy yechimga ega. Oq zalning intererini bezatishda o‘sha davrgacha ma’lum bo‘lgan eng yaxshi tajribalar o‘z aksini topgan. Devor va shiftlarda panno ko‘rinishidagi oynalar ustida ishlangan ganchkorlik mahsuli kishi ko‘zini qamashtirib yuboradi. Ishlatilgan oynalar devor va shiftda bejirim bezaklar ostidagi fon vazifasini bajargan. Yangi saroy “P” shaklida bunyod etilgan. Saroy rejasida, bezak va jihozlarida Sharq va yevropacha uslublar ma’lum darajada uyg‘unlashgan. 1917-1918-yillarda zinali hovuz barpo etilgan, u ansambl me’morchiligidan katta ahamiyat kasb etgan. 1917-1918-yillarda hovlining uchinchi – shimol tomonida hovuz oldida yevropacha uslubda ishlangan peshayvonli bino qurilgan. Demak, me’moriy kompleksni barpo yetishda aralash, milliy va yevropacha usullardan foydalanilgan. Sitorai Mohi Xosaga kiraverishda tashqi hovli, uning janubiy-g‘arbiy tomonida kichik hovlili xazinaxona, janubiy-sharqdagi qarama-qarshi burchakda yozgi dam olish joyiga kiriladigan darvoza bor. Yozgi dam olish joyi bog‘ning to‘rida bo‘lib, bino kichik hovli va hovuzchaga ega. Dam olish joyining atrofi baland imorat bilan o‘ralgan bo‘lgan. Bino assimetrik yechimda milliy tusda chiroyli ishlab chiqilgan. Saroy Buxoro amiri Olimxonning yozgi qarorgohi bo‘lgan. Amir bu yerdan yozgi dam olish maskani sifatida foydalangan. Bundan tashqari Amir chet el elchilarini va rus vakillarini shu yerda qabul qilgan. Me’moriy inshoot g‘arb va Sharq me’morchiligi asosida qurilgan. Oq zalning qurilishida yevropacha qurilish uslubi ustunlik qiladi. Bugungi kunda inshootning ta’mir talab qismlari qayta rekonstruksiya qilingan. Inshootning kirish joyida xalq amaliy san’ati namunalari bo‘lgan buyumlar savdo astasi mavjud. Hovlida esa tovuslar, Oq zalda amirlik huzurida bo‘lgan chet el elchilarining billur vaza, qimmatbaho gilamlar, guldonlar kabi sovg‘alaridan iborat. O‘zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e’tiborga to‘xtaladigan bo‘lsak, 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha me’moriy inshootlar qatorida Sitorai Mohi Xossa saroyi ham qayta ta’mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro‘yxatiga kiritildi.

### 3. Ahmad Donish hayoti va faoliyati.

Yozuvchi, faylasuf, musavvir, ma’rifatparvar Ahmad Donish (1827-1897) Buxoro amiri Nasrulloning elchilarini bilan 1857-yilda Moskva, Peterburg va boshqa Rossiya shaharlari bo‘ylab sayohat qilgan. U «Buxorodan Peterburgga sayohat», «Buxoroi sharif mang‘it amirlari muxtasar tarixi», «Navodir ul- vaqoe» («Nodir voqealar») asarlarining muallifidir. Ahmad Donish 1865-yilda amir Muzaffar taklifi bilan «Manozir ul-kavokib» («Sayyoralarning joylanishlari») nomli astronomiyaga oid kitob yozgan. U faqat Buxoro amirligi emas, balki O‘rta Osiyonning boshqa xonliklarida ham eng ko‘zga ko‘ringan madaniyat arbobi sifatida ta-nilgan edi U 20 yil mobaynida Buxoro saroy kutubxonasida xattot va rassom bo‘lib ishlagan. U astronomiya, tibbiyot, riyozat, me’morchilik va musiqadan tashqari xattotlikni, rassomlik hamda rang berish san’atini ham o‘rgangan edi. Alimad Donish ko‘cliirgan, bezagan yoki rasm ishlagan qo‘lyozmalar ichida „Shohi darvesh“, „Ajoyib at-tabaqot“ va boshqa asarlar buning dalilidir.

## 28-bilet

### 1. O‘zbekiston SSRning tuzilishi.

1925-yil 13-fevralda Buxoroda maxsus qurilgan Xalq uyida Butuno‘zbek (O‘zbekiston SSR) Sovetlarining I ta’sis qurultoyi ochildi. Qurultoy faoliyatida Moskvadan maxsus kelgan Butunittofoq (SSSR) Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi Mixail Kalinin qatnashdi va nutq so‘zladı. Qurultoy qatnashchilari tomonidan 17-fevralda “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to‘g‘risida Deklaratsiya” qabul qilindi. Deklaratsiyada yangi tashkil topgan O‘zbekiston SSR tarkibiga Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo, Zarafshon (Buxoro), Surxon daryo, Xorazm viloyatlari va Tojikiston ASSR kirganligi alohida ta’kidlandi. Qurultoyda respublikaning oliy organlari: O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (O‘zSSR MIK) va O‘zbekiston SSR Xalq Komissarları Soveti (O‘zSSR XKS) tuzilgan. Taniqli davlat arbobi Fayzulla Yo‘jayev O‘zbekiston SSR Xalq Komissarları Soveti raisi, “Qo‘shchi” uyushmasi faoli Yo‘ldosh Oxunboboyev O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi lavozimlariga saylanishdi. Bu paytda O‘zbekiston SSR hududi 312 394 km<sup>2</sup>, aholisi 3 963 285 kishi bo‘lgan (unga Tojikiston ASSR va Qoraqalpog‘iston avtonom viloyatining hududi va aholisi kirmaydi). 1924-yil oxirida O‘rta Osiyo respublikalarida hammasi bo‘lib 8 131 062 kishi yashagan bo‘lib, ularning qariyb yarmisi O‘zbekistonda istiqomat qilgan. O‘zbekiston SSR tashkil topgan paytda qisqa muddat (1925-yil fevral

– aprel) davomida Buxoro shahri poytaxt bo‘ldi. So‘ngra 1925-yil apreldan 1930-yil sentyabrgacha Samarqand shahri O‘zbekiston SSR poytaxti sanalgan. Bu paytda Toshkentda Markazning yangi tuzilgan O‘rtta Osiyo respublikalarini nazorat qilish ga mo‘ljallangan turli tashkilotlari (VKP(b) MK O‘rtta Osiyo byurosi, O‘rtta Osiyo Iqtisodiy Kengashi, Turkiston fronti, O‘rtta Osiyo harbiy okrugi va b.) joylashtirilgan edi. Samarqand respublikaning markazida joylashgan bo‘lib, bu holat yangi tashkil qilingan O‘zbekiston SSR hududining barcha qismalarini amalda bir butun qilib birlashtirishga hamda sovet tashkilotlari ishini jonlantirishga yordam berdi. Mahalliy hokimiyat organlari mustahkamlanib, ularning markazi hukumat muassasalari bilan aloqlari kuchaygandan so‘ng O‘zbekiston poytaxti 1930-yil 20-sentyabrdan respublikaning eng muhim iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazi bo‘lgan Toshkent shahriga ko‘chirildi. O‘zbekiston SSR hukumatining raisi Fayzulla Xo‘jayev bir kechada poytaxtni Samarqanddan Toshkentga ko‘chirib keltirgan edi. O‘zbekiston SSRda 1925-yil 29-yanvarda ilk bor ma’muriy-hududi bo‘linish o‘tkazildi. Dastlabki 7 viloyat (Zarafshon, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm), alohida Konimex tumani tashkil topdi. Bu paytda O‘zSSR tarkibida 23 ta uyezd va 241 ta volost bo‘lgan. 926-yil 29-sentyabrdan O‘zbekiston SSR Sovetlari Markazi Ijroiya Qo‘mitasi V sessiyasining rayonlashtirish to‘g‘risida qarori qabul qilindi. Unga muvofiq O‘zbekiston SSRda mavjud bo‘lgan 7 ta viloyat, 23 ta uyezd, 241 ta volost va 1163 ta qishloq jamoasi o‘rniga yangi ma’muriy bo‘linish o‘tkazilib, 10 ta okrug (Xorazm, Buxoro, O‘rtta Zarafshon, Samarqand, Toshkent, Xo‘jand, Qo‘qon, Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo), alohida qozoq-qoraqalpoq Konimex tumani, 87 ta tuman va 1720 ta qishloq sho‘rosi tuzildi. O‘zbekiston SSR Butunittifoq Sovetlarining III syezdida 1925-yil 13-may kuni SSSR tarkibiga qabul qilindi. SSSR 1922-yil 30-dekabrda 4 ta ittifqodosh sovet respublikasi (RSFSR, Ukraina, Belorusiya, ZFSR – Kavkazorti) asosida tashkil topgan edi. 1927-yil 30-martda O‘zSSR Sovetlarining II syezdida O‘zbekiston SSRning birinchi Konstitutusiyasi qabul qilindi.

## **2. Buyuk Xitoy devori haqida ma’lumot bering.**

Sin Shixuandi o‘z davlatini ko‘chmanchi xunnlarning hujumlaridan himoya qilish uchun Shimoliy Xitoy bo‘ylab qurilgan mudofaa devorini yanada mustahkamlashni buyurgan. Devorni qurish ishlari dastlab mil. avvalgi IV asrda boshlangan. Bu devor tarixda Buyuk Xitoy devori deb atalgan. Uning balandligi 6-10 metr, qalinligi 5-8 metr, uzunligi esa qariyb 4000 kilometrni tashkil etadi. U qadim zamonlarda dashman qo‘sishlari uchun jiddiy to‘sinq bo‘lib xizmat qilgan: otliq qo‘sishlar undan oshib o‘ta olmas, qal’alarni hujum bilan zabit etishni esa ko‘chmanchilar hali uddalay olishmasdi. Podsho va amaldorlar devor qurilishida minglab dehqonlarni majburan ishlatsanlar.

## **3. Imom al-Buxoriyning hayoti va faoliyati.**

Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810–870) islom ta’limotiga oid yigirmadan ortiq asarlar yozdi. Uning birgina “Al-jome’ as-sahih” asariga 7275 hadis kiritilgan. 1998-yil oktabrda buyuk mutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi nishonlandi. Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida “Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuyi” barpo etildi. 4 jildli “Al-jome’ as-sahih” kitobi ilk bor o‘zbek tilida nashr etilib, kitobxonlarga taqdim etildi.

## **29-bilet**

### **1. Panipat jangi.**

Dehlidan taxm. 100 km shimda joylashgan Panipat yalangligida tarixda sodir bo‘lgan mashhur jang. Bobur qo‘sini (12 ming askar) b-n Dehli sultonasi Ibrohim Lo‘diy qo‘sini (100 ming jangchi va jangovar fillar) o‘rtasidagi jang (1525 y. 21 apr.). Hind qo‘sini tartibsiz tarzda jangni boshlagan. Boburning burong‘or va juvong‘ori to‘lg‘ama usuli b-n g‘animming ort tomoniga o‘tib unga kuchli zarbalar bergen. Ibrohim Lo‘diy asosiy kuchlari va jangovar fillar b-n markazga hamla qilgan. Shunda Bobur ho‘kizlarning xom terisidan eshilgan arqonlar b-n bir-biriga mahkam bog‘langan 700 ta arava va ular orasiga o‘rnatalgan turoqalqonlar panohida turgan tufakandozlarni jangga tashlaydi. Tufak va zambarak o‘qlaridan yarador bo‘lgan fillar chekinib ustlaridan filbonlarni yiqitib, piyodalarni yanchib o‘tadi, hindlar sarosimaga tushib qochishga tushganlar. Sulton Ibrohim Lo‘diy va taxm. 50 ming hind jangchisi halok bo‘lgan. Bobur Dehli va Agrani zabit etib, Shim. Hindistonda Boburiylar davlatiga asos soladi.

### **2. Buxoro arki haqida ma’lumot bering.**

Eng ko‘hna madaniy meros obyektlaridan biri Ark qal‘asi bo‘lib, u qadimda Buxoro shahrining markazi hisoblangan. Buxoro arki milodning boshlarida qurila boshlanib, XVI asrda Shayboniyalar sulolasi davrida ansambl holiga kelgan. Ark qal‘asining barpo etilishi Eron podshosi va turk ayolining farzandi Siyovush nomi bilan bog‘liqidir. Ma’lumotlarda keltirilishicha, Siyovush Samarqand podshosi Afrosiyobdan yengilgach, shu yerda – Zarafshon daryosining quyi irmoqlaridan birining sohilida to‘xtagan va shaharning yaratilishiga asos solgan. Siyovush Afrosiyob tomonidan o‘ldirilganidan keyin Buxoroning Sharq darvozasi yonida ko‘milgan degan rivoyatlar bor. VII asrda Buxoro hokimi Bidun vayrona holiga kelgan arkni qayta tiklatgan. O’sha davrda ark oldida katta maydon – registon, uning atrofida savdogar va zodagonlarning yuzlab qo‘rg‘onlari bo‘lgan. Hokim va uning qarindoshlari qo‘rg‘oni yonida asosiy shahar – shahriston joylashgan. Ko‘plab me’moriy yodgorliklarni o‘zida jamuljam etgan ko‘hna Ark qal‘asi ko‘p aslar mobaynida amirlikning qarorgohi bo‘lib kelgan. Bu yerda amir, uning bosh vazirlari, harbiy boshliqlar, amirning ko‘p sonli xizmatchilari yashaganlar. Ark qal‘asida hukmdorlar uchun saroy, ko‘rinishxona, masjid va turar-joy binolari bunyod etilgan. Ark qal‘asi baland mustahkam peshtoq bilan ulug‘langan. Registon maydonining salobati hokimiyatning buyukligini ko‘rsatgan, uni bosib olish mumkin emaslik belgisini bildirgan. Uning devorlari tevaragida shahriston joylashgan. Shahristonni savdo-hunarmandchilik maskani – rabot qurshab turgan. Ark qal‘asida Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Farobi, Umar Xayyom singari ulug‘ insonlar yashab ijod qilganlar. Ark to‘g‘risida Abu Ali ibn Sino quyida keltirilgan fikrni bildirgan: “Men bu yerdag‘i kutubxonada shunday kitoblarni topdimki, ularni avval ko‘rmaganman va umrimda boshqa ko‘rmadim ham. Men ularni o‘qidim va shundan keyin har bir olimning o‘z fani bo‘yicha o‘rnini angladim. Mening oldimda fanlarning tubidagi shunday eshilklari ochildiki, men ularni tasavvur ham qilolmasdim. Arkdagi kutobxonaning keyingi taqdiri sir bo‘lib qolgan. Kutubxona janglardan birida talab ketilgan bo‘lsa ajab emas”, degan ma’lumotlar bor. Ark qal‘asi to‘g‘risida birinchi yozuvlar Abu Baxr Narshaxiyining (899-939-yillar) “Buxoro tarixi” kitobida ham uchraydi. Buxoro podshosi Bidun bu qal‘ani qurdi, ammo u tezda buzildi, yana yangidan qurdi, u yana buzildi. Shundan keyin uzoqni ko‘ra biladigan dono kishilarini chaqiradi. Donishmandlar arkni katta ayiq yulduzi shaklida barpo etishni maslahat berdilar. Ark qal‘asi ana shu shaklda quriladi, keyin esa u buzilmadi degan ma’lumotlar bor. Ark qal‘asi yer ustidagi katta balandlik, u balandligi 20 m cha bo‘lgan tepalik ustiga qurilgan. Ark g‘arbdan sharqqa cho‘zilgan noto‘g‘ri to‘rburchak shakliga ega. Janubi-

sharq burchagi biroz kesilgan. U qadimi va hamisha navqiron Buxoro shahrining g‘arb tomonida joylashgan. Qal‘a devorining uzunligi 789,6 m., balandligi 16-20 m., yer maydoni 3,96 ga ni tashkil etadi. Ark qal‘asi bir necha marta ta‘mirlangan va qayta qurilgan. Ko‘tarila boruvchi yo‘l (pandus) orqali arkning g‘arb tomonidan ulkan yog‘och darvoza (XVI asr) orqali ichkariga kiriladi. Pandusning uzunligi 20 m ni tashkil etadi. Uning ikki yoni massiv toshli piramida bilan o‘ralgan. Ark qal‘asi peshtoqining ikki tarafidagi burchaklardagi minorachalar – “guldastalar” konstruksiyasi va ular oralig‘idagi uch qavatlari bino yaxshi saqlangan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dolon – yo‘lakning chap devorida 12 ta va o‘ng devorida 13 ta taxmon-tokcha joylashgan. Chap tomondagisi tokchalarining ba‘zilarida zindonga kiradigan eshikchalar bor. “Guldasta”lar tagida xavfli jinoyatchilar saqlanadigan zax va dim yerto‘la – kanaxonalar bo‘lgan. Dolonning o‘ng tomonidagi o‘rtalik tokchada afsonaviy qahramon Siyovush arvohiga Navro‘z bayramlarida chiroq yoqilgan. Amir saysxonasiga (otxonasiga) ham shu yerdagi zinadan kirilgan (otxona mahbuslar joylashgan xonalar ustida bo‘lgan). Dolondon chiqaverishda to‘pchi boshining mahkamasi, shu yerdagi ayvon tagidagi yerto‘lada esa qijnoqxona bo‘lgan. Undan sal narida (g‘arbiy burchakda) XVIII asrda peshayvonli Juma masjidi qurilgan. Masjid devorlarini ichki tomonidagi naqshlar orasiga Qur‘on oyatlaridan bitilgan. Peshayvon shipi murakkab girrix naqshlar bilan bezatilgan. Ark qal‘asining shimoli-g‘arb burchagida to‘pchi boshining uyi joylashgan. Masjidning sharq tarafida oshxona, orqa tarafida zarbxona (oltin, kumush va chaqa tangalar zARB qiladigan xona) joylashgan. Zarbxonaning shimoli-sharqida zargarxona, janubida devonbegining mahkamasi va qushbegiga qarashli binolar bo‘lgan (ba‘zi binolar hozir ham bor). Juma masjididan boshlangan tor yo‘lak qushbegi hovlisi orqali chorsuga tutashgan. Chorsuning chap tomonida tosh yotqizilgan katta hovli – ko‘rinishxona o‘rnashgan. U yerda elchilar qabul qilingan va amirlarning taxtga o‘tirish marosimlari o‘tkazilgan. Hovliga kiraverishdagi naqshli peshtoq 1605-yilda qurilgan. Hovlining uch quyosh tushar tomoni peshayvon bilan o‘ralgan. Oldingi peshayvonda ikki qator naqshli ustunlar bo‘lib, ularning qoshi pastdan yuqoriga yo‘g‘onlashib boruvchi muqarnaslar bilan bezatilgan. Nurota marmaridan qilingan taxt ana shu ayvondagi taxtiravon tagida turgan. Hovlining janub tomonida Mehmonxonai Rahimxoniy va qorixona qurilgan (XVIII asr). Bu binolar tagida yerto‘lalar bo‘lib, ularda xazina saqlangan. Arkning g‘arb tomonidagi hovlida mirzalar va xizmatchilar uchun ikki qavatlari binolar qurilgan. Sal narida salomxona, undan Sharq tomonda mehmonxonalar, mansabdorlarga qarashli boshqa binolar (miyon hovli) joylashgan. Janubroqda hammom, uning Sharq tomonida kichkina masjid qurilgan, ular hozirgacha saqlangan. Arkning markazida o‘rda (amirning xotinlari turadigan uylar), shimolida qushbegi xotinlari turadigan uylar joylashgan. Hammomning sharqida duxtarxona – amir haramidagi qizlar uylari o‘rnashgan. Shimoli-sharqiy burchakda Chil duxtaron masjidi va Battol g‘ozi mozori bo‘lgan. Arknинг sharqiy devori bo‘ylab g‘ulombachchalar (soqchilar) xonasi, janubi-sharqiy burchakda dorixona (o‘q-dorilar xonalari) joylashgan. Hozirgi paytda bu binolarning taxminan 20%ni saqlangan. Arknинг g‘arbiy devoridan boshqa hamma devorlari va ularning burchaklardagi minoralar buzilib ketgan. Ark ansambl mustaqillik yillarda so‘nggi bor restavratsiya qilingan.

### **3. Xoja Bahouddin Naqshbandiy hayoti va faoliyati.**

Bahouddin Naqshband 1318-yilda Buxoro yaqinida Qasri Hinduvon qishlog‘ida matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida dunyoga keladi. Yoshligida ta‘lim olish bilan bir qatorda kimxbob matoga gul bosishni puxta o‘rganib, ota kasbi naqqoshlikni egallagan. Xoja Bahouddin “Hayotnoma” va “Dalil al-oshiqin” nomli asarlar yozib, o‘z tariqatini yaratadi. Naqshbandiya tariqati Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda keng tarqaladi. Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo‘lishga, o‘z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdiril va kamtar bo‘lishga chaqiradi. Uning “Dil ba yor-u dast ba kor” (“Ko‘ngil Allahda bo‘lsin-u, qo‘l mehnat bilan band bo‘lsin”) degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyo chilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ‘ib etadi. Naqsh bandiya ta‘limoti taraqqiyotiga keyingi asrlarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror kabi buyuk allomalar katta hissa qo‘shadilar.

## **30-bilet**

### **1. Buxoro xonligini tashkil topishi.**

Shayboniyalar urf-odatiga ko‘ra, vafottopishi etgan xon o‘rniga taxtga yoshi katta shayboniy o‘tqazilgan. Shuning uchun ham Muhammad Shayboniyxonning o‘limidan so‘ng taxtga bevosita uning avlodlari emas, amakisi Ko‘chkunchi Sulton o‘tqazilgan. XVI asrning 40- yillaridan so‘ng bu urf-odatga rioxalari etilmay qo‘yilgan. Ko‘chkunchixondan so‘ng esa taxtga uning o‘g‘li Abu Said (1530 -1533) o‘tirdi. Undan keyin esa hukmdorlik Shayboniyxonning ukasi Mahmud Sultonning o‘g‘li Ubaydullaxon (1533 -1540) qo‘liga o‘tdi. Ubaydullaxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko‘chirtirdi. Ubaydullaxon Buxoroga ota meros mulk deb qurar edi, chunki Shayboniyxon hayotligidayoq Buxoro hokimligini ukasi Mahmud Sulton (Ubaydullaxonning otasi)ga bergen edi. Shu tariqa, shayboniyarning Movarounnahrda tashkil etgan davlati endilikda rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb ataladigan bo‘ldi.

### **2. Xudoyorxon saroyi haqida ma‘lumot bering.**

Xudoyorxon saroyi minglar sulolasiga mansub Qo‘qon xoni Xudoyorxon tomonidan bunyod etilgan. Xudoyorxon (1831–1882) uch marta – 1845, 1862, 1865-yillarda taxtga chiqib (1845-1875-yillarda tanaffuslar bilan: 1845-1858; 1862-1863; 1865-1875), umumiy hisobda chorak asr hukmronlik qilgan. Sherailxonning o‘g‘li. Qaynotasi

Musulmonql tomonidan taxtga o‘tqazilgan. Ammo yosh bo‘lganligi tufayli amalda davlat ishlarini Musulmonql boshqarib borgan. Saroy 1863-1870-yillar oralig‘ida qurilgan. U sun‘iy tepalikka baland g‘ishtin poydevorli qilib qurilgan: xon qarorgohi, o‘rda ahli yashaydigan hamda turli maqsadlarda foydalananiladigan yuzga yaqin katta-kichik xonalar, ichki-tashqi xonalardan iborat bo‘lgan. Saroy xonning oilaviy turar-joyi bo‘lishi bilan birga, davlatning bosh boshqaruv apparati ham shu yerda bo‘lgan. Me’moriy obidaning qurilishida xom va pishgan g‘isht, marmar, quyma ganch, parket, tosh, yog‘och, tunuka, har xil qimmatbaho toshlar va boshqa ashayolar ishlataligan. Saroyning bosh tarzi bir qavatlari qilib bunyod etilgan, pishiq g‘ishtdan (26x26x5 sm) ganj suvoqda terilgan devorlarga bir g‘isht chiqurlikda ravvoqlar ishlangan. Peshtoq o‘rda devoridan birmuncha bo‘rttirib oldinga chiqarib qurilgan, baland va hashamatli, peshtoqning ikki yoni va tarzlarining ikki burchaklarida gumbazli mezanalari bilan yakunlangan guldastalar bor. Peshtoqqa uzunligi 40 m bo‘lgan qiya yo‘lka (pandus) orqali o‘tiladi. Xudoyorxon o‘rdasi bosh tarzi ravvoqlari, peshtoq va guldastalaridagi handasiy naqshlar koshinlar, sirkori parchinlardan mahorat bilan yaratilgan. Peshtoq orqali to‘rtburchak tarhli darvozaxonaga o‘tiladi, darvozaxona gumbazi o‘zaro kesishgan ravvoqli asos ustiga qo‘yilgan; gumbaz usti, o‘z navbatida, qubbali mezana bilan yakunlangan, undagi panjaralari darchalar orqali ichkariga yorug‘lik tushadi. O‘rdaning bosh tarzi, xonalar koshinlar, o‘yma ganchkorli naqshlar bilan bezatilgan, shiftlari hovuzakli bo‘lib, ularga gullar solingan, xonalarning tepe qismi sharafalar bilan hoshiyalangan. Saroyning umumiy ko‘rinishi 3 qismidan iborat bo‘lgan. Birinchi qism xon saroyi, majlislar o‘tkaziladigan va davlat

ishlari yuritiladigan xonalardan iborat bo'lsa, ikkinchi va uchunchi qismlar (ichki qismlar) xon harami va istiqomat xonalardidan iborat bo'lgan. Me'moriy obida Sharq an'analarini asosidagi gumbazsimon, to'g'ri to'rtburchak, "Chor" uslubida qurilgan. Ushbu inshoot faqat bitta hukmdor tomonidan qurilgan va faqat shu hukmdorgina ushbu saroydan davlat boshqaruvida va boshqa jahbalarda faoliyat yurita olgan. O'rdening Farg'ona vodiysidagi boshqa tarixiy inshootlardan farqli jihatni shundaki, u davlat hukmdorining saroyi hisoblangan. Xudoyorxon o'rdasining 1998, 2002-yillarda ta'mortalab qismlari tiklandi. 1924-yilda Xudoyorxon o'rdasida Qo'qon xonligi yutuqlari ko'rgazmasi ochilgan. 1925-yildan saroya Qo'qon shahar o'lkashunoslik muzeyi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

### **3. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati.**

Bobur (taxallusi; to'liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo) (1483.14.2, Andijon 1530.26.12, Agra) - o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili: buyuk shoir; tarixchi, geograf; davlat arbobi, iste'dodli sarkarda; boburiylar sulolasiga assoschisi, temuriy shahzoda. Boburning otasi - Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi, onasi - Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o'qimishli va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergen, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo'yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o'tkazardi. Boburning yoshligi Andijonda o'tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik foziul ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adapib asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziq qoshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshlidan «Bobur» («Sher») laqabini oladi. Bobur otasi yo'lidan borib, mashhur sufiy - Xoja Ahrorga ixlos qo'yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e'tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, «Boburnoma» asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasisizliqdan xalos etganini, eng og'ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta'kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo'lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahdi sifatida taxtga o'tiradi (1494 yil iyun). Mavarounnahr 15-asr oxirida o'zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan, deyarli mustaqil bo'lib olgan ko'pdan-ko'p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Mavarounnahr taxti uchun kurash avjiga chiqqan, turli siyosiy fitnalar uyushtirilmoqda edi. Buning ustiga Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga (Boburga) buysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba'zilari mustaqillik da'vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog'alariga qo'shilib, uni jismonan yo'qotish payiga tushadi. O'z amakisi va tog'asi bo'lmish Sulton Ahmad Mirzo bilan Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2-3 yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o'zaro munosabatni yaxshilash, qo'shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o'rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo'lgan Samarqandni egallash va Mavarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur sultanatini qayta tiklashdan iborat edi. Bu paytda, qisqa muddat ichida Samarqand taxtiga uchinchi hukmdor kelgan edi. Sulton Ahmad Mirzo vafoti (1494 yil iyul) dan keyin taxtga o'tirgan Sulton Mahmud Mirzo Samarqandda davlatni 5-6 oydan ortiq idora etmadni - qisqa muddatli kasallikdan so'ng 43 yoshida vafot etdi. Uning o'rning Buxoroda hokim bo'lgan o'g'li Boysung'ur o'tiradi. 1495-96 yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497 yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so'ng Samarqandni egallaydi, Boysung'ur Qunduzga qochadi. Shahar qamal tufayli nihoyatda og'ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Hatto ekkulik don ham topish mushkul edi. Bobur qo'shinni ta'minlashda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Aksi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Boburdan yuz o'girib, uning ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o'tadilar. Andijondan ko'ngli notinch bo'lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni zamonda og'ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so'ng, uni tark etishga qaror kiladi. Ammo Xo'jandga yetganda Andijon ham qo'ldan ketib, muxoliflar ichtiyoriga o'tganini eshitadi. Boburning Toshkent hokimi, tog'asi Mahmudxon ko'magida Andijonni qayta egallashga urinishi natija bermaydi, Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo'shiniga salbiy ta'sir etib, ko'pchilik bek, navkarlar (700-800 kishi) Boburni tark etadi. O'ziga sodiq kishilar (200-300) bilan qolgan Bobur ma'lum muddat Xo'jandda turgach, Toshkentga - Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish rejasini tuza boshlaydi. Ma'lum muddat o'tgach, Bobur Xo'jandga qaytadi, ko'p o'tmay, Marg'ilonni qo'liga kiritadi hamda Andijonni egallash tadbirlarini ko'radi. Nihoyat, 2 yildan so'ng (1498 yil iyun) uni qayta qo'liga kiritadi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan sulk tuzib, uning ichtiyorida «Xo'jand suvining Aksi tarafi viloyatlarini...» qoldiradi, Andijon tarafi viloyatlarini o'z tasarrufiga oladi. Bobur 1500 yil kech kuzida o'z qo'shini (240 kishi) bilan Samarqandga yetib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar darvozalarini ochib beradi. Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G'uzor shahrilarida Bobur hokimligi e'tirof etiladi. Ammo shaharda oziq-ovqat zahiralari tugab, ocharchilik boshlangan edi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch to'plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. 1501 yil aprelda Zarafshon bo'yidagi Saripul qishlog'i yaqinida bo'lgan jangda Bobur qo'shinnari yengiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to'rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Bobur 1501 yilning 2-yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga, Mahmudxon huzuriga yo'l oladi. 1504 yil iyunda Mavarounnahrni tark etishga majbur buladi. 1507 yil boshlarida Bobur Hindistonga yurish boshlaydi (bu paytda u Kobul hukmdori edi). Ammo, bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugab, yana poytaxt Kobulga qaytadi. Bobur Mavarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat va urush harakatlarini kuzatib boradi, o'z qo'shinnarini doimo shay tutadi. Shayboniyxon Xurosuning yirik markazlarini qo'lgan kiritgach, Eronni zabit etish uchun yurish boshlaydi. Ammo, Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qattiq to'qnashuvda (1510) yengiladi, o'zi ham Marvda halok bo'ladi. Shoh Ismoil Xuroson va Mavarounnahrga qo'shin kiritib shayboniylargacha ketma-ket shikast yetkaza boshlaydi. Bobur shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, 1511 yil bahorida Hisorni, yozida Buxoroni, oktyabr boshida esa Samarqandni yana qo'lgan kiritadi. Boburning shia mazhabidagi eroniylar ra'yilish tutishi aholida norozilik tug'diradi. 1512 yil 28 aprelda Ko'li malik jangida Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylardan yengilgan Bobur Hisor tomon ketadi. 1512 yil kuzida Bobur shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy laqabli lashkarboshi bilan Balxda uchrashib, Amudaryodan kechib o'tib, avval Huzar (G'uzor) qal'asini oladi, so'ng Qarshiga yurish qiladi, shahar uzoq muddatli qamaldan so'ng taslim bo'ladi, shahar himoyachilari qattiq jazolanadi. 1512 yil 24 noyabrda G'ijduvon jangida Bobur shayboniylardan yana yengilib, Kobulga qaytishga majbur bo'ladi. Bobur Mavarounnahrni egallash ilinjidan uzil-kesil umidini uzadi va butun e'tiborini Hindistonga qaratadi. 1519 yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabit etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5-6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi. Nihoyat, 1526 yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyining yuz ming kishilik qo'shinini 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi. Oradan ko'p o'tmay, ikkinchi

yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo‘lgan qismini o‘ziga bo‘ysundiradi. Agrani o‘ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi. Boburning o‘z she’riy asarlarini to‘plab, devon holiga keltirgan sanani ko‘rsatuvchi aniq tarixiy ma‘lumotlar ma‘lum emas. Ammo «Boburnoma»ning 1518-19 yillar voqealari bayoniga bag‘ishlangan faslida Bobur devonini Kobuldan Samarcandga yuborganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Demak, shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Mavarounnahrda ham tarqalgan. Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu she’ri, 209 ruboysi, 10 dan optik tuyuq va qit‘alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiyoj hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan. Hindiston yurishlari davri (1521)da Bobur «Mubayyin» asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Mavarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma‘lumotlar ham jamlangan. Valiha Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo‘ljallangan «Mubayyin»da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to‘g‘risida ham shar‘iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she’riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariysi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi. Bobur nomini dunyoga mashhur qilgan shoh asari «Boburnoma» ustidagi ijodiy ishini 1518-1519 yillarda boshlagan. Boburning yuqorida keltirilgan asarlaridan tashqari, «Xatti Boburiy», shuningdek musiqa san‘ati va harb ishlariga maxsus bag‘ishlangan qator risolalari ham bo‘lgan. Ammo keyingi ikki asar matni hanuz topilgan emas. «Xatti Boburiy»da muallif arab alifbosini tahrir etib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talafuz mezonlariga moslashtirgan. 1526 yil 21 dekabrda Boburga qarshi suiqasd uyuştiliradi. Mahv etilgan Ibrohim Lo‘diyning onasi oshpaazlar bilan til biriktirib, uning ovqatiga zahar qo‘shtiradi. Shuning asoratimi yoki ko‘p yillik mashaqqatli va qo‘nimsiz hayot ta’sirimi, har holda keyingi yillarda Bobur tez-tez kasalga chalinib turadi. 1527 yil oktyabrdan Bobur yana xastalikka uchragach, umrining oxirlab qolganini his etadi. Shunda Bobur o‘zi e‘tiqod qo‘ygan Xoja Ahror Valiyga ixlos bilan uning nasrda bitilgan «Voldiyya» asarini she’riy tarjima qiladi. Boburning mohir tarjimon sifatidagi qobiliyati namoyon bo‘lgan 243 baytlar asar katta ijodiy ilhom bilan juda qisqa muddatda yakunlangan. Boburning o‘z e‘tiroficha, tarjima tugashi hamonoq batamom sog‘ayib ketgan. Bu yillarda u «Boburnoma» fasllari ustida ishlashni davom ettirdi, yangi-yangi g‘azal-ruboysi yaratdi, o‘z iborasi bilan aytganda, «Hindistong‘a kelgali aytqon ash‘orni» tartibga solib, shuningdek, «Voldiyya» tarjimasini, «Xatti Boburiy» bilan bitilgan namuna va qit‘alarni Mavarounnahr va Afg‘onistonga, Humoyun, Xoja Kalon, Hindol va boshqaga yubordi. Humoyun Mirzoga atalgan ijtimoiy-axloqiy masalalarni tahlil etuvchi mashhur maktubi ham Bobur ijodiy faoliyatining yorqin qirralaridan biri bo‘ldi. Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 47 yoshida o‘zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o‘sha yerda dafn etildi, keyinchalik (1539), vasiyatiga muvofiq xoki Kobulga keltirilib, o‘zi bunyod ettingan «Bog‘i Bobur»ga qo‘yildi. Bobur O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra 1993 yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi. Andijon shahrida Bobur nomida universitet, teatr, kutubxona, milliy bog‘ («Bog‘i Bobur») bor. Bobur milliy bog‘i majmuasitsa «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi, shoirning ramziy qabr-maqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida (muallifi Ravshan Mirtojiyev) va Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuida (muallifi Qodirjon Salohiddinov) shoirga haykal o‘rnatildi. Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek Toshkentdagisi istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta’sis etildi. Sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bu medalning birinchi sovrindori bo‘ldi.

### 31-bilet

#### 1. Abu Muslim qo‘zg‘oloni.

747-yilda Abu Muslim aholini umaviylarga qarshi kurashga da‘vat etadi. Tez orada Abu Muslim Xurosonning poytaxti Marv shahrini egallaydi. Qo‘zg‘olon Mavarounnahr va Xurosonni qamrab oladi. Xalifa Marvon o‘z ixtiyoridagi barcha harbiy kuchlarni qo‘zg‘olonchilarga qar shi safarbar qilsa-da, ammo umaviylar hokimiyatini saqlab qola olmaydi. 749-yilda Abu Muslim boshliq qo‘zg‘olonchilar xalifalikning markaziy viloyatlari tomon yo‘l oladilar. Xalifalikning poytaxti Damashq shahri qo‘lga kiritilib, xalifa Marvon II taxtdan ag‘ dariladi. Uning o‘rniga abbosiyalar xonardonidan bo‘lgan Abul Abbas Saffoh (750–754) xalifalik taxtiga ko‘tariladi.

#### 2. Galikarnas maqbarasi haqida ma‘lumot bering.

Kichik Osiyoda Kariy viloyati bo‘lgan. Uning markazi nihoyatda boy va go‘zal Galikarnas shahri edi. Galikarnas maqbarasi mil. avv. 353-yilda vafot etgan hukmdor Mavsol xotirasi sharafiga bunyod etilgan. Bu maqbara ibodatxona vazifasini ham bajargan. Maqbaraning kengligi 66 metr, uzunligi 77 metr, balandligi esa 46 metr bo‘lgan.

#### 3. Muhammad Rizo Ogahiyayotida faoliyati.

Ogahiying asl ismi Muhammad Rizo Ernazar-biy o‘g‘li bo‘lib, 1809-1874-yillarda yashagan. 16 ta tarixiy, ma‘rifiy, tarjima asarlar muallifi. U arab, fors, turk tillarini puxta bilgan va Xorazmning 1812-1872-yillardagi tarixiga bag‘ishlangan asar yozgan. Xiva xonligi tarixiga oid «Riyoz ud-davla», «Zubdat ut-tavorix», «Gulshani davlat», «Shohidi iqbol» nomli asarlar yozgan. Ogahiying xalqparvarligi va xalq holiga befarq emasligi uning «Qish» g‘azalida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Ogahiy she’riyati, tarixnavislik va tarjimonlik faoliyati O‘rtal Osiyo hududidagina emas, balki XIX asr Sharq dunyosi madaniy hayotida chuqur iz qoldirdi. Munisning «Firdavs ul-iqbol» («Baxtlar bog‘i») asarini va «Ravzat us-safo» tarjimasini shogirdi va jiyani Ogahiy nihoyasiga yetkazdi.

### 32-bilet

#### 1. 2017–2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi.

2016-yilda saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama, jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagisi farmoni bilan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Strategiya dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan

masalalarini kompleks o‘rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan. Harakatlar strategiyasi 5 bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo‘yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda, alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Prezident rahbarlik qiladigan 14 kishilik Milliy komissiya tuzilib, u mazkur hujjatda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida, sifatli bajarilishini nazorat qiladigan bo‘ldi. Harakatlar strategiyasida mamlakatni yanada rivojlantirish bo‘yicha 5 ta ustuvor yo‘nalish keltirilgan:

I. Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish (moviy favorang – osmon va toza suv ramzi, Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi).

II. Qonun ustuvorligini ta’minalash va sud-huquq tizimini yanada isloq qilish (siyohrang – qonun ustuvorligi va or-nomuslilik ramzi).

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirish (tillarang – iqtisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va boylik ramzi).

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirish (qizil rang – hayot va aholining munosib turmush tarzini ta’minalash ramzi).

V. Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat (oq rang – tinchliksevarlik siyosati elementlari hisoblangan tinchlik va sofl ik ramzi).

### **2. “Qatag‘on qurbanlari xotirasi” memorial majmuasi haqida ma’lumot bering.**

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov (1938 – 2016) tashabbusi bilan 2000-yil 12-mayda Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi Bo‘zsuv kanali bo‘yida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi ochildi. U mustabid sovet rejimi davrida qatag‘on qilingan shahidlar xotirasiga bag‘ishlab o‘rnatilgan bo‘lib, millat fidoyilarining aksariyati shu yerda otib tashlangan edi. O‘zbekiston Respublikasida 2001-yildan boshlab har yili 31-avgust –qatag‘on qurbanlarini yod etish kuni sifatida o‘tkaziladigan bo‘ldi. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasida 2002-yil 31-avgustda “Qatag‘on qurbanlari xotirasi” muzeyi ochildi. Muzey Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati davrida Vatan ozodligi yo‘lidagi faoliyati uchun qatag‘on etilgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil qilingan. Bu minnatdor avlodlarning o‘z ajoddlari xotirasiga ehtiromidir.

### **3. Abulg‘oziy Bahodirxon Xorazm matabining asoschisi.**

Xiva xoni, tarixchi olim Abulg‘oziy Bahodirxonning (1603-1664) „Shajarayi turk“ asari ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Asarda juda katta tarixiy dalillar to ‘plangan. Asar turkiy qabilalar shajarasi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. U kitobxonni Xiva va xivaliklar, shuningdek, Abulg‘oziyning ham o‘zaro urushlar oqibatida parchalanib ketgan davlatni birlashtirish yo‘lida olib borgan shiddatli kurashi bilan ham tanishtiradi. Asaming 1512-1663-yillardagi Xiva ijtimoiy-siyosiy tarixiga, Xiva-Buxoro munosabatlari bag‘ishlangan IX bobi tarix fani uchun katta ahamiyatga ega.

## **33-bilet**

### **1. Doro I islohotlari.**

Doro I butun mamlakat uchun «darik» deb nomlangan yagona oltin tangani muomalaga kiritdi. U qadimgi Fors podsholigi qarorgohi Persepol shahridan O‘rtayer dengiziga qadar «shoh yo‘li» degan savdo yo‘lini qurdirgan edi. Doro I qo‘sishlarni qaytadan tuzdi, sultanatni «satrapliklar» deb nomlangan alohida harbiy-ma’muriy o‘lkalarga taqsimladi.

### **2. Oqsaroy yodgorligi haqida ma’lumot bering.**

Oqsaroy me’moriy majmuasi buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur tomonidan bunyod etilgan. Me’moriy obidaning qurilishida bir qator ashayolar: xarsang tosh, marmar, taxta, loy va turli o‘lchamdagisi pishiq g‘ishtlar ishlatilgan. Inshoot o‘sha davrda qurilgan boshqa me’moriy inshootlardan o‘zining me’moriy yechimi bilan ajralib turgan. Koshinkor va parchinkor naqshlari insonni beixtiyor lol qoldiradi. Yana shuni ham aytib o‘tish lozimki, inshoot peshoqining gul dor naqshlari orasiga “Agar bizning quvvat va quadratimizga ishommasang, bizning imoratlarimizga boq”, degan so‘zlar bor. Shuningdek, saroyning bosh peshtoqidagi koshinkor morpechida eronlik koshinpaz usta Muhammad Yusuf Tabriziying nomi ikki joyda zikr etilgani aniqlangan. Oqsaroy rivojlangan o‘rta asrlarning so‘nggi davrida, 1380-1404-yillar oralig‘ida bunyod etilgan. Me’moriy obidaning uslubi haqida gapiradigan bo‘lsak, inshoot Sharqning “Chor” uslubida, dastlab maqbara, keyin saroy vazifasida va uslubida bunyod etilgan. Obidaning o‘ziga xos tomonlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, Amir Temur o‘z davlatining shon-shuhrati uchun uning markaziy qismi bo‘lgan Mavarounnahrning obodonchiliga alohida e’tibor beradi. Shu maqsadda Hindistondan olib kelingan yuzlarcha mohir g‘isht teruvchilar, Sheroz, Isfahan va Damashqning mashhur usta-hunarmandalri qatorida mahalliy ustalar ham mamlakatda go‘zal imorat-u inshootlar barpo qiladilar. Bundan tashqari, manbalarda aytishchicha, obida Amir Temur va temuriylar tomonidan bunyod etilgan me’morchilik odidalarining eng balandi bo‘lib, uning balandligi 70 metrni tashkil qilgan. Kirish peshtog‘ining janubida olib borilgan arxeologik qazishmalar, unga yondoshgan polning serhasham, naqshinkor koshin qoplama bezagini ochib berdi. Oqsaroydan hozirda faqat peshtoqning ikki asosi saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ular o‘lmas taassurot qoldiradi. O‘z davrida ular oralig‘ida eni 22 metrli ravoq qurilgan. Asoslarik ikki chekkasi, osti ko‘p qirralik, yuqorisi aylana guldasta burjlar bilan tugallangan. Bugungi kunda Oqsaroyning peshtoq, ark qismi mavjud emas. U XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 40-yillarda tushib ketgan va hozirgi holatdagi ko‘rinishga kelib qolgan. Hozirda Oqsaroyning ikkita tayanch qismi mavjud bo‘lib, uning balandligi 38 metrni tashkil qiladi. 1996-yil Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Oqsaroy ro‘parasida Amir Temur haykali o‘rnatildi. Bu inshoot atrofi bugungi kunda obodonlashtirilgan, turli joylardan tashrif buyurgan sayohatchilarining diqqat-markazida bo‘lib kelmoqda. 2002-yil Shahrisabz shahrining 2700 yilligi munosabati bilan Oqsaroy atrofida ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. 2000-yilda Shahrisabzning Amir Temur va temuriylar davri me’morchilik yodgorliklari (24-sessiya, Avstraliya) “Butunjahon madaniy meroslari ro‘yxatiga”ga kiritilgan. YUNESKOning “Umuminsoniyat merosi” kitobi ro‘yxatiga kiritilgan Oqsaroy yodgorligining tarixiy favvoralari maydonidagi gorizontal mozaika va mayolikalarini konservatsiyalash loyihasini tayyorlangan.

### **3. Yusuf Xos Hojib hayoti va faoliyati.**

Turkiygo‘y adib, mutafakkir va davlat arbobi bo‘lgan Yusuf Xos Hojib (XI asr) “Qutadg‘u bilig” dostonining muallifidir. U qoraxoniylarning markaziy shaharlaridan bo‘lgan Bolasog‘unda tug‘ilgan. Yusuf bu yerda arab, forsyi til va undagi adabiyotlarni puxta o‘rgandi. Falsafa, mantiq, matematika va boshqa bilimlarni mukammal egalladi, davlat ishlari, idora qoidalari bilan qiziqlidi. Yusufning hayoti va ijodiy yo‘li haqidagi ma’lumotlar juda oz. Yusuf Xos Hojib haqida ma’lumot beruvchi yagona manba “Qutadg‘u bilig” dostonidir. U 1069-yilda “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asarini Bolasog‘unda yoza boshlaydi va 1070-yilda Koshg‘arda tugatadi. Asarni qoraxoniylar hukmdorlaridan bo‘lgan Tavg‘och Bug‘roxonga taqdim etadi. “Qutadg‘u bilig” Tavg‘och

Bug'roxonga ma'qul kelib, Yusufga "Xos Hojib" (eshik og'asi) martabasini beradi. O'shandan boshlab adibni Yusuf Xos Hojib deb atay boshlaydilar. Asarda inson va uning ijtimoiy mohiyati, hayotdagi o'rni va vazifasi har tomonlama tahlil qilinadi. "Qutudg'u bilig"da oddiy xalq, mehnatkash inson alohida ehtirom bilan tasvirlanadi. "Qutadg'u bilig"da axloq, odob, sadoqat va va sevgi kabi masalalar haqida hikmatli so'zlar yuritadi. U ilm va ma'rifikatga saodatning kaliti deb qaraydi. Shuning uchun ham o'z dostonini "Qutadg'u bilig" deb ataydi. Unda ilm va ma'rifikatni targ'ib qiladi, olimlarni ulug'laydi, davlat boshliqlarini ilm-fan ahllaridan ta'lif olishga va ularning maslahatlari bilan ish ko'rishga da'vat qiladi

## 34-bilet

### 1. Xristofor Kolumb kashfiyotlari

Genuyalik, admiral Xristofor Kolumb (1451-1506) o'z oldiga Atlantika okeani orqali Hindistonga boradigan yo'l ochishni maqsad qilib qo'ydi. Nihoyat, X. Kolumb Ispaniya qirolik oilasi bilan Hindistonga yo'l ochish Xristofor Kolumb uchun ekspeditsiyani boshlash haqida shartnomaga tuzishga muvaffaq bo'ldi. Shartnomaga ko'ra, qirol ekspeditsiyaning xarajatlarini o'z zimmasiga oldi. X. Kolumb 1492-yilning 6-avgust kuni 3 ta kemada birinchi ekspeditsiyasini boshladi. 1492-yil 12-oktabr kuni X. Kolumb ekspeditsiyasi a'zolari Karib dengizidagi orollardan biriga kelib tushdi. X. Kolumb bu orolni San-Salvador («Muqaddas xaloskor») deb atadi (hozirgi Bagama orollari davlati hududidagi orol). Shu tariqa Hindistonga olib boradigan suv yo'lini ochish maqsadida uyushtirilgan ekspeditsiya Amerikaning kashf etilishiga sabab bo'ldi. Biroq X. Kolumb 1492-yilda Hindistonga emas, Amerikaga kelib qolganligini anglamadi. U Hindistonga keldim, deb hisoblar edi. Shuning uchun ham X. Kolumb Amerikaning mahalliy aholisini hindular deb atadi. Amerikaga 4 marta ekspeditsiya uyushtirdi. Bu ekspeditsiyalar natijasida ochilgan hududlarda Ispaniya bayrog'i hilpiray boshladi. Shu tariqa bu hududlar Ispaniya mulkiga aylandi. X. Kolumb esa o'sha hududlarning vitse-qiroli etib tayinlandi. 1492-yil 12-oktabr Amerika qit'asining rasman kashf etilgan kuni hisoblanadi.

### 2. Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuyi haqida ma'lumot bering.

Samarqanddagagi me'moriy yodgorlik, ziyoratgoh. Imom al-Buxoriy dafn etilgan Payariq tumani Xartang qishlog'idagi qabriston musulmon ahlining eng tabarruk va aziz ziyoratgohlaridan bo'lib kelgan. 16-asrda Imom al-Buxoriy kabri ustiga mo'jazgina maqbara, yoniga masjid qurilib, hovlisiga bir necha tup chinor ekilgan. Lekin sho'ro tuzumi davridagi dahriylik siyosati tufayli bu maskan qarovsiz ahvolga tushib qolgan. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Imom al-Buxoriy kabi butun umrini iymon va e'tiqod, ilm-ma'rifikat, diyonat yo'lida baxshida etgan ulug' zotlar xotiralarini e'zozlash, ular nomlari bilan bog'liq joylarni obodonlashtirishga alohida e'tibor berila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 29 apreldagi "Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori asosida allomaning maqbarasi o'rnida maxsus yodgorlik majmui barpo etildi. Bu yodgorlik majmui O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida yaratilgan loyiha asosida Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Andijon, Namangan, Qo'qon, Shahrisabz xalq ustalari tomonidan 1998 yilda qurildi. Majmua avvalambor ziyoratgoh, muqaddas qadamjo, so'ng kundalik, juma, hayit namozlari o'qiladigan joy vazifasini o'taydi. Bu yerda hadis ilmini o'rganish va boshqa ma'rifikati ishlarni amalga oshirish ham ko'zlangan. Maqbara markazida oqishko'k shaffof oniks toshdan ishlangan sag'ana o'rnatilgan. Maqbaraning o'ng tomonidagi eshikdan zina orqali maqbaraning ostki qavatiga - daxmaga tushiladi. Yuqori qavatdagi sag'ananing aynan ostida Imom al-Buxoriy jasadlari qo'yilgan qabr marmartosh bilan qoplangan. Hovlining chap tomonida masjid joylashgan. Masjid-xonaqohning umumiy maydoni 786 kv.m. Peshayvonining umumiy maydoni 214 kv. m. Xonaqoh va peshayvonda 1500 ga yaqin kishi namoz o'qishi mumkin. Hovlining o'ng qanotida ham peshtoqli va miyonsaroysi bino bor. Miyonsaroy gumbazi ham boshqa gumbazlar bilan bir xil shaklda va o'lchamda qurilgan. Bu binoda kutubxona, ilmiy xodimlar xonasasi va boshqa yumushlarga mo'ljallangan xonalar mavjud. Bularning umumiy maydoni 946 kv. m. Peshayvonining maydoni 110 kv.m. Kutubxonada Qur'on karimning noyob qo'lyozmalari, turli nashrlari, Imom al-Buxoriy asarlarining nashrlari va boshqa kitoblar bor. Majmua to'rida - maqbaraning orqa tarafida hadis ilmini o'rganishga mo'ljallangan o'quv markazi – "Dorul hadis" binosi joylashgan.

### 3. Munavvar qori Abdurashidxonov hayoti va faoliyati.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) - Turkiston o'Tkasida ozodlik, millat kelajagi uchun ku-rashgan ma'rifikatparvar siyosiy arbob, jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri. 1904-yildan boshlab o'Tkadagi ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatlarning faol ishtirokchisi. U jadid maktablari ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jurnallar asoschisi, muharriri hamda jadid teatri targ'ibotchisi bo'lgan. Munavvarqori maktablar uchun «Adibi avval», «Adibi soniy», «Yer yuzi» kabi darsliklarni yaratdi.

## 35-bilet

### 1. Ivan Grozniy islohotlari.

Ivan IV ichki siyosatining asosiy vazifasi dvoryanlar tabaqasini kuchaytirish orqali boyarlar mavqeyini zaiflashtirishdan iborat edi. Shu maqsadda 1549-yilda Ivan IV birinchi bor erkin aholi turli toifalari vakillarining yig'ilishini - Zemstvo soborini chaqirdi. Ivan IV Zemstvo soborida boyarlar hokimiyatini keskin qoraladi. Sobor yangi Sudebnik tuzish haqida qaror qabul qildi. Unga ko'ra, bundan buyon dvoryanlarni ayblari va nojo'ya qilmishlari uchun boyarlar sudiga berish taqilandi. Dvoryanlardan ming nafariga Moskva uyezdidan yer-mulk ajratib beriladigan bo'ldi. Davlat lavozimlarini faqat zodagon naslidan bo'lganlar egallashi tartibiga ham chek qo'yildi. Boyarlarning o'zları uchun aholidan yig'adigan soliqlar bekor qilindi. Joylarda boyarlar boshqaruvi o'rniga Zemstvo (mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari) tuzildi. Sudebnik krepostnoy dehqonlarning bir yer egasidan boshqasiga o'tishini yiliga bir kun - 26-noyabr bilan cheklab qo'ydi. Boyarlar hokimiyatiga zarba berish maqsadida 1565-yilda Ivan IV davlat yerlaridan katta qismini ajratib oldi. Bu yerlar oprichnina deb ataldi. Boyarlarning yerkarsi ham oprichninaga qo'shib yuborila boshlandi. Oprichnina podsho yerlari deb ham atalib, ularga dvoryanlar joylashtirildi. Oprichnina yerlari ularga bo'lib berildi. Endi ular dvoryan oprichniklar deb atala boshlandi. Binobarin, oprichnina yerlarning podsho hokimiyatining tayanchi bo'lgan dvoryanlar foydasiga qayta taqsimlanishi ham edi. Ivan IV bundan buyon boyarlarni Boyarlar dumasisiz o'zi sud qilishini va o'zi jazo belgilashini e'lon qildi. Davlat yerlarning oprichninaga tortilmagan qismiga katta miqdorda soliq joriy etdi. Oprichnina o'z qo'shiniga ega bo'ldi. U podshoning o'z raqiblarini jazolash quroliga

aylantirildi. Oprichnina boyarlar va feodal tarqoqlik qoldiqlariga kuchli zarba berdi. Ayni paytda, oprichnina mamlakat xo‘jaligiga katta talafot yetkazdi. Nafaqat boyarlar, o‘n minglab oddiy odamlar ham qurban bo‘ldi. Bu esa jamiyatning turli qatlamlarida oprichninadan norozilikni kuchaytirdi. Natijada Ivan IV 1572-yilda oprichninani bekor qilishga majbur bo‘ldi. Krepostnoylik tartiblari yanada kuchaydi.

## 2. Toshkent metropoliteni haqida ma’lumot bering.

Toshkent metropoliteni - Toshkent shahar yulovchilar transporti korxonalarini uyushmasi tarkibida bo‘lib, uning qurilishi 1973 y.da boshlangan, birinchi (Chilonzor) liniyasining 9 stansiyadan iborat, uzunligi 12,2 km birinchi navbati («Sobir Rahimov», «Chilonzor», «Mirzo Ulug‘bek», «Hamza», «Yoshlik», «Xalqlar do’stligi», «Paxtakor», «Mustakillik maydoni», «Markaziy xiyobon» bekatlari) 1977-yil 6-noyabrda, ikkinchi navbati («Hamid Olimjon», «Pushkin», «Buyuk ipak yo‘li» bekatlari, uzunligi 4,6 km) 1980 y. 18 avg .da foydalanishga topshirildi, bekatlar soni 12 taga etdi. Metropolitenning umumiy uzunligi 8 km bo‘lgan ikkinchi (O‘zbekiston) liniyasining birinchi navbati («Alisher Navoiy», «O‘zbekistan», «Kosmonavtlar», «Oybek», «Toshkent» bekatlari) 1984-y. noyabrda, ikkinchi navbati («Mashinasozlar», «Chkalov» bekatlari) 1987-y. noyabrda ishga tushdi. Shu liniyaning uchinchi navbati 1989 y. noyabrda («G‘afur G‘ulom», «Chorsu» bekatlari, uzungligi 2,2 km), to‘rtinchchi navbati («Tinchlik» va «Beruniy» bekatlari, uzunligi 3,2 km) 1991-y. 30-aprelida ishga tushdi. Bu liniyaning umumiy uzunligi qariyb 15 km ga etdi Metropolitenning shahar markazini Yunusobod turar joy massivi bilan bog‘laydigan (umumiy uzunligi 14 km) uchinchi (Yunusobod) liniyasining birinchi navbati («Mingo‘rik», «Yunus Rajabiy», «Abdulla Qodiriy», «Minor», «Bodomzor», «Habib Abdullaev» bekatlari) 2001 y. 26 oktyabrda ishga tushdi. Metropolitenda qatnaydigan poyezdlarning o‘rtacha tezligi 39 km/soat, maksimal tezligi 65 km/soat. T.m.da sugkasiga o‘rtacha 270-300 ming yo‘lovchi tashiladi. Yo‘lovchilarga qulaylik yaratish uchun ba’zi bekatlarda eskalatorlar o‘rnatalgan. Metrodagagi «Chilonzor», «Hamza» bekatlari gumbazsimon, «Mustaqillik maydoni» yig‘mamonolit konstruksiyali kolonna tipida, boshqa bekatlar esa kolonna tipida qurilgan. Har bir bekatning badiiy me’morlik hamda haykaltaroshlik nuqtai nazaridan bezatilishi ramziy ravishda shu bekat nomini aks etdiradi. Ularda madaniy, monumental dekorativ va amaliy san’atning milliy an‘analari o‘z aksini topgan. Bekatlarga bezak berishda, asosan, O‘zRda chiqadigan qora, qizil, kulrang granitlar, turli xil marmar, keramika, stomalit, yog‘och, oyna, turli xil metall va b. foydalanilgan. Metropoliten. 9 balli zilzilaga bardosh beradi. Toshkent metropolitenining umumiy uzunligi 38,25 km, bekatlar soni 29 ta (2004). 2016-yildan boshlab Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 7,1 kilometr bo‘lgan Toshkent metropolitenining Sergeli liniyasi qurilishi olib borilmoqda. Mazkur qarorga ko‘ra, yangi liniyani 2020-yilga qadar qurib foydalanishga topshirish ko‘zda tutilgan. Sergeli metro liniyasi bugungi kungacha Markaziy Osiyoda qo‘llanilmagan butunlay yangicha estakada usulida bunyod etilmoqda. Ya’ni mazkur yo‘l ko‘priksimon tarzda quriladi, poyezdlar yer ustida harakatlanadi. Toshkent metropolitenining umumiy uzunligi bo‘yicha dunyoda 108-o‘rinda, sobiq SSSR davlatlari orasida 7-o‘rinda turadi.

## 3. Kamoliddin Behzod hayoti va ijodi.

Kamoliddin Behzod (1455–1536) XV asr tasviriy san’atining ulug‘ namoyandasidir. U musavvirlikda “Hirot maktabi” deb nomlangan yangi bir ijodi uslubning asoschisi bo‘ldi. Behzod o‘z davrida Moniyi Soniy (Ikkinchi Moniy) deb ulug‘langan. U ustoz san’atkor sifatida O‘rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o‘lkalar tasviriy san’atining taraqqiyotiga samarali ta’sir etdi. Behzodning ijodi xilma-xil mazmunga ega bo‘lib, u tarixiy siymolar (Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Alisher Navoiy) portretlaridan tortib to serjilo hukmdor saroylaridagi qabul marosimlari va jang maydoni manzaralarigacha haqqoniy va ta’sirli qilib bera olgan.

Dehlaviyning “Layli va Majnun” dostoniga bag‘ishlangan uning lirik manzaralari yoki Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari uchun chizilgan jang maydonidagi shiddatli jang tasvir etilgan miniaturalari nihoyatda jozibador va ta’sirchandir. Behzod an‘analari keyingi davr rassomlari ijodiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi. Uning ijodi va merosi san’atshunoslar, rassomlar tomoni dan keng o‘rganiladi. Behzod nomini abadiylashtirib, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1997-yil 23-yanvardagi farmoniga binoan Kamoliddin Behzod nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etildi, Milliy rassomlik va dizayn institutiga Behzod nomi berildi. 2000-yil noyabrda Toshkent, Samar qand shaharlarida va xorijiy mam lakatlarda YUNESKO homiyligida Behzod tavalludining 545 yilligi keng nishonlandi, Toshkent shahrida Behzod nomidagi memorial bog‘ barpo etildi. Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeysiда Behzodga bag‘ishlab Buyuk Britaniya, Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Tojikiston va O‘zbekiston san’atshunos olimlari ishtirokida xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazildi.

## 36-bilet

### 1. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirilishi.

1991-yil noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 1997-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet ellarda o‘qishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “Umid” jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida farmoni e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘sheimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda yuksak ma’nnaviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaliviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirgan har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Ushbu qaror ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni, jumladan, qizlarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yanada keng sharoitlar yaratishga qaratilgan. Mustaqillik yillarda yosh iqtidorli qizlarning adabiyot, madaniyat, san’at, fan va ta’lim yo‘nalishlarida o‘z iste’dodini, salohiyat va qobiliyatlarini namoyon etishlariga imkoniyat yaratib bergen O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yilda qabul qilgan “Zulfi ya nomidagi davlat mukofotini ta’sis etish bo‘yicha taklif arni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni jamiyat hayotida yetuk mutaxassislar, yetakchi va iqtidorli qizlarning shakllanishiga zamin yaratdi. 80 nafarga yaqin xotin-qizlarning mumtoz qo‘sishchilik, akademik ijro, estrada, opera, balet, cholg‘u ijrochiligi, an‘anaviy ijrochilik, raqs yo‘nalishlarida “Nihol” mukofoti bilan taqdirlangani tom ma’noda ularga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlikning yorqin ifodasidir. 2016-yilda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Unga ko‘ra, 30 yoshgacha bo‘lgan barcha toifadagi shaxslar yoshlar ekanligi qayd etilgan. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashga, yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar mas’uliyatini kuchaytirishga, ushbu

sohada sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. 1996-yil «Kamolot» yoshlar jamg‘armasi tuzildi. 2001-yil bu jamg‘arma «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatiga aylantirildi. 2017-yil mazkur harakat faoliyatini tugatilib, «O‘zbekiston yoshlar ittifoqi» tashkil etildi. 30-iyun sanasi «Yoshlar kuni» sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Istiqlol yillarda yoshlarning har tomonlama yetuk, barkamol voyaga yetishi uchun mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Xususan, 23 ta qonun va 100 dan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Bundan tashqari, yillarga nom berishda ham yoshlarning manfaatlari alohida e’tiborga olindi. Xususan, 2000-yil – “Sog‘lom avlod yili”, 2001-yil – “Onalar va bolalar yili”, 2008-yil – “Yoshlar yili”, 2010-yil – “Barkamol avlod yili”, 2014-yil – “Sog‘lom bola yili”, 2016-yil – “Sog‘lom

ona va sog‘lom bola yili”, deb e’lon qilinib, yaxlit chora-tadbirlar dasturlari amalga oshirildi. Prezidentimizning 2017-yil iyuldagagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofi q mamlakatimizdagi barcha harbiy akademik litseylarga “Temurbeklar maktabi” nomi berildi. Yoshlarni yanada rag‘batlantirish maqsadida “Mard o‘g‘lon” mukofoti ta’sis etildi.

## 2. Ismoil Somoni maqbarasi haqida ma’lumot bering.

O‘rta Osiyoda Somoniylar davri me’morchiliginin nodir namunalardan biri bo‘lgan bu tarixiy obida Ismoil Somoni tomonidan buning etilgan. Ismoil Somoni maqbarasi o‘rta asrlarning rivojlangan davrida (IX-X asr), 864-868-yillar oraliq‘ida, hozirgi Buxoroning eski shahar qismida qurilgan. Inshoot qabr vazifasini bajarganligi sababli, uning intereri uch pog‘onali (to‘rtlik – to‘rt devor, sakkizlik – devordan toonga o‘tish qismi va gumbaz – tom ko‘rinishdagi) bir xonali kvadrat shaklni tashkil qilgan. Uning qurilishida pishgan g‘isht, tosh va yog‘ochdan foydalilanigan. Maqbaraning dizayniga to‘xtaladigan bo‘lsak, jimgima g‘ishtin bezaklari chiviqli to‘siq yoki qamish, bo‘yra to‘qimasini eslatadi. Devor qalinligi – 1,8 m., tarhi – tashqarisi 10,80x10,70 m., ichkarisi 7,20x7,20 m. Usti gumbaz bilan qoplangan. To‘rt burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga 4 qubba o‘rnatalgan. Devor tepasida kungirasimon darcha (40 ta). Har bir darcha hoshiyalangan. Ravoq tepasidagi qanos g‘ishtin tangachalar marjoni bilan chegaralangan. Ikki chetiga mayda-mayda g‘ishtdan chorus tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashqaridagi bino bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, usslub jihatidan bir xil. Ichki devor gumbaz osti bag‘alidagi ustma-ust ravoqchalar – ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar 8 qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirkaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan. Arxeologik qazilma vaqtida (1927) xona sahnida 2 yog‘och sag‘ana borligi aniqlangan. Ismoil Somoni maqbarasi 4 tomoni bir xil chordara shaklida, uning tuzilishida qadimiy sug‘d me’morchiliginin an‘analari saqlanib qolgan buyuk me’moriy asar. Ismoil Somoni maqbarasi jahon me’morchilik va binokorlik matablarining noyob asari hisoblanadi. Tengi yo‘q bu arxitekturaviy yodgorlikni arxitektorlar va binokorlar faxr bilan tilga oladilar, tarixchilar yaratilishini o‘rganadilar, san‘at ahli esa uning tasvirlarini turli xil buyumlarda sevib aks ettiradilar. Ismoil Somoni maqbarasi IX asrda Buxoroda me’morchilik san‘ati, binokorlik texnikasining naqadar yuksalganligini va rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ana o‘scha davrdan boshlab binokorlikda yuqori sifatlari pishgan g‘isht, albastrli qorishmalar ishlatilgan. Ushbu nodir obidani tiklashgacha bo‘lgan davrda Buxoroda matematik bilimlar, xususan geometriya juda yaxshi rivojlangan. Professor M.Bulatov tomonidan uni barpo etishda qo‘llanilgan handasa qoidalari va qonuniyatlarini o‘rganish asosida doktorlik dissertatsiyasi yozilganligi ham bejiz emas. Hali inshootning o‘rganilmagan qanchadan-qancha qirralari, qonuniyatlar, qoidalari, qurilish usullari bor. Yuksak professional darajada barpo etilgan bu tarixiy yodgorlik o‘scha davrdagi eng tajribali quruvchilarni, eng qobiliyatli me’morlarni loyihalash va qurilish usullari bilan qurollantirganligi, ularning bilim va malakalarini nechog‘lik oshirganligi sir emas. Ismoil Somoni maqbarasi markazlashma inshoot bo‘lib, uning asosiy hajmini to‘rt devori ko‘tarilgan sari bilinar-bilinmas yengil qiyshaytirilgan kub va fazoviy gumbaz tashkil qiladi. Devor kvadratlari bilan gumbazni tutashtiruvchi konstruksiya inshootning o‘ziga xos jihatlaridan hisoblanadi. Maqbaraning barcha fasadlari bir xilda bajarilgan. Devorlar ichkari va tashqi tomonidan bezakli qilib yuqori sifatlari pishgan g‘ishtdan bejirim terilgan, qurilishda o‘ymakorlik usullaridan ham foydalilanigan. Dekorativ g‘isht terimi inshootga yengillik ifodasini baxsh etgan. Kirish eshik proyomlari strelka shaklidagi arka ko‘rinishida bajarilgan. Bu yechimlar, ayniqsa, strelkali arka va gumbazli tom konstruksiyalari, keyingi davrda nafaqat Buxoro me’morchiligidagi, balki butun Markaziy Osiyo me’morchiligidagi ham ko‘p ishlatilgan. Zaruriyati tug‘ilgan gumbazli yopmalarni ishlatishning ijobjiy tomonlari ko‘pdır. Ulardan biri shundan iboratki, o‘scha davrda uzoq vaqtga chidaydigan

konstruksiyalarning egilish qismlarida ham yaxshi ishlaydigan temirbetonga o‘xshagan buyum va konstruksiyalar deyarli mavjud bo‘limgan. Shu sababli ham tom yopma shunday ko‘rinishda bajarilganki, u shakl bo‘yicha buning etilgan har qanday konstruksiya asosan siqilishga ishlagan. Natijada inshootlarning proyomlari ko‘rsatkichli arka shaklida, tom yopmalari esa gumbaz shaklida g‘isht terimidan mustahkam qilib tiklangan. Boshqa tomonidan, quruq va issiq iqlimli, quyoshning katta radiatsiyasi yerga tushadigan sharoitda gumbazli yechim samaralidir. Quyosh nuri gumbazli tomming faqat qaysidir bir bo‘lakchasiq tik tushib, o‘scha qisminigina ko‘p isitadi; shu vaqtida gumbazli yopmaning qolgan qismlariga radiatsiya tik tushmaydi va tom ko‘p isimaydi. Gumbazli yopmaning uchinchi jihat shundan iboratki, bunday sirdan issiqlik tez ketib, tom tezda soviydi. Shamol esganda esa, bu jarayon yana ham intensivlashadi. Ismoil Somoni arxitekturaviy yodgorligi XI asrdan ortiq vaqt ichida yaxshi holda saqlanib qolgan. U jahon arxitekturasining takomillashgan asari, «Sharqning me’moriy durdonasi» degan nomlar bilan ham ataladi. Yodgorlik arablargacha bo‘lgan davr an‘anasi asosida bajarilgan bo‘lsa-da, u nafaqat Buxoroda, balki Markaziy Osiyo me’morchiligidagi ham yangi stil, yangi shakl va yangi yechimlarni yaratishning keyingi taraqqiyotini aniqlab bergen. Bino gumbazining o‘rtasida yorug‘lik tushishi va issiq havoning chiqib ketishi uchun gumbazcha bilan yopilgan baraban konstruksiya o‘rnatalgan bo‘lib, uning yon tomonlariga arkali proyomlar qo‘yilgan. Inshoot devorlarining tashqi burchaklari naqshli ustunlardan, devorlar va kirish eshiklarining arkalari esa bezakli, jilo berilgan g‘ishtlardan mohirona ishlangan. Gumbazli bino intereri bilan chuqurroq tanishilsa, uni yaratish san‘ati oldingi vaqtlardan boshlanganligiga va an‘anaga aylanganligiga ishchonch hosil qilinadi. Yodgorlikning arxitekturaviy tahlili uni Eron, Mesopotamiya me’morchiligi bilan genetik bog‘liqlikda ekanligidan guvohlik beradi. Bu inshootda bir necha tektonik yechimlar bir butunlikda, yaxlitlikda ishlab chiqilganligini inkor etib bo‘lmaydi. Turar-joy va madaniy arxitektura asoslardan ishchonch bilan foydalanganlik ushbu inshoot missolda Buxoro me’morchilik maktabining o‘scha davrda yuksak darajada rivojlanganligini ko‘rsatib turibdi. Demak, Ismoil Somoni maqbarasining hajm – samoviy va konstruktiv strukturasi undan keyin qurilgan gumbazli binolarning rivojlanishini aniqlab bergen. Me’moriy naqshlar, chiroqli jimjimador bezak elementlari, nihoyatda go‘zal va bejirim badiiy ifodalar o‘scha davrda g‘isht terish san‘atining gullab-yashnaganligidan dalolat beradi. Maqbaradagi g‘ishtlarning yuksak badiiy did bilan terilganligi uning jahon me’morchiligi ajoyib durdonalari silsilasidan o‘rin olishiga asos yaratgan. Maqbara gumbazsimon, Movarounnahr va Xuroson me’morchiliginin o‘ziga xos “Chor” uslubida qurilgan. Me’moriy obidaning o‘ziga xos tomoni shundaki,

u O'rta Osiyo arxitektura va san'at tarixidagi dastlabki maqbaralardan biridir. Ismoil Somoni maqbarasi loyihasidan tortib, hajmiy tuzilishigacha geometrik tartib asosida yaratilganligi uning boshqa maqbaralardan farqlantiruvchi xususiyatidir. Maqbara o'z davrida somoni amirlari dafn etilgan daxma hisoblangan. Hozirgi kunda me'moriy inshoot atroflari bog'ga aylantirilgan. U arxeologik qazishmalar orqali topilganligi uchun 60-50 sm pastda joylashgan. Bugungi kunda bu inshoot islam dunyosi ma'rifatparvarlari va allomalarining diqqat-markazida hamda turistlarning sayohatgohiga aylangan. Maqbaraga O'zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e'tiborga to'xtaladigan bo'lsak, 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Ismoil Somoni maqbarasi ham qayta ta'mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) "Butunjahon madaniy meroslari ro'yxati"ga kiritilgan.

### **3. Jiyen Jirov hayoti va ijodi.**

Jiyen Jirov (1730-1784) mashhur qoraqalpoq baxshisi, hajvchi shoir. „Hoy yigitlar, yigitlar“ va „Yuragimda ko'p dog'im“ kabi qator she'rlarida jamiyatdagi nohaqliklarni, hukmon tabaqalarning kirdikorlarini, xalqqa o'tkazgan jabr-zulmlarini fosh etadi. Qozoq xoni Abulxayrga qarshi olib borilgan urushda qoraqalpoqlar yengilib qolgan edi.

Bu mag'lubiyat natijasida ula r azob-uqubatlarga duchor etilgan. Xususan, Sirdaryo bo'ylaridagi qoraqalpoqlar har yoqqa tarqab ketgan. Ulaming bir qismi Toshkent atrofiga (Chirchiq bo'yalariga), boshqa bir qismi esa Qizilqum orqali Xorazmga (Orol dengizining janubiy sohillariga) ko'chib ketgan. Mana shu ko'chishlaming guvohi bo'lgan Jiyen Jirov „Darbadar el“ nomli doston yozib, unda qoraqalpoqlaming mashaqqatli davri tarixini haqqoniy bayon etgan. Baxslii sifatida „Alpomis“, „Qirqqiz“ kabi dostonlами zo'r mahorat bilan kuylagan.

## **37-bilet**

### **1. Pyotr I islohotlari.**

Rossiya ma'muriy boshqaruvi jihatidan guberniyalarga bo'lindi. Ular imperator tayinlanadigan gubernatorlar tomonidan boshqariladigan bo'ldi. Podsho huzuridagi Boyarlar dumasi tugatildi. Uning o'rniga Senat tuzildi. Senatga qonunlar loyihasini tayyorlash va davlat muassasalari faoliyatini nazorat qilish vakolatlari yuklatildi. Bundan tashqari, turli kollegiyalar (vazirliklar deyish mumkin) ham tuzildi va ular Senatga bo'ysundirildi. Pyotr I zamonaviy qo'shin ham tuzdi. Qo'shinda harbiy xizmat umrbod muddatda o'taladigan bo'ldi. Qo'shin rekrutlikka olish yo'li bilan shakllantirildi va zamon ruhiga mos ravishda qurollantirildi. Pyotr I islohotlari Rossianing taqdirida muhim rol o'ynadi.

### **2. Toshkentdag'i Mustaqillik maydonidagi "Motamsaro ona" monumenti haqida ma'lumot bering.**

Toshkentda 1999-yil may oyida Xotira va Qadrlash maydoni barpo etilib, unda "Motamsaro ona" haykali hamda xiyobonning shimoliy va janubiy tomonida qad ko'targan ayvonlar tokchalarida Ikkinci jahon urushida halok bo'lgan o'zbekistonlik barcha jangchilarining ism-sharifi bitilgan metall tokchalar o'rnatildi. Haykalda urushda o'z farzandini yo'qtgan onanining g'am-g'ussasi aks e tgan. Haykal yonida urushda halok bolganlar xotirasi uchun mangu olov yonib turadi.

### **3. Ismoil G'aspirali hayoti va faoliyati.**

Qrim-tatar ma'rifatparvari bo'Mgan Ismoil G'aspirali (1851-1914) butun turkiy xalqlar o'rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi hisobla-nadi. U diniy va dunyoviy bilimlami chuqur egallab, jahon taraqqiyoti bilan yaqindan tanishgan, bir nechta xorijiy tillami, turli xalqlaming madaniyatini o'rgangan edi. O'zi egallagan bilimlar asosida Sharq va G'arb dunyosini taqqoslab, turkiy xalqlaming taraqqiyotga erishish yo'llarini izlaydi. Ismoil G'aspirali 1884-yilda Qrimdag'i Boqchasaroyda birinchi jadid mакtabiga asos soldi. U o'zi tuzgan ta 'lim dasturi asosida darslik tayyorladi. Shu dastur bo'yicha 40 kunda 12 o 'quvchining savodi chiqarildi. Bu usul «usuli savtiya» - harf tovushi usuli, ya'ni «usuli jadid» nomi bilan keng tarqaldi. Uning 1888-yilda «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh» kitobi chop etildi. Unda yangi usul maktablarining ta'lim tizimi, dars o'tish va uning tashkil qilinishi, o'quv xonalarining jihozlanishi, dars jadvali, ta 'tillar, imtihonlar bayon etilgan.

## **38-bilet**

### **1. Gandimiyon shartnomasi haqida ma'lumot bering.**

K. P. Kaufman Xivani (1873-y) bosib olgandan so'ng xon xazinasini kontributsiya (tovon) evaziga musodara qilib, xazina bilan birga qadimiy qo'lyozmalar, xonning taxti va toji, tanga zarb qiladigan tamg'a va zerb tasviri, qo'ng'irot sulolasi xonlarining hokimiyati ramzları va boshqa qo'lga kiritilgan moddiy boyliklarni Sankt-Peterburgga jo'natdi. K. P. Kaufman Xivani egallagandan so'ng Xiva xonligi bilan muzokalarlar o'tkazish uchun Gandimiyon qishlog'idagi qarorgohiga bordi. U taklif etgan suhl shartnomasini Xiva xoni Muhammad Rahimxon II 1873-yil 12-avgustda imzolashga majbur bo'ldi. Ushbu shartnomasi Xiva xoni Rossiya imperiyasi tobeligiga o'tganligini ko'rsatardi. Shartnomaning birinchi moddasida: «Sayid Rahim Bahodirxon o'zini Butun Rossiya imperatorining sodiq xodimi deb tan oladi. U qo'shni hukmdorlar va xonlar bilan har qanaqa bevosita do'stona munosabatlardan va ular bilan biron-bir savdo yoki boshqa shartnomalar tuzishdan voz kechadi hamda Rossianing O'rta Osiyodagi olyi hokimiyati ruxsatsiz ularga qarshi hech qanday jangovar harakatlami amalga oshirmaydi», - deb yozib qo'yilgan edi. Bu bilan Xiva xoni mustaqil ravishda tashqi dunyo, hatto yaqin qo'shnilar bilan ham aloqa o'matish imkonidan mahrum etildi. Faqat ular bilan Rossiya imperiyasi roziligi bilangina aloqa qila oladigan bo'ldi. Xiva xonligiga qarashli Amudaryoning o'ng sohili, unga qo'shni yerkarning barchasi, bu joylarda yashaydigan o'troq va chorvador aholisi bilan xon tasarrufidan chiqdi. Amudaryo bo'ylab erkin harakatlanishi uchun Rossiya kemalariga keng huquq berildi. Rossiyalik savdogarlar hamda ularning mollari uchun xon va mahalliy hokimlar javobgar bo'ladigan bo'lishdi. Ular xonlikda erkin yurish, boj to'lovlarisiz savdo qilish huquqini qo'lga kiritdilar. Gandimiyon shartnomasida: «Amudaiyoning chap qirg'og'idagi ruslar uchun zarur va qulay bo'lgan yerga ular o'zlarining pristanlarini qurish huquqiga ega. Xonlik ushbu pristanlarning saqlanishi va xavfsizligi uchun javobgar. Ular uchun joyning tanlanishi, O'rta Osiyodagi rus olyi hokimiyatining tasdiqlashiga bog'liq», - deb ko'rsatib qo'yildi. Shartnomaga binoan Xiva xonligi 2 million 200 ming rubl miqdoridagi tovонni 20 yil davomida to'lashi belgilandi. Xonlik xazinasida yetarli darajada pul bo'maganligi uchun bu tovon aholidan yig'ib olinadigan bo'ldi. Gandimiyon shartnomasi Xiva xonligining Rossiya imperiyasiga tobeligini, xonning davlat boshlig'i darajasida boshqa davlatga bo'ysunganligini ko'rsatuvchi hujjat bo'ldi. Shartnomasi shu bilan birga xonlik aholisini juda og'ir ahvolga solib qo'ydi. Tovon bilan birga yangi soliq va majburiyatlar xalqning zimmasiga tushdi. Qolaversa, xonlik hududining uch

baravar qisqarishi xonlikning davlat sifatida nomigagina mavjudligini, aslida mustaqilligini yo‘qotgan protektoratga aylanganligini ko‘rsatardi.

## **2. Toj Mahal me’moriy obidasi haqida ma’lumot bering.**

Agradagi Jamna daryosi bo‘yida Shoh Jahon suyukli xotini Arjumand Bonu begimga (Mumtoz Mahal begin) atab vafotidan (1631 y. 17 iyun) so‘ng qurdirgan. Keyinchalik o‘zi ham shu yerga dafn qilingan. Obida qurilishida 28 yil Mavarounnahr va Xurosonning eng atoqli minglab usta-me’morlarining xizmatlari singgan. Toj Mahal yodgorligi Shoh Jahonning suyukli zavjasি Mumtoz Mahal Begim xotirasiga bag‘ishlab qurilgan. Toj Mahal 1632-1653 yillarda orasida hozirgi Hindistonning Agra shahrida bino etilgan bo‘lib, uning qurilishida 22000 usta hamda 1000 ta fil qatnashgan. Toj Mahalda barcha narsa simmetrik qilib qurilgan. Faqat ikki qabr ikki hil kattalikda qurilgan bo‘lib, erkak kishining qabri ayol kishinig qabridan kattaroq. Maqbara (loyiha me’mori Usta Ahmad Lahori) turk me’mori Muhammad Isoxon afandi boshchiligidagi buniyod etilgan. Tojmahal murabba tarhli, 3 qavatl, 5 gumbazli. Marmar supa (104x04x7 m) ustiga qurilgan. 4 burchagidagi ingichka minoralar (balandligi 45 m) maqbaraga o‘zgacha husn bag‘ishlagan. Devorlari oq marmar bilan qoplangan, turli rangdagi qimmatbaho toshlar (haqiq, marvarid, sadaf, qahrabo, zumrad, yoqut, fil suyagi va boshqalar)dan qadama naqshlar ishlangan. Bosh tarzi (eni 56,7 m) peshtoq ravoqli. Maqbaraning old tomoniga 2 qator daraxtlar ekilgan, favvorali hovuz, gulzorlashtirilgan uzun yo‘lka bor. Zinapoyalar bilan marmar supaga chiqib, o‘yma naqshli eshikdan maqbaraga kiriladi. O‘rtadagi katta gumbazli xonada qora marmarli sag‘ana (Shri Lankadan keltirilgan) qo‘yilgan. Tojmahalning beqiyos husni bog‘ning janubiy darvozasi orqali ko‘zga yaqqol tashlanadi. Mahobatli bino qurilishida nafaqat Hindiston, balki O‘rta Osiyo, Eron, Vizantiya me’morlarining o‘ziga xos uslublari o‘z ifodasini topgan. Maqbara qurilishida g‘isht teruvchi qandahorlik Muhammad Xanif, multonlik Muhammad Sayid, minorada mahalliy usta Ismoilxon Rumiy, samarqandlik Muhammad Sharif, lahorlik Kozimxonlar hamda ko‘pgina naqqosh va xattotlar qatorida buxorolik ota Muhammad va Shukur naqqoshlar qatnashgan. Binonig asosiy zinapoyasi o‘rta osiyolik Bekzod hunarmand tomonidan loyihalashtirilgan. Binoga 28 hil qimmatbaho va turli hil boshqa yarim qimmatbaho toshlar o‘rnatalgan edi. Ingliz Hindistonga bostirib kelgan davrda ushbu qimmatbaho toshlarni talon-taroj qiladilar. Toj Mahal tong saharda pushti, kunduzi sutday oq, tungi oy yorug‘ida esa oltinrang bo‘lib ko‘rinadi. Toj Mahal ustunlari zilzila paytida qabrlar ustiga qulamaydigan qilib qurilgan. Ushbu binoda barcha maqsadlarga mo‘ljallangan qurilmalar bo‘lib, uning ichidagi hammom alohida o‘rinni egallaydi. G‘aroyib tomoni shundaki, hammom bitta sham bilan isitilgan. Olimlar bu sirni ochish uchun ko‘p yillar mobaynida tahlil o‘tkazib, hammom qozonxonasining tepe qismi, atrofi, devorlari simmetrik ravishda bo‘lgan yorug‘likni o‘ziga qabul qilib, uni issiqlik energiyasiga aylantirib beradigan kuchli quvvatga ega bo‘lgan oynavand linza moslamalaridan tashkil topganligini, linzalarning joylashtirilishidagi mutanosiblik hatto bir millimetrga ham farq qilmasligini aniqlaganlar. Yorug‘lik to‘qqiz karra bo‘yicha sinib tushib, geometrik progressiya shaklida to‘qqiz marta to‘qqiz karra to‘qqizga ko‘paytirish quvvatiga ega bo‘lgan, bitta shamning yorug‘ligi natijasida 80-1000 Selsiy issiqlik darajasini bergan. Inglizlar Hindistonne istilo qilgan davrlarda bu sirni ochish maqsadida ushbu oynalarni va g‘ishtlarni alohida-alohida ajratib olganlar, natijada qayta joyiga qo‘yilganda isitish quvvati yo‘qolgan va o‘z xoliga qaytmagan. Shoh Jahon daryoning boshqa tarafida qora marmardan yana bir Toj Mahal qurishni rejalashtirgan edi. Lekin, o‘g‘li bilan boshlangan urush natijasida qurilish ishlari boshlanmay qolib ketadi.

## **3. Marko Poloning hayoti va sayohatları.**

Venetsiyalik savdogarlar – Pololar oilasi vakillari XIII asrda mo‘g‘ullar xonining Osiyoning ichkarisidagi qarorgohiga yetib boradi. Marko Polo 25 yil davom etgan sayohatining 17 yilini Xitoyni egallagan mo‘g‘ullar xoni Xubilay saroyida xizmatda o‘tkazib, yevropaliklardan birinchi bo‘lib bu sirli o‘lkalarni o‘z kitobida tavsiflaydi. Yevropaliklar faqat XIX asrdagina dengiz orqali o‘tib, XIII asrda Marko Polo sayo hat qilgan o‘lkalarni o‘z ko‘zlar bilan ko‘radilar. Marko Poloning kitobidagi Sharq mamlakatlarining afsonaviy boyliklari 200 yildan so‘ng genuyalik dengizchi Xristofor Kolumbda shunchalik katta taassurot qoldiradiki, u nima bo‘lganda ham Hindistonning boy sohillariga yetishga qaror qiladi.

## **39-bilet**

### **1. MDHni tashkil topishi.**

1991-yil 8-dekabrda Belorus, Rossiya va Ukraina rahbarlari Minskda uchrashib Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga asos soldilar. 1991-yil 21-dekabrda Ozarbayjon, Armaniston, Belorus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston va Ukraina davlatlari boshliqlari Almatida uchrashib, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo bo‘lib kirdilar. Shu tariqa XX asrning muhim voqealaridan biri sodir bo‘ldi – MDH ixtiyoriy iqtisodiy uyushma yuzaga keldi. Shundan buyon MDHning bir necha yig‘ilishlari o‘tkazildi, ko‘p hujjatlar qabul qilindi. Ularning bari uzoq yillarda davlat bo‘lib kelgan mamlakatlararo iqtisodiy, madaniy, harbiy va boshqa aloqalarni yangi sharoitlarda – mustaqil davlatlararo munosabatlar tarzida davom ettirishga qaratildi. 1993-yil yanvarda Minskda MDH davlatlari boshliqlarining navbatdagi Kengashida MDHning Nizomi qabul qilindi. 1993-yil dekabrda Ashxabod shahrida MDH davlatlari boshliqlarining Kengashi bo‘lib, unda Gruziya MDHga a‘zo etib qabul qilindi. Shu munosabat bilan MDHning tarkibi 12 davlatga yetdi. 1994-yil oktabrda Moskvada o‘tkazilgan MDH davlat boshliqlarining Kengashida Davlatlararo iqtisodiy qo‘mita (DIQ) tuzildi. DIQning shtab-kvartirasi Moskva shahri etib belgilandi. 1996-yilda MDHning bayrog‘i qabul qilindi. MDHning raisi lavozimi navbat bilan bir davlat rahbaridan keyingi davlat rahbariga o‘tadi. MDHning asosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun hamdo‘stlik davlatlari o‘zaro munosabatlarida davlat suverenitetini o‘zaro tan olish va hurmat qilish, teng huquqlilik va bir-birlarining ichki ishlari aralashmaslik, iqtisodiy kuch yoki boshqa tazyiq uslublarini qo‘llashdan voz kechish kabi qoidalarga rioya qilish majburiyatlarini olganlar. 2004-yil sentabr oyida Qozog‘iston poytaxti Ostонada bo‘lib o‘tgani MDHning sammitida terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha MDHning “Xavfsizlik Kengashi”ni tuzishga qaror qilindi. 2005-yil avgustda Turkmaniston MDHning rasmiy a‘zosi darajasidan chiqib, hamdo‘stlikning tashkiliy a‘zosi – kuzatuvchi maqomini oladi. 2008-yilning avgust oyida Gruziya Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidan chiqish haqidagi istagini bildirdi va 2009-yilning avgust oyidan Gruziyaning MDHga a‘zolik maqomini to‘xtatish to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi. Bugungi kunda MDHning tarkibiga 10 ta a‘zo davlat: Rossiya, Ukraina, Belorus, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Armaniston, Moldova va bitta kuzatuvchi Turkmaniston kiradi.

### **2. Aleksandriya mayog‘i haqida ma’lumot bering.**

Mil. avv. 283-yilda o‘scha zamonning ajoyib mo‘jizasi - Aleksandriya mayog‘i buniyod etilgan. Mayoq kemalarining Aleksandriya shahri bandargohiga kirish xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qilgan. Mayoqning balandligi 120 metr edi. Uning eng yuqori qismi

gumbaz bilan qoplandi. Gumbazning ustiga «dengiz xudosi» Poseydonning 7 metrlik haykali o‘rnatildi. Gumbazni sayqallangan granit (tug‘ jinsi) ustunlar ushlab turgan. Uning ustki qismida kechasi bilan yonib turgan mayoq olovi dengizchilarga uzoqdan ko‘rinib turgan. Mayoq atrofni kuzatish nuqtasi vazifasini ham bajargan.

### **3. Jaloliddin Manguberdi Vatan qahramoni.**

Jaloliddin Manguberdi (to‘liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad) (1198-1231) – Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori (1220-1231), mohir sarkarda. Anushteginiylardan. Jaloliddin burnida xoli (mank) bo‘lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o‘zgarib “Manguberdi” nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan. buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi hukmronligi, uning mo‘g‘ul istilochilariga qarshi qahramonona kurashi hamda G‘arbiy Osiyo sarhadlaridagi faoliyatini uning shaxsiy kotibi (kotib al-insho), tarixchi Shihobiddin ibn Ahmad an-Nasaviy qalamiga mansub “Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni” (“Sulton Jaloliddin Manguberdiming tarjimayi holi”) nomli asar alohida kuzatishimiz mumkin. Nasso (Niso) viloyatidagi qal‘alardan birining sohibi bo‘lgan Nasaviy 1224-yilda xizmat yuzasidan Iroqqa borib qoladi va o‘sha yerda Sulton Jaloliddinning xizmatiga kiradi. Shundan e’tiboran u Jaloliddinning ishonchli mulozimlaridan biriga aylanib, to 1231-yilgacha, ya’ni Jaloliddinning vafotiga qadar u bilan birga bo‘ladi. Nasaviy o‘z qahramonini yaqindan bilgan, asarida bayon topgan voqe-a-hodisalarining aksariyatida bevosita ishtirok et gan yoki shohid kishilarning xabarlariga tayangan, eng muhim, xolisona va haqqoniy fikr bildirgan, bular asarning ilmiy qimmati hamda ishonchlilik darajasini oshiradi. Muallif o‘z asarini bitishga Jaloliddin vafotidan qariyb 10 yil o‘tgandan so‘ng 1241-yilda kirishgan. Muhim manbalardan yana biri mash hur tarixnavis Ibn al-Asirning “al-Komil-fit-tarix” (“Tarix haqida mukammal kitob”) asaridir. “Al-Komil-fit-tarix” Yaqin va O‘rtta Sharq mamlakatlari tarixining islom tarqalishidan to 1231-yilgacha bo‘lgan davr haqida ma‘lumot beruvchi eng qim matli manbalardan biri sanaladi. Muallif Jaloliddinning faoliyatiga keng o‘rin ajratadi va ko‘pincha o‘zining muhim va aniq ma‘lumotlari bilan boshqa manbalarni sezilarli darajada to‘ldiradi. Jaloliddin Manguberdi haqida muarrix va yirik davlat arbobi Alouddin Atomalik Juvayniy tomonidan yozilgan “Tarixi jahon kushoy” (“Jahon fotihi tarixi”) asari muhim manbalardan biri sifatida e’tirof etilgan. Bundan tashqari, Mirxon “Ravzat us-safo”, Mirzo Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus” (To‘rt ulus tarixi) asarlarida Jaloliddin Manguberdi haqida ma‘lumotlar yozib qoldirilgan. U haqdagi ma‘lumotlar, shuningdek, xitoy, mo‘g‘ul, arman va boshqa tillardagi manbalarda ham uch raydi. Mashhur shoir va adib Maqsud Shayxzoda 1944-yilda “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasini yozgan. Adib asarida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. O‘zbekiston hukumati 1998-yilda Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko‘rsatgan mislsiz jasorati, Vatanga va o‘z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash va uning porloq ruhini abadiylashтирish maqsadida “Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida” qaror qabul qildi. Qarorga ko‘ra, uning yurti Xorazmda Jaloliddin Man gu berdiga haykal o‘rnatildi, yirik ko‘cha, maydon, jamaa korxonalariga va boshqalarga uning nomi qo‘yildi. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi mustaqil O‘zbekistonda 1999-yili keng nishonlandi. Jaloliddin Manguberdi haqida video film, doston, pyesalar yaratildi, 2000-yil 30-avgustda “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’sis etildi.

## **40-bilet**

### **1. Parvon jangi haqida ma‘lumot bering.**

Parvon jangi (1221) Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi olib borgan janglaridan biri. Parvon jangi mo‘g‘ullarning bu urushdagagi eng katta mag‘lubiyati bo‘lgan. Mo‘g‘ullar bosib olgan ko‘pgina shaharlarda xalq qo‘zg‘olon ko‘tarib mo‘g‘ul noiblarini o‘ldirganlar. Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu no‘yonni 45 minglik qo‘shin bilan jo‘natadi. G‘azna yaqinidagi Parvon dashtidagi jangda Jaloliddin g‘alaba qozondi. Biroq g‘alabadan keyin qo‘lga kiritilgan o‘ljalarini taqsimlashda Jaloliddinning lashkarboshilar o‘rtasida o‘zaro kelishmovchilik boshlanadi. Oqibatda lashkarboshilardan Sayfuddin Ag‘roq, A’zam Malik va Muzaffar Maliklar qo‘shindan ajralib ketadilar. Jaloliddinning ularni qaytarish yo‘lidagi urinishlari naf bermadi. Bu voqeadan so‘ng Jaloliddinning harbiy kuchi zaiflashib qoladi. Fursatdan foydalangan Chingizxon G‘aznaga askar tortadi va ajralib chiqqanlarni alohida-alohida tor-mor etadi.

### **2. Olimp xudosi Zevs haykali haqida ma‘lumot bering.**

Yunonlar Zevsga atab ibodatxona va haykal bunyod etganlar. Xudolar podshosi Zevs taxtda o‘tirgan holda tasvirlangan. O‘ng qo‘lida - ma‘buda Nikaning haykali, chap qo‘lida - muqaddas burgut o‘rnatilgan podsholik hassasi, oltin libosga burkangan, tanasi fil suyagidan taroshlangan, ko‘zlari qimmatbaho toshlardan yasalgan Zevs haykalining balandligi 12 metr edi. Haykal shu darajada mahorat bilan ishlanganki, uni tomosha qilgan kishining tashvishlari, g‘am-g‘ussalari tarqalib ketgan. Haykal haylatarosh Fidiy tomonidan bunyod etilgan.

### **3. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov hayoti va faoliyati.**

Islom Abdug‘aniyevich Karimov 1938 yilning 30 yanvarida Samarqand shahrida oddiy xizmatchi oilasida tavallud topdi. Uning oilasida har kungi og‘ir mehnat yashash uchun pul topishning yagona usuli edi. Uning bolaligi urush va urushdan keyingi yillarga to‘g‘ri keldi. U va uning barcha yaqinlari bir burda nonning haqiqiy bahosini bilganiga qarmasdan, qiyinchilik va yo‘qchilikni boshidan kechirdi, ular minglab vatandoshlarimiz kabi Ikkinci jahon urushi vaqtida O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan kishilar bilan o‘z uyi va tuz-nonini baham ko‘rgandi. Islom Karimov 1945 yilda Samarqanddagi A.S.Pushkin nomidagi 21-maktabga o‘qishga kirib, uni oltin medal bilan tamomladi. O‘quvchilik yillari mobaynida ko‘p adabiyotlarni, ayniqsa, tarix bo‘yicha adabiyotlarni o‘qidi. U aniq fanlarni yoqtirardi, shaxmatga, modellashtirish va stol tennisiga qiziqardi. 1955 yilda Islom Abdug‘aniyevich O‘rtta Osiyo politexnika institutiga o‘qishga kirdi. 1960 yilda uni tamomlab va “muhandis-mexanik” mutaxassisligi bo‘yicha diplom olib, “Toshselmash” zavodida o‘z mehnat faoliyatini boshladi va qisqa davr ichida usta yordamchisi, usta va texnolog kabi lavozimlarda ishlashga ulgurdi. O‘zining intiluvchanligi, bilimdonligi va tashkiliy fazilatlari tufayli 1961 yilda u sobiq Sovet Ittifoqining harbiy-sanoat majmuasining yirik korxonalaridan birida - Toshkent aviatsiya zavodida muhandis lavozimiga tayinlandi. Bu yerda u 1966 yilgacha ishlab, yetakchi muhandis-konstruktur lavozimigacha ko‘tarildi. 1967 yilda u Toshkent xalq xo‘jaligi institutining kechki bo‘limini tamomladi. 1973 yilda Toshkent xalq xo‘jaligi institutida “O‘zbekiston SSR sanoatining tarmoq tuzilishi va uni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1975 yilda Moskvada nufuzli Xalq

xo'jaligi boshqaruvi institutida iqtisodiy-matematik usullar va hisoblash texnikasini qo'llagan holda ishlab chiqarish va rejalashtirishni boshqarish, tashkil qilish zamonaviy usullari sohasi bo'yicha tahsil oldi.

1994 yilda unga iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasi, "makroiqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoni berildi. U O'zbekiston Fanlar akademiyasining "iqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha haqiqiy a'zosi etib saylandi. 1966 yildan e'tiboran Islom Abdug'aniyevich O'zbekiston Davlat reja qo'mitasiga o'tib, fan bo'limi bosh mutaxassislavozomidan Davlat reja qo'mitasi raisining birinchi o'rribbosari lavozimigacha yo'lni bosib o'tdi, jiddiy va o'ziga xos fikrlaydigan iste'dodli iqtisodchi obro'siga erishdi. 1983 yilda Moliya vaziri, 1986 yilda Ministrler Kengashi raisining o'rribbosari - O'zbekiston Davlat reja qo'mitasi raisi bo'ldi. 1986 yil oxiridan Qashqadaryo viloyati partiya qo'mitasi birinchi kotibi lavozimiga tayinlandi. 1989 yil 23 iyun kuni I.A.Karimov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasi birinchi kotibi etib saylandi va o'sha vaqtida fojealar ro'y bergan pallada O'zbekiston boshqaruvini o'z zimmasiga oldi. 1990 yil mart oyida M.S.Gorbachev va uning atrofidagilarni hayron qoldirib, O'zbekiston ittifoqdosh respublikalardan birinchi bo'lib Respublika Prezidenti lavozimini joriy qildi. 1990 yil 24 mart kuni Oliy Sovetning sessiyasida I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti etib saylandi. 1990 yil 21 iyunda O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida I.A.Karimovning tashabbusi bilan "Mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiya" qabul qilindi. Bu mustaqillik kurash borasidagi jasur va hal qiluvchi qadamlardan bo'lib, ular ko'p millionli xalqimiz Moskva markazidan aytilgan kommunistik mafkuraning bosimi ostida boshqa yashashni istamasligining tasdig'i bo'ldi. 1991 yil 31 avgustda 12 chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi. O'sha kunning o'zida "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunga imzo chekdi. 1991-yil 18-noyabrda mamlakatimizda prezidentlik saylovlarini tartibga soluvchi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Shu asosda 1991-yil 29-dekaborda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobililik asosida saylov bo'lib o'tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi va O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi nomzodi Islom Karimov va "Erk" Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo'yildi. Saylovlar yakuniga ko'ra, ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 12,3 foizi esa Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. 1995-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи qaroriga muvofi q, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish masalasi bo'yicha umumxalq referendumi bo'lib o'tdi. 2000-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o'tkazildi. Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobililik asosida o'tkazilgan saylovda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. 2002-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan referendumda prezidentlik lavozimi vakolati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. 2007-yil 23-dekaborda bo'lib o'tgan saylovda 88,1 foiz ovoz bilan Islom Karimov 7 yilga saylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati 2015-yil dekaborda tugashi munosabati bilan Prezidentlik lavozimiga saylov o'tkazildi. 2015-yil 29-mart kunidagi prezident saylovida Islom Karimov 90,39 foiz ovoz bilan g'alaba qozondi. 2016-yil 2-sentabrda Islom Karimov og'ir xastalik tufayli vafot etdi. Suveren va mustaqil O'zbekistonning tashkil topishiga, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etilishiga, fuqarolararo tinchlik va milliy totuvlik ta'minlanishiga qo'shgan misli ko'rilmagan hissasi uchun hamda qat'iyligi va jasurligi uchun "O'zbekiston Qahramoni" (1994, 001-sonli yulduz), "Mustaqillik" (1996, 002-sonli orden), "Amir Temur" (1997, 003-sonli ordenlari bilan taqdirlandi).

